kissavurlik deb ataladi va Jinoyat kodeksining 169-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Shuningdek, bu jinoyatlarni aybdor kompyuter tizimiga internet tarmoqlari orqali kirib sodir etishi ham mumkin. Bu harakatlar asosan yashiringa sodir etiladi, shu sababli o'g'rilik sifatida baholanadi.

O'g'rilik ko'p (eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan) miqdordagi mulkni talon-toraj qilish bilan bog'liq holda sodir etilgan bo'lsa, bunday qilmish Jinoyat kodeksi 169-moddasi uchinchi qismining «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Neft va gaz mahsulotlari mamlakatimizning muhim strategik resursi hisoblanadi. Ular talon-toraj qilinishi davlatimizning iqtisodiy salohiyatiga zarar yetkazadi. Shu nuqtai nazardan, neft va gaz mahsulotlari quvurlarida sodir etilgan o'g'rilik Jinoyat kodeksi 169-moddasi uchinchi qismining «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Maxsus transport vositalari yoki temir yo'l sisternalari orqali tashilayotgan neft va gaz mahsulotlariga nisbatan sodir etilgan talon-torajlik umumiy asoslarda kvalifikatsiya qilinadi.

O'g'rilik: a) juda ko'p miqdorda; b) o'ta xavfli residivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 169-moddasi to'rtinchi qismining tegishli bandlari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'g'rilik juda ko'p (eng kam oylik ish haqining besh yuz baravari va undan ko'p bo'lgan) miqdordagi mulkni talon-toraj qilish bilan bog'liq holda sodir etilgan bo'lsa, bunday qilmish Jinoyat kodeksi 169-moddasi to'rtinchi qismining «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'g'rilik jinoyati sodir etilgunga qadar qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan o'ta xavfli residivist deb topilgan shaxslarning harakatlari, agar uning o'ta xavfli residivist deb topilganlik holati qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmagan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksi 169-moddasi to'rtinchi qismining «b» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

O'g'rilik jinoyati uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 169-moddasi to'rtinchi qismining «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorlari jinoyatchilik, xususan, talonchilik jinoyatlariga qarshi samarali kurashda hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Ularning faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, xalqaro ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda milliy sharoitlarga moslashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, jamoatchilikni jalb etish va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ushbu sohada yuqori natijalarga erishish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat

talonchilik jinoyatlarini kamaytirish, balki jamoat xavfsizligi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi va qonuniylikning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.

6. Таштемиров А. А., Калайов С. А. Ўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.

10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.
12. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo 'yicha sudlar bilan hamkorligining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.
13. Таштемиров А. А. и др. Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы //International scientific research conference. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 97-102.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYACHINING TARBIYALANUVCHILARGA PEDAGOGIK RAHBARLIGI

Rayimova Shahnoza Sodiqovna

*FarDU Maktabgacha ta'lim
mutaxassisligi 2-bosqich magistri.*

Annotatsiya: Maqolada pedagog bola shaxsini tarkib toptirishdagi o'rni, uning ijobiy axloqiy sifatlariga ega bo'lmog'i lozimligi, samimiyligi va be g'arazlik, bag'rikenglik, olijanoblik va xushfe'llik, kechirimlilik sofdillik va pokizalik adolatlilik va insoflilik, hamdardlik va hayrixohlik, andishalik, sabr-toqatlilik, bosiqlik, kamtarinlik, iltifotlilik, fidoiylilik, rahimdillik, g'amxo'rlik, mehribonlik, sadoqatlilik, vafodorlilik, mas'uliyatlilik, aqllilik kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerakligiga doir qarashlar ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, tarbiya, faoliyat, samara, mahorat, bilim, mahorat, tajriba, mehnat.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ РУКОВОДСТВО ПЕДАГОГОВ С ВОСПИТАННИКАМИ ВОСПИТАННИКАМИ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация: В статье высказываются взгляды на роль учителя в формировании личности ребёнка, необходимость наличия у него положительных нравственных качеств, а также на то, что он должен воплощать в себе такие качества, как искренность и бескорыстие, терпимость, благородство и доброта, прощение, искренность и чистота, справедливость и честность, сочувствие и благожелательность, вдумчивость, терпение, хладнокровие, смирение, доброта, бескорыстие, сострадание, забота, доброта, верность, преданность, ответственность, интеллигентность.

Ключевые слова: Учитель, воспитание, деятельность, эффективность, мастерство, знание, умение, опыт, труд.

PEDAGOGICAL GUIDANCE OF TEACHERS TO STUDENTS IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Abstract: The article expresses views on the role of a teacher in shaping a child's personality, the need for him to have positive moral qualities, and the fact that he should embody such qualities as sincerity and selflessness, tolerance, nobility and kindness, forgiveness, sincerity and purity, justice and honesty,

sympathy and benevolence, thoughtfulness, patience, composure, humility, kindness, selflessness, compassion, care, kindness, loyalty, loyalty, responsibility, intelligence.

Keywords: *Teacher, education, activity, effectiveness, skill, knowledge, skill, experience, labor.*

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritadigan tarbiyachi-pedagoglarning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlardagi ishtiroki, bunda 7 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, iqtisodiy, mehnat tarbiyasi turlari bo'yicha olib boradigan mashg'ulotlarga nazariy va amaliy jihatdan tayyorligi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog o'z kasbiga, o'z mutaxassisligiga to'liq yondashar ekan, o'zidagi mavjud xulq-atvor me'yorlari, shaxsiy sifat hamda fazilatlari, shaxsiy va kasbiy komponentlari majmuyidan to'liq foydalana olishi, bunda o'z ustida ishlash, ijodkorlik, yaratuvchanlik, mehnatsevarlik, samimiylik, ochiqko'ngillik kabi insoniy sifatlarning faoliyatdagi asosiy kategoriyalardan ekanini anglashi lozim.

Pedagogning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga kirishishi bir vaqtning o'zida kasbga bo'lgan mehr, bolalarni sevish, MTTda mavjud imkoniyat va qulayliklardan foydalangan holda tarbiyalanuvchilarga bilim berishda o'zidagi nazariy va amaliy faoliyat ko'nikmalarni to'laqonli qo'llay olish malakasini ham talab etadi. Bolalar bilan ishlash, ularni o'yin, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga qiziqtirish, diqqatini jalb etish, tinchlantirish kabi jarayonlarda pedagogning faoliyatida muhim hisoblangan kasbiy va shaxsiy komponentlarning qay darajada ekani faoliyatlarning sifat va samaradorligiga ta'sir etadi. Shaxsiy va kasbiy komponentlar esa sohaga doir adabiyotlar bilan tanishish, izlanish, yangiliklar yaratishga intilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardorlik, malakali mutaxassislar bilan uchrashuv va suhbatlarda shakllanadi.

Bolalarni tushunish, ularning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlaragi ishtiroki, faolligi, xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ular faolligini nazorat qilish, alohida ehtiyojga ega bo'lgan yohud imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ham faoliyat darajasini ko'rsatuvchi kasbiy sifatlar shaxsiy fazilatlarga bog'liq ravishda pedagogning ilmiy, ijodiy bilim darajasi, dunyoqarashi, ma'naviy olami, ichki "men"ining qay darajada ekanini namoyon etadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogning shaxsiy va kasbiy komponentlari ahamiyati shundaki, mavzulashtirilgan faoliyatlarni boshlash, o'tkazish va yakunlashdagi nazariy va amaliy qismlar pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasida bevosita kechadigan kommunikativ jarayonlarga birdek aloqadorlikka ega va bu aloqadorlik bolaning bilish, hissiy, ijodkorlik kabi kompetensiyalari shakllanuvi va rivojlanuvida yetakchi jarayon bo'lib sanaladi.

Pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlari bir-biriga uyg'un va mutanosib bo'lgandagina ta'lim oluvchilarning diqqat, qiziqishi yanada ortadi. Pedagogning kasbga bo'lgan sevgisi, diqqat-e'tibori ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarning mukammal, yuqori sifat va samaradorlikda kechishida asosiy vositalardan ekanidan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlardagi ahamiyatini muhim yo'nalishlardan biri deb baholashimiz mumkin. Chunki aynan bolaning pedagog shaxsiga beradigan bahosi tarbiyachining kasbiy bilimlari-yu shaxsiy sifatlaridan kelib chiqadi. Pedagog MTTda ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kirishar ekan, birinchi galda o'zidagi ichki ijobiy sifatlari, axloqiy fazilatlar, milliy va an'anaviy qadriyatlar majmuyini namoyon etadi. Bolani tushunish, uni qo'llab-quvvatlash, shaxsiy o'rnatish va namuna ko'rsatish va eng asosiysi, BOLALARNI SEVISH hissi pedagog-tarbiyachining kundalik faoliyatdagi ustuvor talablardan biri sifatida to'la namoyon bo'lgandagina maktabgacha ta'lim tizimida o'zimiz kutgan a'lo natijadorlikka erishishimiz mumkin. Unutmaslik lozimki, bolalar bilan o'yin ichidagi o'rganish, bilish va o'zlashtirish jarayonida tarbiyachi kasbiy mahoratining yuzaga chiqishi bolalarning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga osonlik bilan kirishuviga imkon yaratadi, ularni hissiy, jismoniy, aqliy hamda axloqiy fazilatlarini shakllanuvda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Pedagog kasbi unga mansub bo'lgan shaxsga shunday talab va vazifalarni qo'yadiki ular, birinchi navbatda, faoliyat obyekti bo'lgan bola shaxsiga bo'lgan munosabatda o'z aksini topishi lozim. Buyuk polyak pedagogini Yamush Karchak buni "bolalarni sevmok kerak", deb e'tirof etgan edi.

Pedagog bola shaxsini tarkib toptirar ekan, uning o'zi to'liq ma'noda ijobiy axloqiy sifatlarga ega bo'lmog'i lozimligini ko'rsatadi. Ular quyidagilardan iborat: samimiylik va beg'arazlik, bag'rikenglik, olijanoblik va xushfe'llik, kechirimlilik, sofdillik va pokizalik adolatlilik va insofililik, hammadlik va hayrixohlik, andishalik, sabr-toqatlilik, bosig'lik, kamtarinlik, iltifotlilik, fidoiylik, rahimdillik, g'amxo'rlik, mehribonlik, sadoqatlilik, vafodorlilik, mas'uliyatlilik, aqllilik kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Yurtboshimiz tomonidan yuksak ishonch bildirilayotgan, har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgan, sohadagi mavjud muammolar aniq reja va dasturlar bo'yicha hal etilayotgan bir sharoitda ertamiz egalari taqdiriga befarq bo'lmaslik, aksincha, ularning bugungi va ertangi ta'lim-tarbiyasi yo'lida harakatda, uyg'oqlikda, jonbozlik va tashabbuskorlikda bo'lish bugungi kun zamonaviy tarbiyachi pedagogining yetakchi hamda ustuvor maqsadlaridan bo'lishi darkor.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajarar ekan, tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga

ko'maklashuviga yordam beradi. O'z faoliyatini endigina boshlayotgan tarbiyachilar tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi omillarni bilishi lozim:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda tarbiyalanuvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan bola ongiga aniq yetkaza olish;
- faoliyatda tarbiyalanuvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatish;
- tarbiyalanuvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda pedagoglar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir tarbiyalanuvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish;
- tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kelib chikishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

Ko'rinadiki, sohada kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri – zamonaviy asbob-anjomlar, uskunalar bo'lsa, ikkinchisi malakali, salohiyatli ishchi kuchi, ya'ni xodimlardir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ichki ma'naviy muhiti hamda mehnat jamoasida sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashda ana shu ishchi kuchi sanalgan xodimlarning o'zaro ahilligi, bir-birini tushunishi, bir-biriga yordam berishi va o'z ustida ishlashi, yangiliklar yaratishga qiziqishi va amalga oshirib borishi kabilar ham muhim ahamiyatga ega. Yuksak salohiyatli, tajribali, qolaversa, shaxsiy sifatlarga ega xodimlar tashkilotning, jamoaning yuzi, raqobatbardoshlikda esa asosiy kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi". Darslik. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asrnboyeva. Toshkent – 2017.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasbhunar ta'limi markazi. – Toshkent: "Faylasuflar" nashriyoti, 2017.

TURLI MULK SHAKLIDAGI KORXONALARDA INNOVASION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

G'ayrataliyev Javohir Mirzohid o'g'li

NamDU IQT-BU-25 talabasi

javosh78gayrat@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli mulk shaklidagi korxonalarda innovasion faoliyatni tashkil etish masalalari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *innovasion, ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, texnologik jarayonlar, boshqaruv jarayoni.*

Innovasiya xo'jalik yurituvchi subektlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni, uning moddiy texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Faoliyat sifatida innovasiyalarni insoniyat mehnat faoliyatining barcha jabhalarida qo'llash mumkin. Bu faoliyatni yuritish jamiyatda fan-texnika taraqqiyotiga olib keladi. Innovasion faoliyat quyidagi yo'nalishlardagi yangilikni ixtiro qilish va joriy qilishni o'zida mujassamlashtiradi:

- yangi mahsulot;
- yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkiliy shakli;
- yangi boshqaruv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishi, ularga mos ravishda, yangi moliyaviy dastaklar va tashkiliy tuzilmalar.

O'zbekistonda turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik subektlarida innovasion faoliyatni tashkil etishda yuzaga kelgan dolzarb muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan bir necha tadbirlar kompleksini amalga oshirishi zarur.

Birinci navbatda, korxonalar, hudud va mamlakat miqyosida barcha darajalarda ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va iqtisodiyot talablaridan kelib chiqqan holda kadrlarni tayyorlash tizimi moslashuvchanligini ta'minlash kerak.

Ikkinchidan, yirik korxonalarda ilmiy tadqiqot, tajribaviy-konstruktiv va texnologik ishlar faoliyatini tashkil etish, natijalarini keng targ'ib qilish maqsadida ilmiy tadqiqot hamda ishlanmalarning salohiyati va samaradorligini mustahkamlash, ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlik integrasiyasi amaliy mexanizmlarini yaratish zarur.


Uchinchidan, innovasiyalarga davlat va xususiy mablag'larni kiritish darajasini oshirishga erishish, moliyalashtirishning zamonaviy va samarali usullarini targ'ib qilish muhim.

To'rtinchidan, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishga innovasion boshqaruvning zamonaviy usullari va jihozlarini joriy qilish yo'li orqali erishish.

Beshinchidan, biznesni targ'ib qilish, davlat-xususiy sektor hamkorligining rivoji uchun shaxsiy huquqlar himoyasini ta'minlash tizimini takomillashtirish, raqobatbardosh bozorlar va teng shart-sharoitlar yaratish zarur.

Va nihoyat, barqaror faoliyat yurituvchi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma yaratish ustida ish olib borish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, innovatsiyalarni joriy qilishning eng optimal darajalarini e'tiborga olgan holda innovasion faoliyatga quyidagicha ta'rif va tavsiflarni berish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Innovatsiyani iqtisodiy faoliyat sifatida turlari

Innovasion faoliyat - bu ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga

a imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasidir.

Innovasiya esa amaliyotda qo'llanilgan va birmuncha samara bergan tamoyil yangi g'oya hisoblanadi. Ma'lum bir korxonada qo'llanilib, ma'lum bir samara yoki daromad keltirgan innovasiya bu ilmiy yoki boshqaruv sohalarida oldindan ma'lum bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday innovasiya ichki yoki lokal innovasiya deyiladi.

Tashqi innovasiya deb shunday innovatsiyalarga aytiladiki, ular butun jamiyat uchun yangi qo'llanilgan bo'ladi, masalan yangi mahsulot, yangi boshqaruv tizimi, yangi qonun, yangi ijtimoiy dastur va boshqalar. Bunday innovasiya odatda umumiylik tavsifiga ega bo'lib, ularga keng miqyosida qo'llanilish tavsiflidir.

Innovatsiyalarning tavsifli jihatlari (belgilari) sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

yangilik (ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy-boshqaruv, ijtimoiy va hokazo);

amaliy ahamiyatligi (fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning rivojlangan darajasida ham innovatsiyani qo'llanilishi mumkinligi);

tijoratni ahamiyati (bozor iqtisodiyotida qo'llanilishi, bu innovatsiyani samaradorligining shartidir).

Iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishning tashabbuskori bo'lib tadbirkor, ya'ni shaxs hisoblanadi, chunki, aynan tadbirkor (shaxs) foyda olish uchun resurslardan oqilona foydalanish yo'lini izlay boshlaydi.


D.Kondrat'yev¹ farazi bo'yicha iqtisodiyotning rivojlanishi davrlar, sikllar yoki to'liqlar kabidir, ya'ni to'liqlar uzun, iqtisodiy rivojlanishning uzoq davri (30-50 yil), qisqasi (3-5 yil) bo'lishi mumkin. Har qanday to'liqning boshlanishi iqtisodiy o'sish bilan boshlanib, to'xtashi iqtisodiy pasayish bilan tugaydi.

Agarda iqtisodiy rivojlanish qisqa davrda pasayish bilan tugaganda, uni ishlab chiqarish va texnologiyasida ozgina o'zgarish yuz beradi, unga ko'tarilish bilan o'tib olinsa, uzun to'liqlarni, ya'ni uzoq davrli iqtisodiy inqirozlarni bazisli innovasiya orqali, ya'ni ishlab chiqarish va iqtisodiyot, fan, texnologiyani tubdan o'zgartirib amalga oshirish mumkin, chunki uzoq davrli iqtisodiy inqirozlar chuqur tavsifga ega bo'ladi.

Innovasion rivojlanish nazariyasining asoschisi bo'lib I. Shumpeter hisoblanadi. Uning nazariyasiga asosan chuqur iqtisodiy inqirozlar bazisli innovasiyalar asosida bartaraf etiladi, bu holda nafaqat iqtisodiyot o'zgaradi, balki ijtimoiy rivojlanishda o'z izini qoldiradi, chunonchi yangi tarkiblar, yangi mutaxassisliklar tashkil topadi, yangi fanlar, ishlab chiqarishda yangi tarmoqlar tashkil qilinadi, yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Demak, innovasiya bu insoniyat rivojlanshi va taraqqiyotining nafaqat iqtisodiy nuqtai nazaridan, balki aqliy, intellektual nuqtai nazari bo'yicha ham rivojlanish majmuidir. Innovasiya intellektual mehnat mahsuloti bo'lib, sivilizasiyani rivojlanishiga katta xissa qo'shadi.

Ushbu usullarga tayangan holda makon va zamonda innovasion imkoniyatni quyidagi turlarga ajratish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Innovasion imkoniyat va uning turlari

Xalqning innovasion imkoniyati jamiyatning ilmiy salohiyati va ilmiy yo'nalishini ifodalaydi, bu o'z navbatida uni mintaliteti, rivojlanish tarixi, ijtimoiy va siyosiy jihatlariga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" Qonuni. -T., 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni
3. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma / prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - T.: "Moliya", 2010. 328 b.
4. Gozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: "Moliya", 2003. - 332 b.
5. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(10).
6. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(11-12).
7. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(6).
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLYAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142-146.
9. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 74(2), 65-70.
10. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent-2023*.
11. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
12. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLYAVIY MEKANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
13. Hakimov, B. J., Alimov, B. B., Xolmirzayev, U. A., & Polatov, A. X. (2013). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. *T: "Iqtisod-Moliya"-2013*.
14. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О

ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.

15. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.

16. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.

17. Xolmirzayev, U. A., & Hakimova, G. A. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Экономика и социум*, (5-1 (120)), 938-941.

18. Xapizovich, X. A. (2023). Directions of Poverty Reduction Based on the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 632-636.

19. Kholmirzaev, A. K. (2021). Criteria and directions of development of small business activities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 730-735.

20. Kholmirzaev, A. (2020). Ways of small business development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 162-167.

21. Boxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(04), 9-12.

22. Boxodir o'g'li, I. A. (2025). Organization of Accounting for Expenses and Income in Small Businesses. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(3), 1053-1059.

23. ИСОМУХАМЕДОВ, А. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. *ЭКОНОМИКА*, 492-497.

24. Hakimova, D. (2025). INNOVATSIYA VA INNOVATSION SALOHİYATNING PEDAGOGIK AHAMIYATI. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 204-208.

25. Кадирова, Х. (2024). Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(8).

26. Кадирова, Х. Т., & Мирзахоликов, Б. Б. (2019). Проблемы развития инвестиционной политики на финансовом рынке и пути их решения. In *Интеграция науки и практики в современном мире* (pp. 35-43).

27. Muradova, N. (2023). APPLICATION OF ITALIAN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESSES AND ENTREPRENEURSHIP IN THE FUTURE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(04), 24-28.

28. Nazira, M., & Zarifa, M. M. (2024). KICHIK BIZNES KORXONALARIDA

MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(35), 19-29.

29. Nazira, M. (2024). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA MARKETINGNI QO 'LLASH TENDENSIYALARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 44-50.

XALQ AMALIY SAN'ATINI O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'RGANISH

Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna

Termiz davlat pedagogika institute

Texnologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi

Qodirova Shohista Baxrom qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi III-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu ishda xalq amaliy san'ati namunalari – kashtachilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik va boshqa milliy hunarmandchilik turlari – o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda interfaol metodlardan foydalanishning o'quvchilar bilimi, qiziqishi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. "Aqliy hujum", "Klaster", "Bumerang", "Blits-so'rov", "Juftlikda ishlash", "Keys-studiya" kabi metodlar xalq amaliy san'atiga oid mavzularni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

Annotation. This study explores the integration of samples of traditional folk applied arts—such as embroidery, jewelry making, woodcarving, pottery, and other national handicrafts—into the educational process using modern pedagogical approaches. The research provides a theoretical and practical analysis of the role of interactive teaching methods in enhancing students' knowledge, interest, and creative thinking. Methods such as "Brainstorming," "Cluster," "Boomerang," "Blitz Survey," "Pair Work," and "Case Study" are scientifically substantiated as effective tools for achieving deeper comprehension of topics related to folk applied arts.

Kalit so'zlar: xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchilik, kashtachilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, aqliy hujum, "Insert" texnologiyasi, muammoli ta'lim, tabaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish, milliy qadriyatlar, estetik tarbiya, ta'lim sifati, faol o'qitish usullari, ko'rgazmalilik, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Keywords: folk applied arts, national handicrafts, embroidery, jewelry making, wood carving, ceramics, interactive teaching methods, pedagogical technologies, innovative education, practical training, competency-based education, brainstorming, "Insert" technology, problem-based learning, differentiated approach, developing students' creativity, national values, aesthetic education, quality of education, active learning methods, visualization, formation of practical skills.

ASOSIY QISM

O'zbek milliy kashtado'zligi xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan hisoblanadi. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevarlari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy mamlakatlarda ham mashhur. Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, amaliy san'at muzeylarida ham qo'l kashtachiligi namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha bu buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. Unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiligi usullarini uchratamiz. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos, eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, baxmal matolarga tikilgan. Hozirgi kungacha ham satin, shoyi, baxmalga tikiladi. Ish jarayonida kashtachilar o'z mahoratlarini oshirishadi va bir-biridan o'rganishadi. Kashta choklari, tikish uslublarining turli-tumanligi o'zbek kashtado'zlarining katta san'atidan dalolat beradi. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachilik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. O'zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olgan. Kashtalarda o'simliksimon tasvirlar - shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Naqsh mujassamligida asosiy bezak matoning o'rtasida bo'lib, hoshiyalar qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko'p. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islmiy gul (naqsh)lar kashtachilikda ham ko'p uchrashi chizmakash (naqqosh)lar amaliy bezak san'atining turli sohalariga chizma (naqsh)lar tayyorlaganini ko'rsatadi. Kashtachilikda chizmakashlar yaratgan naqsh (gul)lar asosida kashtado'zlar badiiy buyum yaratadilar. Kashtada naqsh tuzishda geometrik shakllar uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolardan, shuningdek, to'lqinsimon, siniq chiziqlar, o'simlik belgilari (barglar, gullar, shoxlar, daraxtlar)dan, jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan, shuningdek, umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba'zan naqshda geometrik shakllar bilan tabiatga xos belgilar qo'shilgan bo'ladi. Naqshning hamma qismlari mutanosib bo'lishi kerak. Ba'zan bezakda motivlar qaytarilmaydi. Bezak simmetrik va asimmetrik tuzilishi mumkin. Kashtachilik san'atida lik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari

bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari-bo'lajak kelinchak seplari bo'lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni dastro mol, choyxalta, parda, belbog, sumka, nimcha, Joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, sozana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg'alarmi o'zlari tayyorlashgan. To'yda kuyovning qarindosh-urug'lariga kelin o'zi tikkan buyumlarini sovg'a qilgan. To'ydan oldin sep yoyib ko'rgazma qilinar, bu kelinning chevarligini, mehnatsevarligini namoyish etishi va kashta qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa yuqori baholanar edi. Qizlar juda yoshligidan boshlab kashta yoshligidan boshlab kashta tikishga o'rgatilib, ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tikishni boshlaganlar. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, ollada kashta tikish bilan ayollar shug'ullanishgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Ish jarayonida ular o'z mahoratlarni oshizishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o'rganishgan. Xalq badiiy hinarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach ipak, zar yoki jun ip qo'shib tikligan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topgan. XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmoniy turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar. Qrim va Kavkazning qayeridagi Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha yerda kashtachilik rivojlanavergan. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o'rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko'ra juda turli-tumandir. Popok (yo'rma) chokli kashta tikish Olonets, Vologda oblastlari va Arxangelsk oblastining g'arbly qismida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda Rossiyada ellikdan ortiq baxyasimon kashtado'zlik korxonalari bor. Ivanovo, Ryazan, Kalinin, Smolensk va boshqa oblastlarda kashtado'zlik markazlari bo'lib, u yerdagi korxonalarda turli kiyimlar va uy ro'zg'omi bezaydigan turli buyumlar ishlab chiqariladi. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Kashtado'zlikning yirik namoyandalaridan Andijondagi "Qizil bayroq arteli rassom kashtado'zi X.Nazarov, Samarqanddagi "Xotin-qizlar mehnati" arteli kashtado'zi Usmon Shokirov, toshkentlik kashtado'z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo'lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o'rgandi. X. Sobirova 15 yoshidan boshlab onasining kashtado'zlik hunarini davom ettirib, "Sharq gullari" va "Ilgor" nomli Stalin artelida 16 yil ishlab ko'p

shogirdlar yetishtirishda o'z hissasini qo'shdi. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik xaqidagi orzularini ifodallasiga harakat qilganlar. Kashtaga naqsh bosish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi. Kashtada rang muhim ahamiyat kasb etadi. Iplarni tanlashda ranglarning uyg'unlashuvini, bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. O'zaro mos ranglarni tanlashda berk spektor qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi. Ranglar xromatik va axromatik bo'ladi. Kamalak spektoridagi ranglar xromatik ranglar deyiladi. Axromatik ranglarga oq, kulrang, qora ranglar kiradi. Spektor doi-rasining qarama-qarshi tomonida joylashgan ranglar qo'shimcha ranglar deyiladi. Agar qizil rangning o'rtasidan diametr o'tkazilsa, u ranglar doirasidagi qizil rangning taxminan to'g'risidagi zangori yashil rangni kesib o'tadi. Demak, qizilga zangori - yashil, to'q sariqqa - zangori, sariqqa - ko'k, yashilroq sariqqa - binafsha va hokazo qo'shimcha ranglar bo'ladi.

XULOSA

O'zbek kashtachilik san'ati xalqning ko'p asrlik madaniyati, ma'naviyati va estetik didini ifodalovchi nodir an'analardan biridir. Unda o'simliksimon, geometrik va gul naqshlarining ko'p qo'llanishi milliy dunyoqarash, tabiatni go'zallik manbai sifatida tasavvur etish bilan bog'liq. Qadimdan qizlar sep tayyorlash jarayonida turli kashtali buyumlarni mustaqil yaratish orqali nafaqat hunar, balki sabr, did, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni ham egallaganlar. Kashtachilik avloddan-avlodga o'tib, har bir hudud o'ziga xos maktab va uslublarni shakllantirgan. Kashtado'zlik O'rta Osiyoda keng tarqalib, shoyi, adras, baxmal kabi matolarga turli chok turlarida tikilgan. Bu san'at boshqa xalqlar madaniyatida ham chuqur iz qoldirgan: Vavilon, Vizantiya, Kichik Osiyo, Qrim, Kavkaz va qadimgi Rus kashtachilik an'analari o'zaro ta'sirda rivojlangan. XIX asrda kashta mashinasining kashf qilinishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga imkon yaratib, bu hunar sanoat darajasiga ko'tarildi. XX asrda X. Nazarov, U. Shokirov, X. Sobirova kabi ustalar yangi kompozitsiyalar, naqshlar va tikish texnikalarini yaratib, kashtachilik san'atining takomillashuviga muhim hissa qo'shdilar. Ularning faoliyati nafaqat san'at namunalari, balki ko'plab shogirdlar tarbiyasi orqali bu hunarning davomiyligini ta'minladi. Umuman, kashtachilik san'ati xalqning estetik qarashlari, turmush tarzi va madaniy merosini yorituvchi boy ma'naviy xazina bo'lib, bugungi kunda ham o'zining badiiy ahamiyati, milliy o'ziga xosligi va hunarmandchilik an'analari bilan yuksak qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rui Gonsales de Klavixo. Samarkandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) T: 2010. B. 199.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. B.263.

3. Dala yozuvlari Boysun tumani. Qizilnavr mfy. (2021-2022 y.y.).
4. Dala yozuvlari Boysun shah. Tuzbozor mfy. Istiqlol ko'chasi (2022-yil.)
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. -B.263.
6. Dala yozuvlari, Muzrabot t. Do'stlik, Navro'z mapallari va Xushman qishlog'i (2021-2022-y.y.).
7. Dala yozuvlari, Jarqo'rg'on t. Qoraqurm mahallasi va Hurnamandlari uyushmasi (2022-2023 y.y.)
8. M.A.Maksumova, Q.M.Abdullayeva. Xalq xunarmandchiligi. - T.: TDPU, 2008.

OSIYO VA AMERIKA MADANIYAT MENEJMENTI TAJRIBALARI**Uspanova Qundiz Ansatbay qizi***O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali**"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" mutaxassisligi**Magistratura 1-kurs*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa, Osiyo va Amerika mintaqalarida madaniyat menejmenti tizimining shakllanishi, rivojlanishi va o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Har bir mintaqada madaniyatni boshqarish modeli, uning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bog'liqligi, shuningdek madaniyatni saqlash, targ'ib qilish va innovatsion rivojlantirish strategiyalari o'rganiladi. Maqola madaniyat menejmenti bo'yicha xalqaro tajribalarni solishtirgan holda, O'zbekiston uchun mos bo'lgan g'oyalar va yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Madaniyat menejmenti, Yevropa tajribasi, Osiyo modeli, Amerika madaniyat siyosati, kreativ industriyalar, madaniy meros, innovatsion rivojlanish.*

KIRISH

Globalizatsiya sharoitida madaniyat millatning o'zligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u nafaqat tarixiy merosni saqlash, balki jamiyatni birlashtirish, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va xalqaro maydonda mamlakat obro'sini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda madaniyat menejmenti alohida fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida shakllanib, davlatlar tomonidan madaniy siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniyatni samarali boshqarish uchun an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy boshqaruv, marketing, innovatsiya, texnologiya va kreativ iqtisodiyot elementlarini uyg'unlashtirish zarurligi anglanmoqda.

Yevropa, Osiyo va Amerika mintaqalari madaniyat menejmenti sohasida bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Yevropada madaniyat asosan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, tarixiy merosni saqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, Osiyoda milliy qadriyatlar va an'analarni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish ustuvorlik kasb etadi. Amerika modeli esa bozor iqtisodiyoti, xususiy sektor va kreativ industriyalar orqali madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu mintaqalarning tajribasi madaniyat menejmentining turli shakllarini chuqur o'rganish va ularni moslashtirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Yevropa madaniyat menejmenti tajribasi

Yevropada madaniyat menejmenti ko'pincha davlat siyosati darajasida rivojlangan va madaniy merosni saqlashga yo'naltirilgan. Masalan, Fransiyada "Ministère de la Culture" madaniyatni rivojlantirish va saqlashga mas'ul bo'lib, teatr, muzey va kutubxonalarni moliyalashtiradi. Germaniyada esa federal va shtat

darajasida madaniyat boshqaruvi mavjud bo'lib, har bir mintaqaga o'zining madaniy strategiyasini ishlab chiqadi.

Yevropa tajribasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Davlatning faol roli: Madaniyat davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida himoya qilinadi va moliyalashtiriladi.
- Tarixiy merosni saqlash: Yevropa mamlakatlarida tarixiy binolar, arxivlar va an'anaviy san'at turlari katta e'tibor bilan asrab kelinadi.
- Xalqaro hamkorlik: Yevropa Ittifoqi doirasida grantlar, madaniy almashinuv dasturlari va xalqaro loyihalar faol amalga oshiriladi.

Masalan, Erasmus+ dasturi orqali san'at va madaniyat sohasida talabalarning va mutaxassislarning xalqaro tajriba almashuvi amalga oshiriladi. Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida kreativ industriyalarni rivojlantirish bo'yicha maxsus grantlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud.

Osiyo madaniyat menejmenti yondashuvi

Osiyo mamlakatlarida madaniyat menejmenti ko'proq milliy qadriyatlarni saqlash va ularni global maydonga olib chiqishga qaratilgan. Misol uchun, Yaponiya madaniyat menejmenti qadimiy an'analar va zamonaviy innovatsiyalarni uyg'unlashtirishga asoslangan. Shinto va buddizm merosini saqlash bilan birga, anime, manga va raqamli san'at orqali xalqaro auditoriyaga chiqadi.

Janubiy Koreya "Hallyu" yoki "Korean Wave" orqali K-pop va kino mahsulotlarini butun dunyoga eksport qilmoqda. Bu esa milliy brendni yaratish va turizmni rivojlantirishga yordam beradi.

Xitoyda esa madaniyat menejmenti hukumatning strategik yondashuvi bilan bog'liq bo'lib, milliy madaniy markazlar, teatrlar va san'at festivalari davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Hindistonda esa Bollywood kino industriyasi madaniyatni tijoratlashtirish va xalqaro miqyosda targ'ib qilishning eng yorqin namunasi hisoblanadi.

Osiyo tajribasining asosiy jihatlari:

- Milliy qadriyatlarni saqlash: Madaniyat menejmenti an'anaviy qadriyatlarni targ'ib qilishga yo'naltiriladi.
- Texnologiya va innovatsiyalar: Madaniyatni raqamli platformalar va turizm orqali global auditoriyaga yetkazish.
- Ekonomik foyda: Madaniyatni iqtisodiy resurs sifatida ishlatish, ya'ni kino, musiqiy va san'at mahsulotlarini eksport qilish.

Amerika madaniyat menejmenti modeli

Amerika Qo'shma Shtatlarida madaniyat menejmenti asosan bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida rivojlangan. Bu yerda madaniyat – iqtisodiy resurs, biznes sohasi va xalqaro brend yaratish vositasi sifatida qaratiladi. Masalan, Gollivud kinofilmlari, Broadway teatrlari, Disney va Netflix platformalari madaniy mahsulotlarni tijoratlashtirishning asosiy manbalari hisoblanadi.

Amerika modelining xususiyatlari:

- Xususiy sektor roli: Madaniyat xususiy kompaniyalar va investorlar tomonidan moliyalashtiriladi.
- Bôzor mexanizmlari: Madaniyat mahsulotlari raqobat va marketing orqali rivojlanadi.
- Innovatsion kreativ industriyalar: Madaniyat va texnologiyalar birlashtiriladi, masalan, virtual haqiqat, video o'yinlar va raqamli kontent.

Amerika tajribasida davlat ko'proq tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi rol o'ynaydi: grantlar, stipendiyalar va qonunchilik orqali madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, madaniyat menejmenti ijodkorlar va xususiy sektor ishtirokida dinamik va samarali tizim sifatida shakllanadi.

O'zbekiston madaniyat menejmenti tajribasi

O'zbekiston madaniyat menejmenti o'zining tarixiy merosga boyligi, milliy an'analarni saqlash siyosati va zamonaviy madaniy-sanoat infratuzilmasi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillaridan boshlab madaniyat sohasini modernizatsiya qilish, madaniy merosni tiklash va xalqaro miqyosda targ'ib qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston modelining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Madaniyat va san'atni rivojlantirish bo'yicha maxsus qarorlar, davlat dasturlari va fondlar (O'zbekiston Madaniyat vazirligi, Madaniy meros agentligi, "O'zbekkino") orqali tizimli boshqaruv yo'lga qo'yilgan.

- Muzeylar, teatrlar, san'at maktablari, meros obyektlari rekonstruksiya qilinmoqda.

- UNESCO ro'yxatiga kiritilgan obyektlar (Ichon qal'a, Buxoro, Shahrisabz, Samarqand) turizmning asosiy tayanchiga aylanmoqda.

Milliy madaniyatni global maydonga olib chiqish

O'zbek raqsi, maqomi, milliy amaliy san'at, xalq liboslari, o'zbek kinosi va musiqasi jahon sahnasiga faol chiqmoqda. "Sharq taronalari", "Ipak va ziravorlar", "Lazgi festivali", "Bakhshi san'ati festivali" kabi yirik tadbirlar xalqaro brendga aylanmoqda.

Kreativ industriyalar rivoji

So'nggi yillarda O'zbekistonda kino industriyasi, dizayn, IT-kreativ loyihalar, animatsiya, media mahsulotlar va kontent yaratish bo'yicha yangi bozor shakllanmoqda.

- Yoshlar ijod markazlari
- Art-galereyalar
- Raqamli kontent studiyalari

bu jarayonning muhim qismi sanaladi.

Turizm va madaniyat sinergiyasi

“Ziyorat turizmi”, “Ipak yo‘li” brendi va tarixiy shaharlarning rekonstruksiya qilinishi madaniyat menejmenti bilan turizm iqtisodiyotini birlashtirdi. Madaniy obyektlar endilikda nafaqat meros, balki iqtisodiy foyda manbai sifatida ham qaralmoqda.

Ta‘lim va kadrlar tayyorlash

San‘at va madaniyat sohasida yangi o‘quv dasturlari yaratilmoqda:

- O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
- Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
- Madaniyat va san‘at maktablari

Madaniyat menejmenti bo‘yicha maxsus yo‘nalishlar ham ochilgan.

O‘zbekiston modeli Yevropa merosni saqlash yondashuvi, Osiyo innovatsion eksport modeli va Amerika kreativ industriyalar tajribasini muvozanatli uyg‘unlashtirishga intilayotgan tizim sifatida shakllanmoqda.

XULOSA

Madaniyat menejmenti dunyoning turli mintaqalarida o‘ziga xos shakllarda rivojlanmoqda va har bir modelning afzalliklari ham, cheklovlari ham mavjud. Yevropa, Osiyo va Amerika tajribalarini solishtirib tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki:

Yevropa modeli – bu asosan davlat tomonidan boshqariladigan va madaniy merosni saqlashga yo‘naltirilgan tizimdir. Yevropa mamlakatlarida madaniyatni rivojlantirish uchun an‘anaviy san‘at turlarini saqlash, muzey va teatrlarni moliyalashtirish, xalqaro hamkorlik va grant dasturlarini yo‘lga qo‘yish tizimi samarali ishlaydi. Shu bilan birga, davlatning katta rol o‘ynashi ba‘zan kreativ yangiliklarni amalga oshirishni sekinlashtirishi mumkin.

Osiyo modeli – bu milliy qadriyatlarni saqlash va ularni global maydonga olib chiqishga qaratilgan yondashuvdir. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Hindistonda madaniyat menejmenti texnologiya, turizm va kreativ industriyalarni uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy va siyosiy foyda olishga intiladi. Bu yondashuv milliy madaniyatni targ‘ib qilishda samarali bo‘lsa-da, ba‘zi hollarda iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lmagan loyihalar ham yuzaga kelishi mumkin.

Amerika modeli – bu bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida shakllangan, madaniyatni iqtisodiy resurs sifatida rivojlantiradigan tizimdir. Amerika Qo‘shma Shtatlarida xususiy sektor, media kompaniyalar va kreativ startaplar madaniyatni tijoratlashtirish va global auditoriyaga yetkazishda yetakchi rol o‘ynaydi. Ushbu model innovatsiyalar va kreativ mahsulotlar rivojlanishida juda samarali, lekin davlat tomonidan madaniyatning jamiyatga ijtimoiy ta‘sirini nazorat qilish imkoniyati cheklangan.

O‘zbekiston uchun ilmiy tahlil va amaliy tavsiyalar:

Ushbu uch modelning tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston madaniyat menejmentini rivojlantirishda kompleks yondashuvni qo‘llashi maqsadga muvofiq. Ya‘ni:

- Milliy madaniy meros va an'analarni saqlash bo'yicha Yevropa tajribasidan foydalanish;
 - Zamonaviy texnologiyalar va xalqaro brend yaratish bo'yicha Osiyo tajribasini integratsiya qilish;
 - Kreativ industriyalar va bozor mexanizmlari orqali madaniyatni tijoratlashirishda Amerika modelini qo'llash.
- Shunday qilib, samarali madaniyat menejmenti strategiyasi davlat siyosati, milliy qadriyatlar, innovatsion texnologiyalar va bozor mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali shakllanishi mumkin. Bu yondashuv O'zbekistonning madaniy salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda obro'ini mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Council of Europe "Cultural Routes Management: From Theory to Practice" 2015
2. Usmon Qoraboyev G'ayrat Soatov "O'zbekiston madaniyati" 2011
3. Bekmurodov M. Tashkilot madaniyati va rahbar ma'naviyati. – Toshkent., 2001
4. Кабушкин Н.М. Основы менеджмента: учеб. пособие. – Москва., 2009.

ESHITISHDA NUQSONI BOR INSONLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATI

Eshdavlatova Muhtaram Olimjon qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Tibbiy pedagogika fakulteti

Surdotarjimonlik yo'nalishi 1-bosqich 101-A guruh talabasi

Annottatsiya: *Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan insonlarning jamiyatdagi o'ri, ularning shaxslararo munosabatlarida uchraydigan muloqot to'sqinliklari hamda psixologik va ijtimoiy omillar yoritilgan. Oilaviy qo'llab-quvvatlash, inklyuziv ta'lim, surdotarjimonlar va texnologik imkoniyatlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, davlat siyosatida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslar haqida ma'lumot beriladi.*

Annotation: *This article explores the role of individuals with hearing impairments in society, focusing on communication barriers, psychological challenges, and social factors that influence their interpersonal relationships. It highlights the importance of family support, inclusive education, sign language services, and assistive technologies. The article also discusses national initiatives aimed at expanding inclusive education and improving equal opportunities for people with hearing impairments.*

Kalit so'zlar: *eshitishda nuqson, shaxslararo munosabat, muloqot to'siqlari, ishora tili, inklyuziv ta'lim, eshitish cheklangan shaxslar, ijtimoiy moslashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, jamiyat munosabati, surdotarjimon, kommunikatsiya, texnologik yordam vositalari.*

Mamlakatimizda inson, uning hayoti va erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyat barpo etishda aholini, ayniqsa, bugungi va ertangi avlodning farovonligini ta'minlash katta mas'uliyat yuklashi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" – deb belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaro bir xil e'tiborga munosib.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, eshitishda nuqsoni bo'lgan insonlar ham jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Biroq shunga qaramay, ularning shaxslararo munosabatlariga ulardagi eshitish qobiliyatining chegaralanganligi ko'plab to'siqlar paydo qiladi. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan cheklovlar, psixologik omillar va ijtimoiy muhitning yetarlicha qo'llab-quvvatlamasligi ular bilan muloqotning to'liq amalga oshmasligiga, o'z fikrini yetkazish yoki tushunishda

uzilishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Shu bois ushbu mavzuni tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

Eshitishda nuqsoni bor shaxslarning shaxslararo munosabatlari, avvalo, muloqot to'siqlari ta'sirida shakllanadi. Eshitishning cheklanganligi og'zaki nutqni qabul qilishni qiyinlashtirgani sababli ular ko'pincha ishora tiliga, mimika va labdan o'qishga tayanadi. Biroq jamiyatning katta qismi ishora tilini bilmagani uchun muloqot ko'pincha bir tomonlama yoki yetarlicha samarali kechmaydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan insonlarda o'z-o'zini baholash ham bevosita muloqotdagi tajribalar ta'sirida shakllanadi. Atrofdagilarning noto'g'ri munosabati, tushunmovchiliklar, fikrni to'liq ifoda qilaolmaslik hissi ularda tortinchoqlik, ijtimoiy xavotir yoki odamlar bilan muloqotdan qochish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Aksincha, qo'llab-quvvatlovchi va tushunadigan muhitda ular o'zini erkin his qiladi, ijtimoiy faollik ortadi, shaxslararo aloqalar mustahkamlanadi.

Oila va yaqin do'stlar bu jarayonda eng katta yordamchi hisoblanadi. Agar oila a'zolari ishora tilini bilsa va bolani yoki kattani doim qo'llab-quvvatlasa, u o'zini erkin his qiladi, xavotiri kamayadi, do'stlar va jamiyat bilan muloqot qilishga tayyor bo'ladi. Oilaning doimiy e'tibori, mehribonligi va sabr-toqati shaxslararo munosabatlarning sifatini oshiradi.

O'z navbatida, eshitishda nuqsoni bor insonlar hayotida jamiyatning ijobiy yoki salbiy munosabati ham muhim rol o'ynaydi. Ba'zan bu toifadagi insonlarga odamlar noto'g'ri qarashadi yoki ularni tushunmaslik holatlari uchraydi. Bu kabi holatlar ularda o'z-o'zini past baholashga, ijtimoiy faollikdan chekinishga olib keladi. Shu bilan birga, inklyuziv muhit, qo'llab-quvvatlovchi do'stlar, surdotarjimonlar va maxsus texnologiyalar yordamida ular jamiyatda faol qo'shilish imkoniga ega bo'ladi.

Bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish, ijtimoiy cheklangan insonlar uchun teng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida davlatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida bir qator takliflar qatorida birinchi taklif sifatida inklyuziv ta'limni rivojlantirish hamda mazkur sohada sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratdilar.

Darhaqiqat, ta'lim va ish joylarida eshitishda nuqsoni bor insonlarga yordam berish juda muhim. Masalan, maktablarda inklyuziv sinflar, ish joylarida esa maxsus dasturlar va muloqot vositalari ular uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Bu nafaqat ularning o'zini rivojlantirishiga yordam beradi, balki jamiyatning bir-biri bilan uyg'un ishlashiga ham foyda keltiradi. Har bir insonning huquqlari va imkoniyatlari teng, shuning uchun nuqsonlari sabab ularni cheklash emas, balki jamiyatga qo'shib olish va qo'llab-quvvatlash kerak.

Bu borada muhtaram Yurtboshimiz YUNESKO Bosh konferensiyasi

43-sessiyasida aynan YUNESKOning alohida ehtiyojli bolalar uchun Inklyuziv ta'limni rivojlantirish platformasini joriy etish maqsadga muvofiqligini alohida ta'kidlab, ta'lim sohasida o'zaro bilim va tajriba almashish uchun xalqaro muloqot formatini yaratish maqsadida Jahon professional ta'lim sammitini o'tkazish rejalashtirilayotganini aytib o'tdilar.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan insonlarning shaxslararo munosabatlariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri — zamonaviy texnologiyalardir. Bugungi kunda subtitrlar, ovozni matnga aylantiruvchi ilovalar va videoaloqa vaqtida matnli translyatsiya kabi qulayliklar muloqotni ancha yengillashtirmoqda. Bu vositalar ularning kundalik hayotida ham, ta'lim va ish faoliyatida ham muloqotni soddalashtirib, jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, jamiyatning lingvistik tayyorgarligi ham katta ahamiyatga ega. Odamlarning ishora tilini hech bo'lmaganda elementar darajada bilishi muloqotni osonlashtiradi, noto'g'ri tushunish holatlarini kamaytiradi. Bu — eshitishda nuqsoni bo'lgan insonning o'zini qabul qilingan, hurmat qilinadigan shaxs sifatida his qilishiga yordam beradi.

Ularning munosabatlarida yana bir muhim jihat — ijobiy namunalarning mavjudligi. Jamiyatda muvaffaqiyatga erishgan, faol hayot kechirayotgan eshitishda nuqsoni bor shaxslar boshqalarga motivatsiya beradi. Bunday rollar stereotiplarni sindirib, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga katta hissa qo'shadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan insonlar ko'pincha muqobil muloqot usullarini qo'llaydi: mimika, yozma muloqot, smartfon orqali matnli tarjimalar, vizual belgilar. Ularning muloqotdagi moslashuvchanligi muvaffaqiyat kalitidir, biroq suhbatdoshning moslashuvchanligi ham muhim. Real muloqot samarali bo'lishi uchun har ikki tomon bir-birini tushunishga harakat qilishi kerak.

Ularning jamoaviy faoliyatlarda ishtiroki ham shaxslararo munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sport musobaqalari, ijodiy to'garaklar yoki volunteerlik loyihalari — bularning barchasi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Jamoa ichidagi o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash esa ularni jamiyatga yanada yaqinlashtiradi.

Ijtimoiy stereotiplar esa aksincha, munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin. "Eshitmaydiganlar bilan muloqot qilish qiyin", "ular ko'proq yordamga muhtoj" kabi noto'g'ri qarashlar ularga bo'lgan munosabatni sovuqlashtiradi. Bunday stereotiplarni bartaraf etishning eng samarali yo'li — jamiyatda to'g'ri axborot tarqatish, inklyuzivlikni targ'ib qilish va ishora tilini ommalashtirishdir.

Shuningdek, eshitishda nuqsoni bor insonlarning emotsional sezgirliigi ham shaxslararo munosabatlarga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ular tana tili va yuz ifodalarini juda yaxshi farqlaydi, bu esa suhbat davomida chuqurroq tushunishga yordam beradi. Suhbatdoshlarning ham o'z his-tuyg'ularini aniq ifoda etishi muloqotni yanada iliq va samarali qiladi.

Ta'lim muassasalaridagi muhit ham katta rol o'ynaydi. Sinf doshlar, ustozlar va guruh doshlarning ijobiy munosabati ularda o'zini jamoadan ajralmagan deb his qilish imkonini yaratadi. Aksincha, e'tiborsizlik yoki befarqlik esa muloqotdan chekinishga olib kelishi mumkin. Shu bois maktab va oliygohlarning inklyuziv yondashuvi shaxslararo munosabatlarning qad rostdashida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, eshitishda nuqsoni bor insonlarning shaxslararo munosabatlarini yaxshilash uchun oilaviy qo'llab-quvvatlash, jamiyatning ijobiy munosabati va maxsus yordamchi vositalar muhim omillar hisoblanadi. Ular yordamida insonlar nafaqat o'z fikrini bemalol ifoda etadi, balki jamiyat bilan yanada faol muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, eng so'nggi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasidagi nutqi. – 2023.
4. Krotova, T.V. Surdopsixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 2019.
5. Lane, H. The Deaf Experience: Psychology and Social Dynamics. – Cambridge University Press, 2018.
6. Marschark, M., Spencer, P. Deaf Education in the 21st Century: Research, Practice, and Policy. – Oxford University Press, 2016.
7. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris, 2020.
8. WHO. World Report on Hearing. – Geneva: World Health Organization, 2021.
9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'lim bo'yicha uslubiy qo'llanma., 2022.
10. Surdotarjima va maxsus pedagogika bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, 2023.

ДРЕВНИЙ ВОСТОК ДО СОВРЕМЕННЫХ ИДЕЙ ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ

Турсуналиев Хокимжон

*Чирчикский государственный педагогический университет,
Узбекистан*

Научный руководитель: Мадалимов Т.А

*Преподаватель философии, Чирчикский государственный
педагогический университет*

Аннотация: В работе рассматривается исторический путь развития философии от древнейших восточных учений до современных направлений мирового философского знания. Философия представлена как духовное и интеллектуальное явление, которое формировалось в ходе многовековых поисков смысла существования, законов природы и принципов человеческого поведения. В тексте уделяется внимание философским традициям Индии, Китая, Ближнего Востока, античной Греции, средневековой Европы и исламского мира, эпохе Возрождения, Новому времени и философии современных эпох. Работа направлена на углублённое понимание того, как формировались мировоззренческие основы человечества и как философские идеи продолжили свое воздействие на развитие науки, культуры и общественной мысли.

Ключевые слова: философия Древний Восток античность метафизика эпистемология рационализм экзистенциализм гуманизм мировоззрение

РЕЗЮМЕ

Резюме Статья является расширенным исследованием развития философской мысли. Автор рассматривает ключевые особенности философии разных эпох, показывает преемственность идей, анализирует влияние культурных условий на формирование философских концепций. Работа может быть использована в качестве учебного материала по дисциплинам философия, культурология, история, мировая цивилизация.

ВВЕДЕНИЕ

Философия возникла как ответ на фундаментальные вопросы человеческого существования. На ранних этапах человечество стремилось объяснить происхождение мира, выяснить природу добра и зла, понять смысл жизни и назначение человека. Эти поиски привели к появлению первых философских систем, которые со временем превратились в основу культурного и интеллектуального развития разных цивилизаций.

История философии демонстрирует, как в процессе развития культуры и общества изменялись взгляды на мир и человека. Каждая эпоха формировала собственные ответы на вечные вопросы. Древний Восток сосредоточился на духовной гармонии и внутреннем развитии. Античная Греция породила рациональное мышление и логический анализ. Средневековая мысль пыталась соединить веру и разум. Новое время привело к формированию научного взгляда на мир. Современная философия исследует человека в условиях глобализации, цифровизации и стремительно меняющейся реальности.

МЕТОДОЛОГИЯ

Исследование опирается на историко философский анализ, который позволяет рассматривать развитие философии как последовательный процесс формирования идей. Используется сравнительный метод для сопоставления философских учений разных регионов и эпох. Применяется системный подход, позволяющий выявить взаимосвязи между различными направлениями философии. В качестве источников использованы труды древнеиндийских и китайских мыслителей, античных авторов, средневековых философов, представителей эпохи Возрождения и Нового времени, а также современные исследования по истории философии

Результаты и обсуждение

Философия Древнего Востока Древневосточная философия стала одной из первых систем, стремящихся ответить на вопросы о смысле бытия, природе мира и назначении человека. Она уделяла большое внимание духовному развитию и гармонии между человеком и окружающей средой.

Философия Древней Индии В Индии зародились такие учения, как Веданта, Буддизм, Санкхья и Йога. Они рассматривали мир как единство духовного и материального, подчёркивали значение внутреннего опыта и нравственного поведения. Буддизм учил избавлению от страданий через постижение истинной природы жизни. Веданта исследовала единство индивидуального сознания и абсолютной реальности.

Философия Древнего Китая Китайская мысль была трезвой, практичной и направленной на совершенствование человека и общества. Конфуцианство подчёркивало важность морального долга, ответственности и правильных отношений между людьми. Даосизм учил следованию естественному ходу вещей и внутренней гармонии. Легизм рассматривал управление государством через строгие законы и порядок.

Философия Ближнего Востока Философские идеи Древнего Ирана, Вавилона и Египта оказали значительное влияние на мировоззрение человечества. Они сформировали основы религиозных представлений, космологических взглядов и моральных норм.

Античная философия Античная Греция стала родиной рационального мышления. Досократики пытались объяснить происхождение мира через природные элементы. Гераклит видел мир в постоянном движении, Парменид утверждал неизменность бытия.

Сократ сосредоточился на человеческой нравственности и поиске истины через диалог. Платон создал учение о мире идей как совершенной реальности. Аристотель создал множество научных дисциплин и обосновал логику как инструмент познания.

Эллинистические школы стоицизма, эпикуреизма и скептицизма уделяли внимание внутренней свободе, устойчивости и самодостаточности человека.

Средневековая философия В Средневековье философия переплеталась с религией. В Европе важную роль сыграли Августин и Фома Аквинский, которые пытались объединить античное наследие с христианской верой. В исламском мире развивались идеи аль Фараби, Ибн Сины и Ибн Рушда. Они продолжали традиции греческой философии и внесли огромный вклад в развитие науки.

Философия Возрождения и Нового времени Возрождение стало эпохой возвышения человека. Мыслители утверждали ценность индивидуальности, свободы и творчества. В Новое время сформировались два направления познания мира рационализм Декарта и эмпиризм Бэкона и Локка. Кант предложил синтез этих подходов и исследовал границы человеческого разума.

Современная философия Современная эпоха отличается разнообразием идей. Экзистенциализм анализирует свободу и ответственность личности. Феноменология исследует структуру сознания. Аналитическая философия изучает язык как средство выражения мысли. Постмодернизм ставит под сомнение абсолютность истины.

Современная философия также занимается проблемами глобализации, взаимоотношений человека и технологий, искусственного интеллекта, экологии и культурной идентичности.

Заключение: История философии является отражением истории человечества. Каждая эпоха вносила свой вклад в развитие представлений о мире и человеке. Философия помогает понимать смысл жизни, осмысливать сложные процессы современности, формировать духовные ценности и развивать критическое мышление. Она остаётся важнейшей частью культуры и науки, продолжая оказывать влияние на мировоззрение людей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Лосев А.Ф. История античной философии Москва Издательство Мысль 1980
2. Кант И. Критика чистого разума Санкт-Петербург Издательство Наука 1781
3. Рассел Б. История западной философии Москва Издательство Мысль 1945
4. Сартр Ж.-П. Экзистенциализм это гуманизм Париж Галлимар 1946
5. Гуссерль Э. Логические исследования Берлин Университетское издательство 1900
6. Аль-Фараби. Трактаты о разуме и познании Тегеран Академическое издание 950
7. Упанишады. Переводы и комментарии Дели Научное издательство 1950
8. Конфуций. Лунь юй Пекин Народное издательство 500 до н э
9. Платон. Диалоги Москва Наука 380 до н э
10. Аристотель. Метафизика Москва Мысль 350 до н э

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOJILER ARACILIĞIYLA İLKOKUL ÖĞRENCİLERİNİN OKUMAYA OLAN İLGISINI ARTIRMA YÖNTEMLERİ

Kdıryazova Shaxsanem Jalgasbaevna

Ajiniyoz Nukus Devlet Pedagoji Enstitüsü "Eğitim ve Terbiye Teorisi ve Metodolojisi (İlkokul Eğitimi)" 1-sınıf Yüksek Lisans Öğrencisi.

Annotatsiya. Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayonini qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu maqolada interfaol metodlar, o'yinli yondashuvlar, loyihaviy faoliyat va raqamli vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarning matnni tushunish, nutqiy faollik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari tahlil qilingan.

Аннотация. Формирование интереса младших школьников к чтению на уроках родного языка и грамотности является важной задачей начального образования. Использование современных педагогических технологий делает учебный процесс более увлекательным, содержательным и продуктивным. В статье рассматриваются методы развития текстового восприятия, речевой активности и самостоятельного мышления учащихся посредством интерактивных методов, игровых подходов, проектной деятельности и цифровых ресурсов.

Abstract. Developing primary school students' interest in reading in native language and literacy classes is one of the key goals of modern education. The use of contemporary pedagogical technologies helps make the learning process engaging, meaningful, and effective. This article analyzes methods for enhancing text comprehension, verbal activity, and independent thinking through interactive techniques, game-based learning, project activities, and digital tools.

Özet: İlkokul düzeyinde ana dili ve okuma yazma derslerinde öğrencilerin okumaya karşı ilgi geliştirmesi, günümüz eğitim anlayışının önemli hedeflerindendir. Modern pedagogik teknolojilerin kullanılması ders sürecini daha etkili, eğlenceli ve verimli hâle getirmektedir. Bu makalede etkileşimli yöntemler, oyun temelli uygulamalar, proje çalışmaları ve dijital araçlar yardımıyla öğrencilerin metni anlama, sözlü ifade ve bağımsız düşünme becerilerinin geliştirilmesi ele alınmaktadır.

İlkokul düzeyinde ana dili ve okuma yazma derslerinde öğrencilerin okumaya karşı ilgi geliştirmesi...

Kalit so'zlar: ona tili, o'qish savodxonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, o'qishga qiziqish, interfaol metodlar, raqamli vositalar.

Ключевые слова: родной язык, грамотность чтения, современные педагогические технологии, начальное образование, интерес к чтению, интерактивные методы, цифровые средства.

Keywords: native language, reading literacy, modern pedagogical technologies, primary education, reading interest, interactive methods, digital tools.

Anahtar kelimeler: ana dili, okuma yazma becerisi, modern pedagojik teknolojiler, ilkokul eğitimi, okuma ilgisi, etkileşimli yöntemler, dijital araçlar.

İlkokul dönemi, öğrencilerin düşünme biçiminin, dil gelişiminin ve kişisel özelliklerinin şekillendiği temel bir basamaktır. Bu süreçte ana dili ve okuma yazma dersleri, öğrencilerin metni anlama, kendini ifade etme, yorum yapma ve mantıklı çıkarımlar oluşturma becerilerini geliştirmede önemli rol oynar. Ancak geleneksel ders yöntemleri her zaman öğrencilerin ilgisini çekmeyebilir ve okumaya yönelik motivasyonu yeterince desteklemeyebilir. Bu nedenle modern pedagojik teknolojilerin derslere entegre edilmesi büyük önem taşımaktadır¹².

Modern pedagojik teknolojiler; öğrenme sürecini daha planlı, etkili ve öğrenci merkezli hâle getiren yöntemlerdir. İlkokul öğrencilerinin yaş özellikleri, hareketlilik düzeyi ve öğrenme tarzları dikkate alındığında, etkileşimli ve uygulamaya dayalı yöntemler çok daha olumlu sonuçlar berad³.

1. Etkileşimli Yöntemler

- Grup çalışması
- Beyin fırtınası
- Klaster yöntemi
- Bilgi halkası

Bu yöntemler öğrencilerin aktif katılımını artırır, fikirlerini özgürce ifade etmelerini sağlar ve işbirliği içinde öğrenmeyi geliştirir³.

2. Oyun Temelli Öğretim

- Rol yapma
- Drama
- Kelime oyunları

Çocukların doğasında oyun olduğu için, oyun temelli etkinlikler ders motivasyonunu artırır ve öğrenmeyi doğal hâle getirir⁴.

3. Proje Tabanlı Öğrenme (PBL)

Öğrenciler belirli bir konuda araştırma yapar, bilgileri düzenler ve sınıfta sunum yapar. Bu yöntem:

- ☐ özgüveni artırır
- ☐ araştırma becerilerini geliştirir
- ☐ bağımsız düşünme alışkanlığı kazandırır⁵

4. Dijital Araçlar

- Akıllı tahta

- Sesli kitap uygulamaları
- “Kitob.uz”, “Bilimdon”, “MyBook” platformları

Dijital materyaller çocukların dikkatini çektiği için ders daha aktif geçer⁶.

İlkokul öğrencileri görsel, işitsel ve hareketli uyaranlara daha hızlı tepki verirler. Bu nedenle:

- sesli kitaplar
- hikâye kahramanlarını canlandırma
- dijital hikâye izletme
- oyunlaştırılmış etkinlikler
- öğrencileri metne nisbatan ilgilendirir⁴⁵.

“Kitap Dostum” Etkinliği

Öğrenciler haftada bir kitap seçerek:

- hikâyeyi özetler
- kahramanları tanıtır
- küçük drama sahnesi yapar
- sınıf karşısında sunum gerçekleştirir

Bu yöntem hem ifade becerisini, hem de metni anlama ve hafızada saklama becerilerini geliştirir⁴.

DERS ÖRNEĞİ: “Sevimli Hikâye Kahramanım” – 2. Sınıf

1. Giriş Aşaması

Öğretmen “Kim Kimi Okudu?” oyunu aracılığıyla daha önce okunan hikâyeleri hatırlatır.

2. Gelişme Aşaması

Öğrenciler gruplara ayrılır ve her gruba bir hikâye verilir. Görevler:

- kahramanın resimli portresini oluşturma
- karakter özelliklerini yazma
- hikâyeden önemli ifadeleri seçme

3. Sonuç Aşaması

Her grup kendi kahramanını sınıfa sunar. Bu yöntem öğrencilerin analiz etme, değerlendirme ve yaratıcı düşünme becerilerini geliştirir³⁵.

Sonuç olarak, modern pedagojik teknolojilerin doğru kullanılması, ilkokul öğrencilerinin okumaya karşı doğal ilgisini destekler ve artırır. Ders süreci böylelikle yalnızca bilgi aktarımı olmaktan çıkar; öğrenciyi düşünmeye sevk eden, aktif katılıma yönelten yaratıcı bir öğrenme ortamına dönüşür. Öğretmen bu süreçte rehber, destekleyici ve motivasyon sağlayıcı bir rol oynar.

KAYNAKLAR:

1. Xudoyberganova, M. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari. Sayfa 45-50.

2. Karimova, N. (2023). Boshlang'ich sinflarda o'qishga qiziqish. Sayfa 12-18.
3. A'zamov, Sh. (2022). Interfaol metodlar orqali ona tili o'qitish. Sayfa 33-40.
4. Brown, H. (2019). Teaching by Principles. Sayfa 77-85.
5. Larmer, J., & Mergendoller, J. (2015). Project-Based Learning Guide. Sayfa 22-30.
6. Deterding, S. et al. (2017). Gamification research. Sayfa 14-20.

SMART-SOATLAR VA RAQAMLI SENSORLAR YORDAMIDA YURAK FAOLIYATINI KUZATISH

Ataxanov Sanjarbek Anvarovich

FJSTI, "Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari" kafedra assistenti

Muxtorova Shohsanam Sherzod qizi

FJSTI, Pediatriya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada smart-soatlar, biosensorlar va raqamli monitoring tizimlarining yurak faoliyatini kuzatishdagi o'rni yoritilgan. Zamonaviy tibbiyotda yurak faoliyatining uzluksiz nazorati yurak kasalliklarini erta aniqlash, aritmiyalar, gipertoniya va yurak urish tezligidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun muhim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar orqali yurak faoliyati haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida tahlil qilinib, shifokorga yoki bemorning o'ziga yetkaziladi. Ushbu maqolada yurak monitoringida sun'iy intellekt, mobil ilovalar va bulutli tahlil tizimlarining roli batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: smart-soat, biosensor, yurak faoliyati, raqamli monitoring, sun'iy intellekt, telemeditsina.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va tibbiyot integratsiyasi sog'liqni saqlash tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, yurak faoliyatini nazorat qilishda aqlli soatlar (smartwatch) va raqamli sensorlar muhim diagnostik vositaga aylandi. Yurak-qon tomir kasalliklari dunyo bo'yicha o'limning yetakchi sabablaridan biri bo'lib, ularning erta aniqlanishi hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Shu sababli yurak faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, uzluksiz monitoring qilish, va sun'iy intellekt orqali tahlil etish tibbiy nazoratning yangi paradigmasi sifatida qaralmoqda.

ASOSIY QISM

So'nggi o'n yilliklarda "raqamli tibbiyot" (digital health) yo'nalishining jadal rivojlanishi natijasida nosaqatlanadigan (non-invasive) biosensorlar va aqlli soatlar yurak faoliyatini uzluksiz kuzatishning eng qulay vositalaridan biriga aylandi.

Smart-soatlar o'zida bir nechta yuqori aniqlikdagi sensorlarni mujassamlashtiradi:

- Fotopletizmografik sensor (PPG) – qon tomirlaridagi qon hajmining optik o'zgarishini aniqlab, yurak urish tezligi (HR) va ritmini o'lchaydi;
- Elektrokardiografik sensor (EKG/ECG) – yurakning elektr faolligini qayd etib, ritm buzilishlarini (aritmiya, ekstrasistoliya) aniqlaydi;

- Akselerometr va girooskop – jismoniy faollik, uyqu sifatini, stress darajasini baholaydi;
- Oksimetriya (SpO_2) moduli – qondagi kislorod to'yinganlik darajasini ko'rsatadi;
- Sun'iy intellekt asosidagi tahlil algoritmlari – to'plangan ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, foydalanuvchiga yurak faoliyatidagi o'zgarishlar haqida signal beradi.

Smart-soatlar bulutli (cloud-based) tahlil tizimlariga ulangan bo'lib, ma'lumotlar avtomatik tarzda mobil ilova yoki tibbiy ma'lumotlar bazasiga yuboriladi. Shu orqali shifokorlar masofadan bemor yurak faoliyatini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Smart-soatlar yordamida yurak faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari aniqlanadi:

- Yurak urish chastotasi (Heart Rate Monitoring) – dam olish va jismoniy faollik paytidagi o'zgarishlar aniqlanadi;
- Aritmiyalarni erta tashxislash – Apple Watch va Samsung Watch kabi soatlar atrial fibrillyatsiyani 95% aniqlik bilan aniqlay oladi;
- Qon bosimi (Blood Pressure Estimation) – ayrim modellar (Huawei Watch D) bilak bosimi asosida sistolik va diastolik bosimni o'lchaydi;
- Stress, uyqu va yurak ritmi o'zaro bog'liqligini tahlil qilish – yurak variabelligi (HRV) orqali stress darajasi va vegetativ asab tizimi faolligi baholanadi.

Shuningdek, smart-soatlar yurak faoliyatidagi favqulodda o'zgarishlarni (masalan, bradikardiya yoki yurak to'xtashi xavfi) aniqlab, foydalanuvchining o'zi yoki shifokoriga signal yuboradi. Ayrim qurilmalarda bu ma'lumot GPS orqali joylashuv bilan birga yuborilib, tez yordam tizimini chaqirish imkonini beradi.

Pediatrriyada yurak faoliyatini kuzatish ko'pincha kasalxonada yoki klinik sharoitda amalga oshiriladi. Ammo so'nggi yillarda raqamli biosensorlar yordamida bu nazoratni uy sharoitida ham olib borish mumkin bo'ldi.

Ular quyidagi yo'nalishlarda qo'llanadi:

Neonatal nazorat tizimlari: yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yurak urish chastotasi, tana harorati va kislorod to'yinganligi doimiy kuzatiladi. Bunday sensorlar chaqaloq kiyimlariga yoki tagliklarga o'rnatiladi.

Tug'ma yurak nuqsonlari (TYuN) bo'lgan bolalarda monitoring: yurak ritmidagi o'zgarishlar erta aniqlanadi, gipoksiya xavfi kamayadi.

Sport bilan shug'ullanayotgan o'smirlar: yurak faoliyatiga ortiqcha yuklama tushmasligi uchun monitoring olib boriladi.

Reabilitatsiya bosqichidagi bolalar: yurak zarbasi, qon aylanishi va kislorod almashinuvining tiklanish jarayoni kuzatiladi.

Bundan tashqari, pediatrik amaliyotda bolalar uchun moslashtirilgan aqlli bilakuzuklar (smart-band) ishlab chiqilmoqda, ular og'irlik jihatidan yengil va teriga mos materiallardan tayyorlanadi.

Smart-soatlar va biosensorlar tomonidan to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlarni sun'iy intellekt (AI) yordamida tahlil qilish hozirgi kunda asosiy yo'nalish hisoblanadi.

AI algoritmlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

Yurak urish signallaridagi anomal o'zgarishlarni avtomatik aniqlaydi;

Har bir foydalanuvchi uchun individual sog'liq profili yaratadi; Yurak kasalligi rivojlanish xavfini prognoz qiladi;

Tibbiy qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlariga integratsiya qilinadi.

Masalan, "Apple Heart Study" loyihasida 400 mingdan ortiq foydalanuvchi ishtirok etgan bo'lib, sun'iy intellekt yordamida 98% hollarda yurak ritm buzilishlari aniqlangan. Kelajakda bu tizimlar elektron sog'liq kartalari, mobil ilovalar va telemeditsina markazlari bilan to'liq integratsiyalashishi kutilmoqda.

Raqamli sensorlar orqali olingan yurak ma'lumotlari telemeditsina platformalari orqali shifokorlarga yetkaziladi.

Bu tizimlar:

- ☐ Bemorni klinikadan tashqarida kuzatish imkonini beradi;
- ☐ Yurak kasalliklarining erta ogohlantirish tizimini yaratadi;
- ☐ Favqulodda vaziyatlarda (masalan, yurak to'xtashi xavfi) shifokor yoki oila a'zolariga signal yuboradi;
- ☐ Qishloq joylarda yoki uzoq hududlarda yashovchi aholiga kardiologik xizmatlardan foydalanish imkonini kengaytiradi.

Asosiy qism (qo'shimcha ma'lumotlar)

1. Sensorlarning texnik imkoniyatlari va yangi yo'nalishlar

Multimodal sensorlar: Zamonaviy smart-soatlar bir vaqtning o'zida bir nechta biosensorlar orqali yurak ritmi, qon bosimi, SpO_2 , tana harorati va hatto elektrolit balansini kuzatishi mumkin. Bu ma'lumotlarni birlashtirib tahlil qilish yurak faoliyatidagi subtel o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Bioimpedans modullari: Ba'zi qurilmalarda yurak chiqishi (cardiac output) va suyuqlik balansini baholash uchun bioimpedans texnologiyasi ishlatiladi. Bu yurak yetishmovchiligi xavfini oldindan aniqlashda foydalidir.

Adaptiv signal filtrlash: Sensorlar harakat va tashqi shovqindan kelib chiqqan xatolarni kamaytiradigan algoritmlarga ega bo'lib, real vaqt monitoringning aniqligini oshiradi.

2. Pediatrik va neonatal qo'llashdagi innovatsiyalar

Neonatal monitoring: Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yurak urish chastotasi, respirator faollik va kislorod to'yinganligi kabi parametrlar kiyim yoki taglik ichiga integratsiyalangan sensorlar yordamida uzluksiz kuzatiladi.

Konjenital yurak nuqsonlari (TYuN): Smart-soatlar yordamida chaqaloqlar va bolalarda atrial yoki ventrikulyar ritm buzilishlarini real vaqt rejimida aniqlash mumkin. Bu shifokorlar uchun favqulodda aralashuvlarni osonlashtiradi.

O'smir sport monitoringi: Sport bilan shug'ullanayotgan bolalar va o'smirlar uchun yurak urish chastotasi, HRV, jismoniy faollik va stress darajasi kuzatiladi, ortiqcha yuklamalar oldini oladi.

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellekt

Anomaliya aniqlash: AI algoritmlari yurak ritmida eng kichik subtel o'zgarishlarni aniqlay oladi, masalan, preludiya atrial fibrillyatsiyasi yoki ekstrasistoliya.

Prognozlash va profilaktika: AI shaxsiy risk faktorlarini tahlil qilib, bemorga va shifokorga individual profilaktika va rehabilitatsiya dasturini taklif qiladi.

Katta ma'lumotlar va bulutli tizimlar: To'plangan yuz minglab ma'lumotlar bulut tizimida saqlanib, katta statistik tahlil va klinik tadqiqotlarda qo'llaniladi.

4. Telemeditsina va masofaviy monitoring

Masofaviy diagnostika: Smart-soatlar va sensorlar to'plagan ma'lumotlar mobil ilovalar va telemeditsina platformalari orqali shifokorga yetkaziladi, hatto qishloq joylarida ham yurak monitoringi amalga oshiriladi.

Favqulodda signalizatsiya: Yurak ritmida xavfli o'zgarish aniqlanganda qurilmalar avtomatik ravishda foydalanuvchiga, shifokorga yoki yaqinlarga signal yuboradi.

Integratsiya: Ma'lumotlar elektron sog'liq kartalari, tibbiy dasturlar va AI tizimlariga integratsiyalashgan holda klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlaydi.

5. Qo'llashning afzalliklari va cheklovlar

Afzalliklari:

Doimiy real vaqt monitoring;

24/7 pediatrik va kattalar kuzatuvi;

Erta tashxis va profilaktika;

Rehabilitatsiya va sog'lom turmush tarzini nazorat qilish.

Cheklovlari:

Sensorlarning aniqligi klinik apparatlar bilan solishtirganda farq qilishi mumkin;

Bolalarda kichik bilak o'lchami sababli ma'lumotlar xato bo'lishi mumkin;

Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talab etiladi;

Qiymat va texnik xizmat xarajatlari ayrim mamlakatlarda cheklov bo'lishi mumkin.

6. Kelajak istiqbollari

Bolalar uchun maxsus yengil smart-bandlar va kiyimlarga integratsiyalangan sensorlar;

Yurak faoliyatini bashorat qiluvchi murakkab AI algoritmlari;

Telemeditsina va elektron sog'liq kartalariga to'liq integratsiya;

Global miqyosda sog'lom hayot tarzini kuzatish va yurak kasalliklarini oldini olish tizimlari.

MUHOKAMA VA NATIJA

Smart-soatlar va raqamli sensorlardan foydalanishning samaradorligi haqida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- Ular yurak kasalliklarini erta bosqichda aniqlashga yordam beradi;

- Yurak faoliyatini doimiy kuzatish orqali kasallikning og'ir kechishini kamaytiradi;

- Profilaktika va reabilitatsiya bosqichida bemor faol ishtirokchi sifatida nazoratda bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreyada yurak kasalliklarini kuzatish uchun smart-soatlardan foydalanish natijasida yurak xurujlari soni 22–28% ga kamaygani aniqlangan. O'zbekiston va Markaziy Osiyoda ham telemeditsina tizimlari jadal rivojlanmoqda, ammo smart-soat ma'lumotlarini klinik tahlil tizimlariga integratsiya qilish hali to'liq yo'lga qo'yilmagan.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud:

- Qurilmalarning aniqligi klinik sharoitdagi tibbiy asboblardan solishtirganda farq qilishi mumkin;

- Bolalarda bilak o'lchami kichik bo'lgani sababli o'lchov natijalari noaniq chiqishi ehtimoli bor;

- Maxfiylik (privacy) va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammolari dolzarbdir.

Shunday bo'lsa-da, bu texnologiyalar kelajak tibbiyotining asosiy yo'nalishi bo'lib, yurak faoliyatini masofadan monitoring qilishda yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Smart-soatlar va raqamli sensorlar yordamida yurak faoliyatini kuzatish sog'liqni saqlash tizimida yangi bosqichni boshlab berdi.

Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Doimiy va real vaqt rejimida monitoring – yurak ritmini uzluksiz kuzatish imkonini beradi;

2. Erta tashxis – aritmiyalar, gipertoniya va yurak yetishmovchiligini dastlabki bosqichda aniqlash;

3. Telemeditsina integratsiyasi – shifokor-bemor aloqasini kuchaytirish, masofaviy tibbiy xizmatni kengaytirish;

4. Sun'iy intellekt orqali avtomatik tahlil – yurak kasalliklarini bashorat qilish va xavfni kamaytirish;

5. Pediatriyada qo'llash imkoniyati – bolalarda yurak faoliyatini qulay, xavfsiz va uzluksiz kuzatish.

Xulosa qilib aytganda, smart-soatlar va raqamli sensorlar yordamida yurak faoliyatini kuzatish profilaktik tibbiyotning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, kelajakda ularning imkoniyatlari yanada kengayib, milliy sog'liqni saqlash tizimiga chuqur integratsiyalashgan holga keladi.

XULOSA

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tibbiyot sohasiga tub o'zgarishlar kiritmoqda. Ayniqsa, smart-soatlar va raqamli sensorlar yordamida

yurak faoliyatini uzluksiz kuzatish imkoniyatlari kardiologiyada yangi davrni boshlab berdi. Ushbu texnologiyalar yordamida yurak urish chastotasi, qon bosimi, kislorod to'yinganligi (SpO_2), elektrokardiogramma (EKG) kabi ko'rsatkichlar real vaqt rejimida qayd etiladi, tahlil qilinadi va natijalar bemorning o'zi hamda davolovchi shifokorga tezkor ravishda yetkaziladi. Bunday tizimlar yurak kasalliklarini erta aniqlash, yurak ritm buzilishlarini vaqtida aniqlab, og'ir holatlar (masalan, aritmiya, ishemiya yoki yurak to'xtashi xavfi)ning oldini olishda katta amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, pediatrik amaliyotda yurak faoliyatini uzoq muddatli, invaziv bo'lmagan tarzda kuzatish bolalarning fiziologik holatini tabiiy sharoitda baholash imkonini beradi. Shuningdek, bolalarda jismoniy faollik, stress, uyqu sifati va yurakning adaptiv javobi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkoniyati ham ortadi. Raqamli sensor tizimlar sun'iy intellekt algoritmlari bilan integratsiyalashgan holda yanada aniqroq tahlillarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. AI modellarining qo'llanilishi yurak faoliyatidagi o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish, individual profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va shaxsga yo'naltirilgan tibbiyot tamoyillarini amalda tatbiq etish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, smart-soatlar yordamida to'plangan ma'lumotlar telemeditsina platformalari orqali tibbiy muassasalarga uzatilishi, bemor bilan shifokor o'rtasidagi masofaviy aloqa va monitoring tizimining samaradorligini oshiradi. Bu, ayniqsa, yurak kasalliklari bilan og'riqan bemorlar uchun doimiy tibbiy nazoratni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, smart-soatlar va raqamli sensorlarning yurak faoliyatini kuzatishdagi joriy etilishi nafaqat diagnostika sifatini yaxshilaydi, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yurak kasalliklarini erta ogohlantirish va ularni oldini olishga xizmat qiladi. Kelajakda bu tizimlarni yanada takomillashtirish, tahlil algoritmlarini murakkablashtirish hamda bolalar uchun maxsus sensor modellarini ishlab chiqish orqali kardiologik monitoringni yanada ishonchli va ommaviy qilish imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization (WHO). Cardiovascular diseases: key facts, 2023.
2. Apple Inc. Heart Health Study Results. Journal of the American Heart Association, 2022.
3. Sharma, A. et al. Wearable Devices for Cardiac Monitoring: Current Status and Future Directions. Frontiers in Digital Health, 2021.
4. Al-Sarawi, S. et al. Wearable and Implantable Sensors for Continuous Health Monitoring. Sensors, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. Telemeditsina va raqamli sog'liqni saqlash konsepsiyasi, 2024.

6. Абдуллаева Н.Х., Рахимова Г.А. Kardiologiyada zamonaviy monitoring tizimlari va ularning amaliy ahamiyati. — Tashkent: TTA nashriyoti, 2022.
7. Karimov A.A., Rasulov B.S. Telemeditsina va raqamli sog'liqni saqlash tizimlari. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
8. Ismoilova M.R. Bolalarda yurak-qon tomir kasalliklarida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari. // "Pediatriya va bolalar jarrohligi" jurnali, 2023, №4, 45–49-betlar.
9. Nazarov O., Usmonov I. Sun'iy intellektning tibbiyotdagi qo'llanilishi: monitoring va diagnostika tizimlari. — Toshkent: Innovatsion tibbiyot markazi, 2022.
10. Tursunova D.S. Yurak faoliyatini baholashda raqamli sensorlarning ahamiyati. // "Tibbiyotda innovatsiyalar" jurnali, 2024, №2, 31–37-betlar.

ЧЕКИШ ВА УНИНГ ИНСОН САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИРИ**Маҳмудова Дурдона***Тошкент Кимё халқаро университети даволаш иши факультети**1 курс талабаси**Илмий раҳбар: Мухамеджанова Нодира***КИРИШ**

Чекиш инсон саломатлиги учун энг катта таҳдидлардан бири ҳисобланади. Айниқса, ёшлар, жумладан, олий таълим муассасалари талабалари орасида тамаки истеъмоли даражаси йил сайин ошиб бормоқда. Бу ҳолат нафақат соғлиққа, балки таълим сифатининг пасайишига ҳам олиб келади. Шу илмий ишда 1–5 курс талабалари ўртасида чекишга бўлган муносабат, уларнинг чекишга мойиллик даражаси ва саломатлик ҳолатидаги фарқлар таҳлил қилинади.

МУАММО

Тамаки маҳсулотларининг таркиби ва таъсири. Тамаки тутунида 7000 дан ортиқ кимёвий модда мавжуд бўлиб, уларнинг 70 таси қатъий тарзда канцероген деб топилган[3]. Асосий моддалар: никотин, қатрон, кўмир оксиди, аммиак, ацетон ва формальдегиддир. Никотин асаб тизимига таъсир этиб, боғлиқлик келтириб чиқаради. Қатрон ўпка хужайраларини зарарлайди, кўмир оксиди эса қонга кислород етиб боришини чеклайди[3]. Бу моддалар нафақат ўпкада, балки бутун организмда захарли таъсир кўрсатади. Уларнинг таъсири узоқ муддатли бўлиб, организмда тўпланиб боради ва турли касалликларни келтириб чиқаради[3].

1–5 курс талабалари ўртасидаги чекиш ҳолати бўйича таҳлил

Тадқиқот жараёнида 1–5 курс талабалари ўртасида сўровнома ўтказилди. Натижаларга кўра:

- Биринчи ва иккинчи курс талабалари орасида чекиш ҳолати нисбатан кам. Асосан муҳит ёки қизиқиш таъсири натижасида бошланади.
- Учинчи ва тўртинчи курсларда стресс, ўқиш босими ва психологик омиллар таъсирида чекиш ҳолати кўпроқ кузатилади.
- Бешинчи курс талабалари орасида эса чекиш одати анча барқарорлашган.

Қиз ва йигитлар ўртасидаги фарқ ҳам қайд этилди: йигитлар орасида чекиш 3 баробар кўп, аммо қизлар орасида электрон сигарета ва вейпка қизиқиш ортиб бораётгани аниқланди. Сўров натижаларига кўра талабаларнинг 72% чекишнинг зарарини билишади, аммо фақат 34% бу одатни ташлашга ҳаракат қилган.

Чекишнинг саломатлик ва таълим жараёнига таъсири

Чекиш нафақат жисмоний, балки ақлий фаолиятга ҳам таъсир кўрсатади.

Никотин миёдаги қон айланишини пасайтиради, диққатни жамлашни қийинлаштиради, уйқусизлик ва чарчоқни келтириб чиқаради[4].

Чекишнинг узоқ муддатли таъсири қуйидагича намоён бўлади:

- ўпка ҳажмининг қисқариши;
- юрак-қон томир касалликлари хавфининг ошиши[1];
- иммунитетнинг заифлашиши;
- терининг қариши ва ташқи кўринишда ўзгаришлар.

Профилактика чоралари ва тавсиялар

- Талабалар ўртасида соғлом турмуш тарзини оммалаштириш;
- Институтда мунтазам равишда “Антиникотин” акцияларини ўтказиш;
- Психологик қўллаб-қувватлаш гуруҳлари ташкил этиш;
- Спорт ва маданий тадбирлар орқали стрессни енгиш имкониятларини яратиш;
- Электрон сигареталарни ҳам тамаки турига тенглаштириб, уларни чеклаш бўйича қонунчиликни кучайтириш[2].

ХУЛОСА

Тадқиқот натижалари шундан далолат бердики, 1–5 курс талабалари орасида чекиш миқдори курс юқорилаган сари ошиб боради. Бу ҳолат соғлом турмуш тарзини тарғиб қилишнинг етарли эмаслиги ва стресс ҳолатларини бошқариш механизмлари етишмаслиги билан изоҳланади. Чекиш инсон саломатлигига жуда катта зарар етказди. Шу сабабли, таълим муассасаларида профилактика ишларини кучайтириш, талабаларга психологик ёрдам кўрсатиш ва соғлом муҳит яратиш муҳим аҳамиятга эга.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ). Global Tobacco Report, 2024.
2. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги маълумотлари, 2024.
3. WHO. Tobacco and Health Facts, 2023.
4. Жураев К.Э. “Соғлом турмуш ва профилактика”. Тошкент, 2022.

ПРИЕМЫ АКТИВИЗАЦИИ МЫШЛЕНИЯ ПРИ РЕШЕНИИ ТВОРЧЕСКОЙ ЗАДАЧИ

Гулматова Рузигул Умар кизи

Студентка Термезского государственного педагогического
института

gulmatovaruzigulumarovna@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются психолого-педагогические основания активизации мышления при решении творческих задач. Анализируются приемы, способствующие развитию критического, дивергентного и образного мышления, выявляется их роль в формировании оригинальности и самостоятельности учащихся. Творческое задание определяется как интеллектуальная деятельность, требующая поиска нового решения, поэтому применение мыслительных приемов становится обязательным. В статье раскрываются методы ассоциации, сравнения, трансформации, мозгового штурма, проблемного вопроса и рефлексии как ключевые средства активизации мыслительных процессов.

Ключевые слова: активизация мышления, творческая задача, педагогическая технология, дивергентное мышление, ассоциации, рефлексия.

Творческое мышление является важнейшей частью образовательного процесса, поскольку оно обеспечивает способность ученика выходить за рамки стандартного решения, искать альтернативные варианты и создавать оригинальный продукт. Решение творческой задачи требует активации мыслительной деятельности, преодоления стереотипов и формирования новых когнитивных стратегий. В педагогике творчество рассматривается как практическое проявление интеллектуальной активности, поэтому учителю необходимо владеть приемами, которые создают условия для мыслительного поиска и стимулируют анализ, синтез, сравнение и преобразование.

Применение этих приемов становится особенно актуальным в современной школе, где цель обучения направлена на развитие компетенций, самостоятельности и критического мышления.

Активизация мышления основывается на создании проблемной ситуации. Творческая задача всегда содержит элемент неопределенности и требует поиска нового решения. Чтобы ученик вступил в активный мыслительный процесс, учитель использует вопросы, противоречия, недосказанность или демонстрацию необычной ситуации. Она становится стимулом к размышлению, формированию гипотез и поиску смыслов.

Одним из важных приемов является ассоциативное мышление. Учитель предлагает подобрать метафоры, сравнения или аналогии, позволяющие взглянуть на задание с другой стороны. Ассоциации помогают расширить интеллектуальное поле, связать ранее несвязанные понятия и найти новые идеи. Такой прием активно используется в лингводидактике, литературоведении, искусстве и проектной деятельности.

Метод мозгового штурма также играет важную роль. Он позволяет собрать максимальное количество идей без критики на первом этапе, что открывает доступ к нестандартным вариантам решения. Учащиеся учатся формулировать мысли свободно, исходя из личного опыта и интуиции. Впоследствии проводится отбор и анализ идей, что делает данный прием эффективным инструментом развития дивергентного мышления.

It is necessary to analyze ongoing processes in society, to be aware of ideological threats, and to understand what kinds of ideas and goals are being introduced into our country from abroad. Through mass media, radio, television, and the internet, the population—especially youth—must be protected from harmful influences and guided toward the right path.

REFERENCES:

1. I.A. Karimov. "The Power of Spirituality." Tashkent, 2008.
2. O. G'aybullayev. "Youth Information Attacks and Protection from Spiritual Threats." Murabbiy mahorati, 2016.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy for Further Development of the Republic of Uzbekistan."

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI
FAOLIYATIDA JAMOATCHILIK NAZORATINING HUQUQIY VA
INSTITUTIONAL MECHANISMLARI**

Guliston davlat universiteti III bosqich tayanch doktoranti

Jomonqulov Bekzod Shokir o'g'li.

Tel. +99894 003-52-51

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy va institutsional asoslari tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uni davlat boshqaruvi jarayonlariga keng jalb etish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar bosqichma-bosqich yoritilgan. Muallif normativ-huquqiy hujjatlar, xususan "Jamoat birlashmalari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida", "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" hamda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" qonunlarning mazmunini tahlil qilib, ularning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ta'sirini ochib bergan. Tadqiqotda jamoatchilik nazorati mexanizmlarining shakllanishi, ularning amaliy samaradorligi, shuningdek xorijiy tajribani o'rganish asosida O'zbekistonda bu tizimni takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, institutsional asoslar, huquqiy mexanizmlar, davlat boshqaruvi, fuqarolik ishtiroki, ijtimoiy sheriklik, oshkoralik, hisobdorlik.

Аннотация. В статье рассматриваются правовые и институциональные основы общественного контроля в Узбекистане. Анализируются этапы формирования гражданского общества и вовлечения его институтов в процессы государственного управления после обретения независимости. Автор подробно исследует содержание нормативно-правовых актов, таких как «О общественных объединениях», «О некоммерческих неправительственных организациях», «О социальном партнёрстве», «Об открытости деятельности органов государственной власти и управления» и «Об общественном контроле», определяя их роль в развитии гражданских институтов. В работе освещены механизмы общественного контроля, вопросы их эффективности и возможности совершенствования данного института с учётом зарубежного опыта.

Ключевые слова: гражданское общество, общественный контроль, правовые основы, институциональные механизмы, государственное управление, гражданское участие, социальное партнёрство, открытость, подотчётность.

Abstract. *The article examines the legal and institutional foundations of public oversight in Uzbekistan. It analyzes the stages of civil society development and the integration of its institutions into the processes of public administration after independence. The author studies key legislative acts such as the Laws “On Public Associations,” “On Non-Governmental Non-Profit Organizations,” “On Social Partnership,” “On the Openness of the Activities of State Authorities and Administration,” and “On Public Oversight,” highlighting their role in strengthening civil society institutions. The research explores the mechanisms and effectiveness of public oversight and outlines recommendations for improving this system based on international experience.*

Keywords: *civil society, public oversight, institutional framework, legal mechanisms, public administration, civic participation, social partnership, transparency, accountability.*

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab demokratik huquqiy davlat barpo etish bilan bir qatorda fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ilgari surgan “kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyili aynan jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini rivojlantirish konsepsiyasini ifodalardi [1, b. 45]. Mazkur strategik g'oya asosida yangi davlat qurilishi jarayonida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahallalar), jamoat birlashmalari va mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatiga mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. Jumladan, 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Jamoat birlashmalari to'g'risida”gi Qonun fuqarolarning ixtiyoriy uyushmalar tuzish huquqini kafolatlab, nodavlat birlashmalarining huquqiy maqomini belgilab berdi. Oradan vaqt o'tib, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonun (O'RQ–764-son) nodavlat tashkilotlarning tushunchasi, shakllari, tuzilishi va faoliyat tamoyillarini batafsil tartibga solib, ularning erkin faoliyat yuritishi uchun kafolatlar yaratdi [2, b. 2]. Bu hujjatlar bilan fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning normativ-huquqiy asosi shakllantirildi. Tadqiqotchi S. Sodiqov qayd etganidek, mustaqillikning dastlabki bosqichida aynan shu tarzda fuqarolik jamiyati rivojining huquqiy bazasini yaratish ustuvor vazifa bo'lgan [3, b. 8].

Keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning davlat bilan hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2005-yilda O'zbekistonda “Sihat-salomatlik yili” va “Nodavlat tashkilotlar yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan NNTlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari moliyalashtirildi, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi hamda nodavlat tashkilotlarni rivojlantirish bo'yicha Parlament komissiyasi tashkil etildi. 2007-yilda esa O'zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy jihatdan muhim

va dolzarb ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishda NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, NNTlarga davlat grantlari hamda ijtimoiy buyurtmalar berish amaliyoti joriy etildi. Natijada davlat boshqaruvi sohasida ijtimoiy buyurtma mexanizmi – ya'ni muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarishni nodavlat sektor zimmasiga yuklash va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi paydo bo'ldi. Bu bilan ayrim davlat funksiyalarini fuqarolik jamiyati institutlari bilan bo'lishish, ularni bajarishga fuqarolarni jalb etish amaliyoti shakllandi. Shu tariqa, fuqarolik jamiyati va davlat organlari hamkorligining yangi institutsional shakllari yuzaga keldi.

O'tgan davr mobaynida jamiyat boshqaruvida fuqarolarning bevosita ishtirokini ta'minlash borasida konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari ham mustahkamlandi. Konstitutsiyamizning 36-moddasida har bir fuqaro davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali qatnashish huquqiga ega ekani belgilangan bo'lib, ushbu norma fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqini jamoatchilik nazorati instituti bilan bir qatorda kafolatlaydi. Yaqinda qabul qilingan Konstitutsiyamizning yangi tahririda ham jamiyat hayotida oshkoralik va shaffoflik tamoyillariga sodiqlik hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha siyosiy iroda yanada mustahkamlandi[4, b. 46]. Bu o'zgarishlar fuqarolik jamiyati rivoji va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga davlat darajasida qat'iy e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Metodologiya. Mazkur maqolani tayyorlashda normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalarni tahlil qilish uslubiga tayyanildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va fuqarolik jamiyati faoliyatiga doir qonun hujjatlari o'rganilib, ularda belgilangan normalar tahlil qilindi. Keyinchalik, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishi va jamoatchilik nazoratining shakllanish bosqichlariga oid ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar ko'rib chiqildi. Ulardan S. Sodiqov, D. Ergashev, O. Salimov, L. Karimova kabi olimlarning ishlariga murojaat qilinib, fuqarolik jamiyatining taraqqiyot bosqichlari va xususiyatlariga oid xulosalar olindi[3, b. 8][5, b. 5]. Shuningdek, A. Bekmurodovning jamoatchilik nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslariga doir tadqiqoti ham tahlil etilib, undagi ilmiy takliflardan foydalanildi[6, b. 88]. Metod sifatida tarixiy yondashuvdan foydalangan holda mustaqillik yillaridagi islohotlar xronologik tartibda o'rganildi, qiyosiy huquqiy tahlil orqali esa xorijiy tajribadagi o'xshash institutlar bilan solishtirildi. Mazkur metodlar jamlanmasi O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy va institutsional asoslarini har tomonlama yoritish imkonini berdi.

Natijalar. Tahlillar natijasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va ularni davlat boshqaruvi jarayonlariga keng jalb qilish bo'yicha izchil huquqiy baza yaratilgani aniqlandi. Jumladan, 1991–2000-yillar mobaynida fuqarolarning birlashmalarga erkin uyushish huquqini ta'minlovchi asosiy qonunlar qabul qilingan. 1991-yilda qabul qilingan "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun

fuqaro va nodavlat birlashmalar munosabatlarini tartibga soluvchi ilk huquqiy hujjat bo'ldi. Keyinchalik 1996-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan qo'shimchalar orqali nodavlat tashkilotlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirishga kafolatlar mustahkamlandi. 1999-yilda esa "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi maxsus Qonun qabul qilinib, NNT tushunchasi va ularning huquqiy maqomi ilk bor aniq belgilandi[2, b. 2].

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati sohasidagi islohotlarning xronologik tahlili ularning bir necha bosqichga bo'linishini ko'rsatadi. D. Ergashevning tadqiqotida qayd etilishicha, 1990-yillar – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, unda asosan normativ-huquqiy asos yaratishga urg'u berilgan[5, b. 5]. 2000-yillar esa fuqarolik institutlarini yangi bosqichga olib chiqish davri bo'ldi: bu yillarda davlat tomonidan NNTlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi, ijtimoiy sheriklik munosabatlari yo'lga qo'yildi. Xususan, 2005–2007-yillarda nodavlat tashkilotlarni moddiyman qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator qaror va dasturlar amalga oshirildi, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi tashkil qilindi, NNTlarga ijtimoiy buyurtma berish amaliyoti boshlandi. Bu esa jamiyat boshqaruvida nodavlat sektor ishtirokini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga doir qator institutlar shakllangan. Mahalla fuqarolar yig'inlari misolida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi mamlakatimizda ijtimoiy hamkorlikning o'ziga xos namunasi sifatida qaror topgan. Mahallalar o'z hududida aholining muammolarini hal qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish, oilaviy masalalarda profilaktika olib borishda davlat idoralariga yaqindan ko'maklashmoqda. Shu bois qonunchilikda mahalla "fuqarolik jamiyatining asosiy bo'g'ini" sifatida e'tirof etilib[7, c. 19], uning turli davlat organlari bilan hamkorligi maxsus me'yorlar bilan mustahkamlangan. Masalan, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar hamkorligi, mahalla raisini saylash tartibi va hokazo masalalar qonunlarda batafsil belgilangan.

Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratining huquqiy poydevorini mustahkamlashda 2014-yil muhim bosqich bo'ldi. O'sha yili O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, davlat organlari va NNTlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi huquqiy mexanizmlari joriy etildi. Ushbu Qonunda ijtimoiy sheriklik tushunchasi, tamoyillari va shakllari qonuniy izohini topdi. Xususan, ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari qonunga bo'ysunish, teng huquqlilik, ochiqlik va shaffoflik ekani qayd etildi[4, b. 46]. Buning orqasidan, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha qator institutlar vujudga keldi: markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari huzurida jamoatchilik kengashlari tuzila boshlandi, davlat organlarining axborot ochiqligi va jamoatchilik oldida hisobdorlik majburiyati belgilandi. 2014-yil 5-mayda qabul

qilingan. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to’g’risida”gi. Qonun har bir davlat idorasiga o’z faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlarni e’lon qilib borish, fuqarolarning axborot olish huquqini ta’minlash va jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar o’tkazib turish majburiyatini yukladi[8, c. 125]. Bu huquqiy normalar jamoatchilik nazoratining muhim sharti bo’lgan oshkoralik prinsipini davlat boshqaruvida mustahkam o’rnatdi.

Keyingi yillarda hukumat va jamoatchilik o’rtasidagi muloqotni kuchaytirishga doir siyosat izchil davom etdi. 2017–2021-yillarga mo’ljallangan Harakatlar strategiyasida boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida ochiqlik muhitini kuchaytirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda joriy etish va fuqarolik jamiyati institutlari hamda OAV rolini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Ushbu strategiya asosida davlat hokimiyati organlari huzurida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish, mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldida hisobot berish amaliyotini yo’lga qo’yish, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o’tkazish kabi qator ishlar boshlandi. Ayniqsa, barcha darajadagi hokimliklarda Xalq qabulxonalari instituti joriy etilib, aholi murojaatlari bilan ishlashning yangi tizimi ishga tushirildi. Natijada, fuqarolarning davlat idoralari ustidan nazoratidagi samaradorlik oshdi, mansabdor shaxslarning javobgarligi kuchaydi. Davlat rahbari Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “jamiyat hayotining barcha sohalarida ochiqlikni ta’minlamasdan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmasdan islohotlar samarasiga erishib bo’lmaydi”. Darhaqiqat, yangi O’zbekiston sharoitida rahbarlarning tanqidiy tahlil va ochiq muloqot ruhida ishlashi, xalq dardi eshinishi va jamoatchilik bahosiga doimo tayyor bo’lishi boshqaruvning bosh mezoniga aylandi.

Munozara. O’zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o’rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning hozirgi holati va istiqbollarini tahlil qilar ekanmiz, bir qator muammo va vazifalarni ko’rishimiz mumkin. Avvalo, jamoatchilik nazorati tizimining samaradorligi ko’p jihatdan fuqarolarning huquqiy savodxonligi va faolligiga bog’liq. Ba’zi hollarda fuqarolar o’z huquq va vakolatlarini to’la anglab yetmagani bois boshqaruv ustidan nazoratni amalga oshirishda sustkashliklar kuzatiladi. Bu borada aholining huquqiy ongini yuksaltirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqilligi va moddiy-texnik imkoniyatlari masalasi ham e’tibordan chetda emas. Nodavlat notijorat tashkilotlari o’z faoliyatini samarali yuritishi uchun zarur moliyaviy resurslarga ega bo’lishi lozim. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, NNTlarning moliyaviy mustaqilligi sust bo’lsa, ularning jamiyat manfaatlarini himoya qilishdagi roli cheklanishi mumkin. Bu muammoni hal etish uchun davlat grantlari, ijtimoiy buyurtmalar va xususiy sektor ko’magini kengaytirish zarur.

Bundan tashqari, jamoatchilik nazorati natijalari va takliflarini amaliyotga tatbiq etish, ularni davlat organlari tomonidan inobatga olish masalalari ham doim to’liq ishlamaydi. Tadqiqotchi I. Qurbonov jamoatchilik nazorati natijalarining huquqiy

maqomiy masalasiga e'tibor qaratib, ayrim hollarda jamoatchilik tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar ijro hokimiyati organlari uchun majburiy emasligi muammosini ko'rsatadi[9, b. 42]. Haqiqatan, bugungi kunda fuqarolik jamiyati vakillarining monitoring va tahlil natijalari ko'pincha tavsiya xarakteriga ega bo'lib, ularni ijro organlari bajarishi o'z ixtiyoriga bog'liq. Bu esa jamoatchilik nazoratining ta'sir kuchini pasaytiradi. Mazkur masalani hal qilish uchun jamoatchilik nazorati institutlariga huquqiy jihatdan yanada mustahkam maqom berish, ularning xulosalarini ko'rib chiqish tartibini qonun bilan belgilash lozim. Misol uchun, qaysidir vazirlik yoki hokimlik huzuridagi jamoatchilik kengashi muayyan masala bo'yicha o'z tavsiyasini bergan bo'lsa, tegishli davlat organi uni ko'rib chiqishi va asosli rad javobi berishi qonunan majburiy bo'lishi kerak. Shundagina jamoatchilik nazorati "tishli" mexanizmga aylana oladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda oxirgi yillarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2018-yilda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi fuqarolarning davlat hokimiyati faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlarini qonuniy jihatdan kengaytirdi. Ushbu Qonunga ko'ra, fuqarolar va ularning birlashmalari davlat organlari faoliyatini kuzatish va baholash, jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik ekspertizalari o'tkazish, ommaviy muhokamalarda qatnashish huquqiga ega bo'ldi. Endilikda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari huzurida tuzilayotgan jamoatchilik kengashlari turli sohalar rivojiga oid dasturlar ijrosini nazorat qilmoqda. Shu bilan birga, 2019-yilda Prezident qarori bilan davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqqligini baholash tizimi yo'lga qo'yildi hamda normativ-huquqiy hujjat loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish platformasi takomillashtirildi. Mazkur yangiliklar fuqarolar nazoratining institutsional mexanizmlarini mustahkamlab, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilni amaliyotda ro'yobga chiqarmoqda.

Xalqaro tajribaga nazar solsak, ko'plab demokratik davlatlarda fuqarolik jamiyati va davlat hokimiyati o'rtasidagi institutsional muloqot yo'lga qo'yilgani ko'rinadi. Masalan, xorijiy mamlakatlarda ombudsman (inspektor) instituti, mustaqil hisob beruvchi audit idoralari, ijtimoiy eshituvlar kabi jamoatchilik nazorati vositalari keng qo'llanilib, ular hukumat ustidan samarali monitoring olib borishga xizmat qilmoqda[10, b. 97]. Shu bilan birga, S. Islamova ta'kidlaganidek, jamoatchilik nazorati sohasida xorij tajribasini o'rganish mahalliy sharoitda ushbu institutlarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, rivojlangan davlatlarda shakllangan parlament nazorati, fuqarolik jamiyati vakillaridan iborat kengashlar faoliyati O'zbekiston uchun ham foydali namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash (masalan, elektron hukumat portallari orqali onlayn muhokamalar, petitsiya va ovoz berish platformalari) jamoatchilik nazorati kelajagining muhim yo'nalishidir.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil va munozaralardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat nazorati integratsiyasini kuchaytirish borasida muhim huquqiy va institutsional asoslar yaratilgan bo'lib, shu bilan birga, uni yanada takomillashtirish uchun hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud. Hozirgacha qabul qilingan qonun va qarorlar ijrosi natijasida jamiyat boshqaruvida jamoatchilikning ishtiroki ortib bormoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi mustahkamlanib, ular davlat hokimiyati faoliyatini nazorat qilish huquqidan keng foydalanmoqda. Xususan, Oliy Majlis palatalarida hukumat a'zolari hisoboti va aholi vakillari ishtirokida eshituvlar o'tkazish kabi yangi amaliyotlar yo'lga qo'yildi; normativ hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda fuqarolar bevosita qatnashmoqda. Bularning barchasi "davlat – jamiyat" muloqotini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarib, fuqarolarning boshqaruvdagi o'rni oshayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, jamiyat hayotida fuqarolik institutlarining rolini yanada kuchaytirish istiqbolli vazifa bo'lib qolmoqda. Kelgusida fuqarolik jamiyati rivojiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish, xususan, NNTlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik nazorati natijalarining huquqiy ahamiyatini oshirish zarur.

Yaxshi boshqaruv tamoyillarini qaror toptirishda fuqarolar ishtiroki va hisobdorlik mexanizmlari muhim o'rin tutishini xalqaro tashkilotlar ham ta'kidlaydi. BMT Taraqqiyot dasturining Inson taraqqiyoti hisobotlarida fuqarolar ishtirokisiz hamda jamoatchilik oldida hisobdorliksiz samarali davlat boshqaruvini tasavvur qilib bo'lmazligi alohida qayd etiladi. Transparency International xalqaro tashkilotining 2020-yilgi hisobotiga ko'ra, fuqarolik jamiyati va mustaqil OAV ishtiroki kuchli bo'lgan mamlakatlarda korrupsiya darajasi sezilarli ravishda past bo'lishi aniqlangan[11, p. 5]. Bu esa davlat hokimiyati uchun jamoatchilik nazorati "qo'rqinchili emas, balki foydali" ekanini isbotlaydi – axir jamoatchilik nazorati tufayli mansabdorlar xato va suiiste'mollardan o'zini tiyadi, boshqaruv qarorlari xalq talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda qabul qilinadi[12, b. 13].

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati ishtirokida davlat nazoratini amalga oshirish borasidagi ishlar O'zbekistonda izchil davom etmoqda. Davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, fuqarolar fikrini har tomonlama inobatga olish tamoyili davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu yo'nalishda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Kelajakda jamiyat hayotining turli jabhalarida "davlat – jamiyat" sherikligini chuqurlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan. Bu esa nafaqat ichki ijtimoiy-siyosiy

barqarorlikni ta'minlash, balki O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi demokratik davlat sifatidagi obro'sini mustahkamlash imkonini beradi[13, c. 77].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 45.
2. «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida» Qonun. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 1999. – B. 2.
3. Sodiqov S. Fuqarolik jamiyatining shakllanish bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 8.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – B. 46.
5. Ergashev D. O'zbekiston: fuqarolik jamiyati rivojlanishi. – Toshkent: Toshkent davlat universiteti nashriyoti, 2009. – B. 5.
6. Bekmurodov A. Jamoatchilik nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Toshkent davlat universiteti nashriyoti, 2018. – B. 88.
7. Karimova L. Grazhdanskoe obshchestvo: opyt Uzbekistana (rus tilida). – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – C. 19.
8. Марченко М.Н. Теория государства и права. – Москва: Проспект, 2014. – C. 125.
9. Qurbonov I. Jamoatchilik nazoratining huquqiy muammolari. – Toshkent: Toshkent davlat universiteti nashriyoti, 2016. – B. 42.
10. Komilov A. Xalqaro tajribada fuqarolik jamiyati. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 97.
11. Transparency International. Corruption Perceptions Index Report. – Berlin: TI, 2020. – p. 5.
12. Tursunov U. Jamoat fikri va nazorat. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 13.
13. Исаев И.А. Государство и гражданское общество. – Москва: Юрайт, 2011. – C. 77.

НОВЫЙ КУРС МАГРИБА: ОТ СЫРЬЕВОЙ ЗАВИСИМОСТИ К «ЗЕЛЕНОМУ» РОСТУ

Салихова Алина Муратовна

старший преподаватель

кафедры «Экономика и менеджмент»

Ташкентский государственный университет востоковедения

Акбарова Камола Акмалжоновна

преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»

Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация. *Статья посвящена анализу экологических вызовов и стратегий перехода к «зеленой» экономике в странах Магриба (Алжир, Ливия, Мавритания, Марокко, Тунис). Несмотря на низкие позиции в глобальном Индексе экологической эффективности, регион сталкивается с острыми проблемами: деградацией природной среды, дефицитом водных ресурсов, зависимостью экономики от сырьевых секторов и высокой молодежной безработицей. В связи с этим страны Магриба разрабатывают и внедряют национальные стратегии устойчивого развития. В статье подробно рассматриваются ключевые направления «озеленения»: развитие возобновляемой энергетики, внедрение органического сельского хозяйства, рациональное управление водными ресурсами и создание экогородов.*

Ключевые слова: *Магриб, «Зеленая» экономика, устойчивое развитие, экологические вызовы, изменение климата, дефицит водных ресурсов, возобновляемая энергетика (ВИЭ), органическое сельское хозяйство, экогорода, Национальные стратегии, энергетический переход, экологическая эффективность.*

Abstract. *The article is devoted to the analysis of environmental challenges and strategies for transitioning to a "green" economy in the Maghreb countries (Algeria, Libya, Mauritania, Morocco, Tunisia). Despite low rankings in the global Environmental Performance Index, the region faces acute problems: degradation of the natural environment, water scarcity, dependence of the economy on raw materials sectors, and high youth unemployment.*

In this regard, the Maghreb countries are developing and implementing national sustainable development strategies. The article examines in detail the key areas of "greening": the development of renewable energy, the introduction of organic agriculture, rational water resource management, and the creation of eco-cities.

Key words: *Maghreb, Green economy, Sustainable development, Environmental challenges, Climate change, Water scarcity, Renewable energy, Organic agriculture, Eco-cities, National strategies, Energy transition, Environmental performance.*

ВВЕДЕНИЕ

Страны Магриба (Алжир, Ливия, Мавритания, Марокко и Тунис) сталкиваются с комплексом взаимосвязанных вызовов, угрожающих их устойчивому развитию. Наряду с экономическими проблемами, ключевым индикатором положения становится индекс экологической эффективности. По данным 2022 года, экологическая ситуация в регионе вызывает серьезные опасения: Тунис занимает лишь 96-е место (40,7) из 180 стран, Алжир — 155-е (29,6), Марокко — 160-е (28,4), а Мавритания — 165-е (28,1)².

Основные угрозы стабильности включают:

- Деградация окружающей среды и климатические изменения (рост температур, опустынивание), которые, по оценкам, приводят к потерям в 2-5% ВВП региона.

- Растущий дефицит водных ресурсов.

- Зависимость экономики от добывающей промышленности и сельского хозяйства, что делает ее уязвимой к климатическим колебаниям и колебаниям цен на сырье. Неурожаи из-за засух резко снижают ВВП и увеличивают импорт продовольствия.

- Региональные диспропорции в развитии хозяйства и социальной сферы.

- Высокий уровень безработицы, особенно среди молодежи и выпускников вузов. По данным Всемирного банка, в 2022 году безработица среди лиц 15–24 лет достигала 18% в Марокко, 24% в Алжире и 36% в Тунисе³.

- Принятие Целей устойчивого развития (ЦУР) и Парижского соглашения (2015) задало новый вектор для стран Магриба. Экологические трудности (подъем уровня моря, засухи, нехватка воды и продовольствия) стимулируют переход к «зеленой» экономике и формированию долгосрочных стратегий.

Основные направления «озеленения» экономики:

- Развитие высокотехнологичной промышленности с минимальным воздействием на природу.

- Переход на возобновляемые источники энергии (ВИЭ).

^{2 2} <https://nonews.co/directory/lists/countries/ecology>

³ World Bank Open Data. Available at: <https://data.worldbank.org/indicator/SL.UEM.ADVN.ZS?view=chart>

- Внедрение органического сельского хозяйства с применением ресурсосберегающих технологий.
- Эффективное управление водными ресурсами, включая модернизацию ирригации, очистку и повторное использование сточных вод.
- Рациональное лесное хозяйство для сохранения биоразнообразия.
- Устойчивое развитие рыболовства.
- Сокращение отходов через развитие переработки и безотходных производств.

Этот переход способен создать новые рабочие места (особенно в сельской местности), снизить энергетическую и продовольственную зависимость, а также смягчить социальные проблемы — бедность, безработицу и неравенство.

Национальные стратегии и примеры:

Алжир, являясь крупным экспортером углеводородов, проводит реформы для диверсификации экономики. «Озеленение» уже создало 450 тыс. рабочих мест к 2012 году, а к 2025 году прогнозируется создание до 1,4 млн новых мест в «зеленых» секторах. Один из амбициозных проектов — строительство экогорода Бугезуль к 2030 году.

Тунис реализует Национальную стратегию зеленой экономики (2016–2036), фокусируясь на ВИЭ, водном хозяйстве, органическом земледелии и экотуризме. Страна, испытывающая острый дефицит воды, активно внедряет технологии опреснения и повторного использования очищенных стоков (около 30% для орошения). В электроэнергетике планируется довести долю ВИЭ до 30% к 2030 году, в основном за счет солнечной энергии.

Марокко продвигает стратегию «Зеленое Марокко», делая ставку на использование возобновляемых ресурсов. В рамках масштабной Moroccan Solar Energy Programme близ Уарзазата построена одна из крупнейших в мире солнечных электростанций (Noor I–III). Также в стране введен «зеленый» налог, средства от которого инвестируются в переработку отходов, и ведется строительство экогородов (например, Зената).

Важную роль в переходе играет частный сектор. В Тунисе и Марокко он активно вовлекается в переработку отходов и органическое земледелие через систему стимулов и партнерства с государством. Во всех странах региона развивается сотрудничество с иностранным капиталом в секторе ВИЭ.

Для реализации своих амбициозных планов страны Магриба также рассчитывают на финансовую и техническую помощь международного сообщества — как в формате двустороннего сотрудничества (с Европой и арабскими странами), так и через международные финансовые институты и организации ООН.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Новый курс стран Магриба отражает переход от традиционной сырьевой зависимости к модели устойчивого и «зелёного» роста. Опираясь на развитие возобновляемой энергетики, диверсификацию экономики и внедрение инновационных технологий, регион стремится повысить свою экономическую устойчивость и снизить уязвимость перед глобальными ценовыми колебаниями.

«Зелёная» трансформация открывает для Магриба новые возможности: создание рабочих мест, привлечение инвестиций, улучшение экологической ситуации и усиление конкурентоспособности на мировом рынке. Таким образом, новый курс является стратегически важным шагом к долгосрочному, инклюзивному и экологически сбалансированному развитию региона.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. В. Хорос, Б.Долгов, З.Соловьева. ПРОБЛЕМЫ СЕВЕРОАФРИКАНСКОГО РЕГИОНА. МИРОВАЯ ЭКОНОМИКА И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ, 2019, том 63, № 4, с. 87-95 DOI: 10.20542/0131-2227-2019-63-4-87-95
2. Филоник А. О. Зеленая экономика – новый вызов Арабскому Востоку // Восточная аналитика. 2018. № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-novyuy-vyzov-arabskomu-vostoku>
3. Салихова А.М. «ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА» В СТРАНАХ МАГРИБА» / SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 7-JILD 4-SON ISSN: 2181-4600 (с. 186-191) <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/view/10623/10604>

PRAGMATIC CHALLENGES IN TRANSLATING ENGLISH COMPOUND WORDS INTO UZBEK

Anarbayev Orzubek Rahmanovich

UzSWLU, a senior teacher, an independent researcher

orzubekanarbaev@gmail.com

ORCID 0000-0002-5588-0936

Abstract: *The translation of compound words, particularly in specialized domains such as newspapers, poses significant challenges. This study investigates the pragmatic difficulties encountered when translating English compound words into Uzbek, focusing on terminology used in the journalistic context. By examining linguistic, cultural, and contextual aspects, this paper highlights the complexities of translating multi-word units while maintaining accuracy and meaning. Through a combination of qualitative and quantitative methods, the study explores key translation strategies and their efficacy in bridging linguistic and cultural gaps.*

Key words: *compound words, cultural adaptation, pragmatic translation, intralingual, interlingual, translation techniques.*

INTRODUCTION

In the context of newspaper translation, compound words are among the most frequent and complex lexical units. English compound words, often formed by combining two or more words into a single lexical unit (e.g., “breakfast” or “newspaper”), create unique challenges for translators. These challenges are particularly evident when translating into languages like Uzbek, which has its own syntactic and morphological structures. Newspaper terminology, which frequently incorporates specialized compound words, requires precise translation strategies that retain both the denotative and connotative meanings in the target language.

While translation studies have addressed compound words in general, little attention has been given to the pragmatic challenges in translating newspaper compound terms between English and Uzbek. The need for accurate representation of meaning, especially in journalistic settings where the reader’s understanding depends heavily on precise language use, complicates the translation process.

This paper aims to explore the pragmatic challenges faced by translators when translating English compound words into Uzbek in the context of newspaper terminology. It focuses on how cultural, syntactic, and contextual factors influence translation decisions, and assesses the strategies employed to preserve both the functional and rhetorical aspects of compound words.

Understanding these challenges has practical implications for improving the quality of translations in journalism, as accurate and culturally appropriate translations are essential for effective communication across linguistic boundaries. The findings of this study could contribute to the development of translation guidelines for media professionals working with these languages.

METHODS

This study employs a mixed-method approach, combining qualitative and quantitative techniques. It uses corpus analysis to examine a set of English-language newspaper articles, focusing specifically on compound words. These articles are then translated into Uzbek by professional translators, and the translations are analyzed for fidelity, accuracy, and appropriateness.

The corpus consists of 50 articles from prominent English-language newspapers, such as The New York Times and The Guardian, covering a range of topics from politics to international relations. The articles were selected based on their linguistic diversity and the frequency of compound words, particularly in journalistic contexts.

The translation process was carried out by two professional Uzbek translators with experience in media translation. Each translator was asked to translate the selected articles while adhering to specific translation guidelines, which prioritized accuracy, cultural relevance, and reader accessibility.

The translated texts were analyzed for pragmatic challenges. These challenges include:

- Cultural differences: How well do the translators handle English cultural references that may not have direct equivalents in Uzbek?
- Syntactic structures: How do the translators deal with the syntactic differences between English and Uzbek, especially when translating multi-word compounds?
- Contextual nuances: How do the translators ensure that the meaning and tone of the original compound words are preserved in the translated text?

The analysis is both qualitative, in terms of examining specific translation examples, and quantitative, by categorizing the translation strategies used.

Results

1. Challenges in Translating Newspaper Compound Words: The analysis revealed several recurring challenges in translating English compound words into Uzbek, particularly within newspaper articles:

- Cultural gaps: Many English compound words contained cultural references that had no direct equivalent in Uzbek. For instance, terms like “New York Times” or “The White House” required more explanation or adaptation to ensure the target audience understood the reference.

- Syntactic and morphological issues: English compound words often combine words into single lexical units, whereas Uzbek tends to favor syntactic combinations. For example, the term “breaking news” in English was often rendered as a phrase in Uzbek, such as “yangi xabarlar” (new news), changing its compound structure.

- Loss of nuance: Translators sometimes struggled to preserve the full range of meaning or connotation present in the English compounds. For instance, terms like “market share” or “financial report” carried specific professional connotations in English, but those nuances were challenging to replicate in Uzbek without further context or explanation.

2. Translation Strategies: Several strategies were employed to overcome these challenges:

- Borrowing: In some cases, English terms were borrowed directly into the Uzbek translation (e.g., “online” became “onlayn”). This approach was particularly common for terms that had become internationally recognized.

- Literal translation: When possible, translators used a word-for-word approach. For example, “social media” was translated as “ijtimoiy tarmoqlar,” which is a literal equivalent in Uzbek.

- Explicitation: To address cultural gaps, translators often added brief explanatory phrases to clarify references. For example, “White House” was sometimes translated as “Oq uy (AQSh prezidentining qarorgohi)” (the White House, the residence of the U.S. president).

- Adaptation: In some cases, the translation involved adapting the compound word to a culturally relevant equivalent. For example, “breaking news” was often translated as “dolzarb yangiliklar,” which conveys the urgency but in a different syntactic structure.

3. Effectiveness of Strategies: The effectiveness of each strategy varied depending on the context. Borrowing and literal translation were effective when the terms were internationally recognized. Explicitation and adaptation were particularly useful for terms that carried cultural or professional connotations unfamiliar to the Uzbek audience.

DISCUSSION

The study reveals that translating compound words involves more than just finding linguistic equivalents; it requires a deep understanding of both source and target cultures. For example, terms like “Black Friday” or “Silicon Valley” carry specific cultural connotations that are not easily translatable into Uzbek without losing some of their original meaning. In such cases, adaptation is often the most effective strategy, though it may not always be a perfect solution.

The findings underscore the importance of pragmatic awareness in translation. Translators must not only be linguistically proficient but also culturally sensitive,

adapting their translations to suit the expectations and knowledge of the target audience. In the case of newspaper translations, where the accuracy of information is critical, this is particularly important.

This study focused primarily on a small corpus of articles from a few English-language newspapers. Future research could expand the corpus and include additional languages to compare how different linguistic and cultural contexts affect the translation of compound words.

CONCLUSION

Translating English compound words into Uzbek, especially in the context of newspapers, presents numerous pragmatic challenges. While various strategies such as borrowing, literal translation, explicitation, and adaptation are commonly employed, each comes with its own set of limitations. The findings emphasize the need for translators to be aware of both linguistic structures and cultural contexts to ensure effective communication across languages. Further research could explore the impact of these translation strategies on reader comprehension and media accuracy.

REFERENCES:

1. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
2. House, J. (2015). *Translation as Communication across Languages and Cultures*. Routledge.
3. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
4. Vinay, J.P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins.
5. Rakhmanovich, A. O. (2023). SPECIAL FEATURES OF TRANSLATING ENGLISH NEWSPAPER TEXTS. *IMRAS*, 6(7), 220-226.
6. Anarbayev, O. R. (2024). TURIZM SOHASIDA QO'LLANILADIGAN QO'SHMA SO'ZLARNI TARJIMA QILISHGA DOIR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(30), 6-14.
7. Anarbaev, O. R. (2021). Corpus of parallel texts-As an efficient working tool of a modern translator. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(4), 716-722.
8. Rahmanovich, A. O. (2022). Specific features of the publicistic style in English. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 26-30.
9. Anarbaev, O. (2022). Orzubek USING TPR (TOTAL PHYSICAL RESPONSE) TEACHING METHOD AT CLASS: USING TPR (TOTAL PHYSICAL

RESPONSE) TEACHING METHOD AT CLASS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).

10. Rahmanovich, A. O., & XUSUSIYATLARI, I. G. M. L. G. (2023). THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY.

11. Raxmanovich, A. O. (2023). TRANSLATION METHODS OF NEWSPAPER AND JOURNALISTIC TEXTS, INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM.

12. Rahmanovich, A. O. (2023). METHODS AND PROBLEMS OF TRANSLATING ENGLISH NEWSPAPER TEXTS INTO UZBEK Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities.

13. Rahmanovich, A. O. Specific features of the publicistic style in English, South Asian Academic Research Journals, 2022.

14. Rahmanovich, O. A., Yusufovich, E. H., Dilshodqizi, S. S., Almasovna, S. A., & Ibragimovich, H. I. (2020). Linguistic features of compound words in english and Uzbek languages. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 7(2), 925-932.

TALABALARDA MA'NAVIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Axmadjonov Zafarjon Ravshan o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Ma'naviy madaniyat tushunchasining pedagogik mazmuni va uning shaxs kamolotidagi o'rni ochib berilgan. Talabalarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda ta'lim jarayonining tarbiyaviy imkoniyatlari asoslab berilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlarning ma'naviy madaniyatni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish orqali talabalarda ma'naviy faollikni oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishning metodik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola ta'lim tizimi mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviy madaniyat, talaba shaxsi, tarbiya, pedagogik metodika, interfaol ta'lim, innovatsion yondashuv.*

KIRISH

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin kuchayishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lgan ma'naviy madaniyat masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar — kelajak jamiyatining yetakchi kuchi sifatida — ma'naviy jihatdan barkamol, ijtimoiy faol va mustaqil fikrlovchi shaxslar bo'lib shakllanishi zamonaviy ta'lim tizimi oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Shu jihatdan, talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi pedagogika fanining muhim ilmiy va amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari asarlarida ma'naviyat va axloq masalasi shaxs kamolotining asosiy mezon sifatida talqin etilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti avvalo fozil insonlarni tarbiyalash bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlab, shaxsning ma'naviy yetukligi ijtimoiy barqarorlikning poydevori ekanini asoslab bergan. Forobiy fikricha, tarbiya orqali insonda ezgulik, adolat, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi sifatlar shakllanadi.¹ Ushbu qarashlar hozirgi ta'lim tizimi uchun ham nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosida ham ma'naviy tarbiya

masalasi markaziy o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asarida yoshlar tarbiyasida ma'naviyat masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, "Agar biz farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalamasak, kelajagimizni xavf ostiga qo'ygan bo'lamiz", deya ta'kidlaydi.² Mazkur fikrlar talaba yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish tizimli va metodik asosda olib borilishi zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogika nazariyasida ham shaxs ma'naviy kamoloti muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi. Jumladan, L.S. Vygotskiy shaxs rivojida ijtimoiy muhit va ta'limning hal qiluvchi rolini ta'kidlab, ma'naviy sifatlar muloqot va faoliyat jarayonida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.³ J. Dyui esa ta'limni shaxsning ijtimoiy tajribasini boyituvchi jarayon sifatida baholab, tarbiya va ta'limni uzviy holda olib borish zarurligini uqtiradi.

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 2018.

2. . Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2016.

3. Vygotsky, L. S. Mind in Society. — London: Harvard University Press, 2018.

Ushbu qarashlar talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda interfaol va faoliyatga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.⁴

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim jarayonida bilim berishga nisbatan ustuvorlik kuzatilayotgani, tarbiyaviy komponentning ayrim holatlarda ikkinchi planga tushib qolayotgani kuzatiladi. Natijada, ayrim talabalarda ma'naviy befarqlik, ijtimoiy mas'uliyatning sustligi, milliy qadriyatlarga nisbatan loqaydlik holatlari yuzaga kelmoqda. Bu esa talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, O. Abdullayev va Z. Suyunova kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari, metod va vositalarini tahlil qilib, mavjud tizimda metodik yondashuvlarni yangilash zarurligini ta'kidlaydilar.⁵ Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda tarbiyaviy mashg'ulotlarni faqat ma'ruza shaklida emas, balki interfaol, muammoli va loyihaviy metodlar asosida tashkil etish yuqori samaradorlik beradi.

Mazkur maqolada aynan shu muammolar — talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayonida mavjud metodik kamchiliklar, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan yetarli darajada foydalanilmayotgani, tarbiyaviy ishlarning tizimsizligi kabi masalalar ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish yo'llari, pedagogik shart-sharoitlar va samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu maqola avvalo oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, tyutorlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar, pedagogika

4. Dyui, J. Democracy and Education. — New York: Macmillan, 2017.

5. Abdullayev, O. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari. — Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2019.

yo'nalishida tahsil olayotgan magistrant va talabalar, shuningdek, ta'lim sohasidagi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan. Maqola mazmuni ta'lim jarayonini tarbiyaviy jihatdan boyitish, talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish hamda ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasiga yondashishda, avvalo, "ma'naviy madaniyat" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlab olish zarur. Pedagogik adabiyotlarda ma'naviy madaniyat shaxsning axloqiy qarashlari, e'tiqodi, ijtimoiy xulq-atvori, qadriyatlarga munosabati hamda ma'naviy ehtiyojlarini o'zida mujassam etuvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi. O. Musurmonova ma'naviy madaniyatni shaxs tarbiyasining markaziy omili deb hisoblab, uning shakllanishi uzluksiz tarbiya jarayoni bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi.⁶ Bugungi talaba yoshlar axborot texnologiyalari rivojlangan, g'oyalar tez almashayotgan muhitda yashamoqda. Shu bois, an'anaviy nasihat va ma'ruzalarga asoslangan tarbiya shakllari o'z samarasini to'liq bermayapti. Bu holat pedagoglardan ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda yangicha metodik yondashuvlar, xususan, interfaol, muammoli va reflektiv metodlardan foydalanishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy madaniyat endilikda faqat axloqiy bilimlar majmui emas, balki talabaning hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi muhim kompetensiya sifatida qaralishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayoni ko'pincha tizimsiz va epizodik tarzda amalga oshiriladi. Ayrim hollarda tarbiyaviy ishlar faqat bayram tadbirlari yoki rasmiy suhbatlar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa ma'naviy tarbiyaning ichki ta'sir kuchini pasaytiradi. O. Abdullayev o'z tadqiqotida ta'lim jarayonida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liq muammolarning

6. . Musurmonova, O. Ma'naviy tarbiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.

asosiy sababi sifatida metodik yondashuvlarning yetarlicha ishlab chiqilmagani va pedagoglarning bu boradagi malakasi turlicha ekanini qayd etadi.⁷ Shu o'rinda muhim savol tug'iladi: nega ayrim pedagoglarning tarbiyaviy ishlari samarali, boshqalariniki esa kutilgan natijani bermaydi? Muallif sifatida qarashimga ko'ra, bu holat pedagogning shaxsiy ma'naviy pozitsiyasi, kommunikativ madaniyati va

tarbiyaviy faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv talabani faqat bilim olishini emas, balki o'z ma'naviy pozitsiyasini anglashini, mustaqil fikr yuritishini va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi. Amaliy tavsiya sifatida quyidagilarni aytishim mumkin:

Birinchidan, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish lozim. Masalan, talabalarga real hayotda uchraydigan axloqiy dilemmalar taqdim etilib, ularni muhokama qilish orqali ma'naviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Ikkinchidan, interfaol metodlar — munozara, debat, "aqliy hujum", keys-stadi texnologiyalaridan foydalanish talabalarda ma'naviy faollikni oshiradi. Z. Suyunova tadqiqotlarida aynan ushbu metodlarning talaba shaxsiga ichki ta'siri yuqori ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.⁸

Uchinchidan, ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash zarur. Fan mashg'ulotlarida ham mavzuga mos ma'naviy-axloqiy jihatlarni singdirish pedagogdan yuqori kasbiy mahoratni talab etadi.

Sharq pedagogik merosida ibratli hikoya va masallar orqali tarbiya berish samarali usul sifatida keng qo'llanilgan. Masalan, Forobiyning asarlarida ilmga intilmagan, ammo mansabga ega bo'lgan shaxs jamiyat uchun xavfli ekanligi ta'kidlanadi.

7. Abdullayev, O. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari. — Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2019 8. Suyunova, Z. B. Oliy ta'limda talaba shaxsini ma'naviy jihatdan rivojlantirish texnologiyalari. — Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent, 2018.

Bu hikmat bugungi talaba yoshlar uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Bilim bilan birga ma'naviy mas'uliyat bo'lmasa, yetuk mutaxassis shakllanmaydi. O'quv jarayonida qisqa hayotiy voqealar va real misollarni keltirish talabalarni o'ylashga undaydi. Mualliflik tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, talabalarga oddiy, ammo hayotiy hikoyalar orqali berilgan saboq ko'pincha uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi.

Pedagogik faoliyatim jarayonidagi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda individual yondashuv muhim o'rin tutadi. Har bir talabani dunyoqarashi, tarbiyaviy tajribasi va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, u bilan ishlash uslubi ham turlicha bo'lishi kerak. Shu bois, yagona metod barcha talabalar uchun bir xil natija bermaydi. Mualliflik qarashimga ko'ra, talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Agar pedagog o'z faoliyatida adolatli, mas'uliyatli va ochiq bo'lsa, bu fazilatlar bilvosita talabalar shaxsida ham shakllanadi. Talabalarda ma'naviy

madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun quyidagi metodik ko'rsatmalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

— tarbiyaviy jarayonni tizimli va rejalashtirilgan asosda olib borish; — nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish; — talabalarning mustaqil fikrini qo'llab-quvvatlash; — refleksiya va o'z-o'zini baholash jarayonlarini yo'lga qo'yish.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan puxta va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi.

XULOSA

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogik talablar nuqtai nazaridan keng va tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ma'naviy madaniyat shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi ekani, uning talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani asoslab berildi. Olib borilgan nazariy tahlil va amaliy mulohazalar shuni ko'rsatdiki, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish faqat alohida tarbiyaviy mashg'ulotlar bilan chegaralanmasligi, balki butun ta'lim jarayoniga integratsiya qilingan holda amalga oshirilishi zarur.

Asosiy qismda ko'tarilgan muammolar — tarbiyaviy ishlarning tizimsizligi, metodik yondashuvlarning eskirganligi, talabalar faolligining yetarli darajada shakllanmagani — ta'lim amaliyotida tez-tez uchraydigan holatlar sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu muammolarni bartaraf etish imkoniyati mavjud va buning uchun ilmiy asoslangan, maqsadli hamda shaxsga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni joriy etish muhim hisoblanadi. Xususan, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar va reflektiv yondashuvlar orqali talabalarning ma'naviy faolligini oshirish mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan isbotlandi.

Tadqiqot natijalari talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda pedagog shaxsining o'рни alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Pedagogning shaxsiy namunasi, kasbiy mas'uliyati va ma'naviy pozitsiyasi talabalar uchun bevosita tarbiyaviy manba hisoblanadi. Agar o'qituvchi o'z faoliyatida adolat, halollik, insonparvarlik va vatanparvarlik tamoyillariga qat'iy amal qilsa, bu fazilatlar tabiiy ravishda talabalar ongiga singib boradi. Shu bois, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bilan birga, pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatini ham tizimli ravishda rivojlantirish zarur.

Maqolada taklif etilgan amaliy tavsiyalar — ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash, real hayotiy vaziyatlardan foydalanish, talabalarni mustaqil fikrlashga undash hamda ma'naviy refleksiya jarayonlarini tashkil etish — talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlar sifatida

e'tirof etildi. Ushbu tavsiyalarni izchil va rejalashtirilgan holda qo'llash orqali ta'lim jarayonining tarbiyaviy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon ilmiy yondashuv, amaliy tajriba va pedagogik mahorat uyg'unligini talab etadi. Mazkur maqolada ilgari surilgan g'oyalar va xulosalar oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga, talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga hamda jamiyat uchun mas'uliyatli, ma'naviy barkamol kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev, O. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari. — Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2019.
2. Abdullayeva, M. X. Talaba yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning o'рни // Pedagogik ta'lim. — 2020. — №4. — B. 45–49.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 2018.
4. Alimuhamedov, Sh. A. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2021.
5. Asqarov, A. A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Dewey, J. Democracy and Education. — New York: Macmillan, 2017.
7. Ibrohimov, B. M. Talabalarda ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari // Innovatsion ta'lim. — 2021. — №2. — B. 60–64.
8. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
9. Komilov, N. Ma'naviyat asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2019.
10. Musurmonova, O. Ma'naviy tarbiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
11. Raximov, D. E. Talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish // Pedagogika. — 2022. — №1. — B. 72–76.
12. Suyunova, Z. B. Oliy ta'limda talaba shaxsini ma'naviy jihatdan rivojlantirish texnologiyalari. — Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent, 2018.
13. To'xtaboyev, A. A. Zamonaviy ta'limda ma'naviy madaniyatni shakllantirish masalalari. — Toshkent: Fan, 2020.
14. UNESCO. Education for Sustainable Development. — Paris, 2021.
15. Vygotsky, L. S. Mind in Society. — London: Harvard University Press, 2018.

BIOLOGIYA O'QITISHDA YANGI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: AQLIY HUJUM VA INSERT METODI ASOSIDA SAMARALI DARS TASHKIL ETISH

Usmanov Dilmurodjon

ADPI Biologiya va Geografiya o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Ziyoiddinova Salomatxon

Rejabaliyeva Madinaxon ADPI Biologiya yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, xususan Aqliy hujum va Insert metodlarining o'quv jarayonidagi ahamiyati, ularning dars samaradorligini oshirishdagi o'zni ilmiy-uslubiy jihatdan yoritiladi. Interfaol metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, taqqoslash, mulohaza va hamkorlikda o'rganish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy, pedagogik, interfaol, metod, Aqliy hujum, Insert, dars, o'qituvchi, o'quvchi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются преимущества использования современных педагогических технологий в обучении биологии, в частности, значение методов мозгового штурма и инсрта в учебном процессе, их роль в повышении эффективности урока с научно-методической точки зрения. Интерактивные методы развивают у учащихся компетенции самостоятельного мышления, аналитического подхода, сравнения, коммуникации и совместного обучения.

Ключевые слова: современный, педагогический, интерактивный, метод, мозговой штурм, инсерт, урок, учитель, ученик.

Abstract: This article discusses the advantages of using modern pedagogical technologies in teaching biology, in particular, the importance of Brainstorming and Insert methods in the learning process, their role in increasing the effectiveness of the lesson from a scientific and methodological perspective. Interactive methods develop students' competencies in independent thinking, analytical approach, comparison, communication and collaborative learning.

Keywords: Modern, pedagogical, interactive, method, Brainstorming, Insert, lesson, teacher, student.

Bugungi kunda o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarining sifatini oshirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy jamiyat o'qituvchiga nafaqat bilimlarni yetkazish, balki

o'quvchilarning shaxsiy muhim fazilatlarini rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Bilim maqsad sifatida emas, balki shaxsni rivojlantirish vositasi sifatida harakat qiladi. Bu maqsadga erish uchun darslarni interfaol metodlaridan foydalanib o'tish ancha foydali hisoblanadi.

Interfaol- inglizcha „ interact ” so'zidan olingan bo'lib, inter- hamkorlikda act- harakat qilmoq ma'nosini bildiradi. Interfaollik deganda o'quvchining o'quvchi bilan hamkorlikda yoki kompyuter bilan muloqoti o'zaro ta'sir ko'rsatish rejimida ishlashi tushuniladi. Interfaol o'qitish – bu avvalo dialog tarzda o'qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir. Interfaol o'qitishning asosiy mohiyati – o'qitish jarayonida barcha o'quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo'llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi. Metod so'zi umumiy ma'noda muayyan maqsadga erishish usulidir. Interfaol metodlarga Klaster, Venn diagrammasi, BBB, Nima uchun?, Insert, Mozaika, Nilufar gul metodlari va boshqalar. Biz ushbu maqolada interfaol metodlardan Aqliy hujum va Insert metodiga to'xtalib o'tamiz [1; 2;4].

Aqliy hujum. O'quvchilarning Muammoli metodlardan foydalaniladigan darslarni keyingi yillarda yangi nom bilan (“Tafakkur bo'roni” B.R.Qodirov), (“Miyaga hujum”, “Fikrlar to'qnashuvi”, “Fikrlar jangi” V.M.Karimova, F.A.Akramova), (“Aqliy hujum” J.G'.Yo'ldoshev) nomlash rasm bo'ldi. Muammoli metoddan foydalanilgan dars (“Aqliy hujum”) quyidagi bosqich asosida tashkil etiladi: Biz buni 5-sinf — “Hujayra- tiriklikning asosi” mavzusida ko'rib chiqamiz:

I – bosqich. Psixologik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilardan teng sonli kichik guruhlarni shakllantirish. “Hujayra”, “Sitoplazma”, “Yadro”, “Xloroplast” kabi nom berish.

II – bosqich. Kichik guruhlariga muammoli savollardan iborat bo'lgan o'quv topshiriqlarini tarqatish va ularni topshiriqning didaktik maqsadi bilan tanishtirish.

- Nima uchun hujayra tiriklikning eng kichik birligi hisoblanadi?
- Xloroplast bo'lmasa o'simlik yashay oladimi?
- Hujayra bo'linishi to'xtasa nima bo'ladi?

III – bosqich. O'quvchilarning bilish faoliyatini o'quv muammolarini hal etishga yo'naltirish muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha axborotlarini tinglash.

Yuqorida berilgan muammoni hujayra tuzilishi va funksiyalari asosida muhokama qiladi va yechimlarni ishlab chiqadi.

V – bosqich. Kichik guruhlar o'rtasida o'quv bahsi va munozara o'tkazish. Guruhlar o'z javoblarini taqdim etadi, tiriklikning hujayra asosida kechishi haqida o'quv bahsi va munozara olib boriladi.

VI – bosqich. Umumiy xulosa. Hujayra — barcha tirik mavjudotlarning asosiy tuzilma va funksional birligi, o'sish, nafas olish, ko'payish kabi jarayonlar hujayrada kechadi.

”Aqliy hujum” da o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, aqliy faoliyat usullarini egallaydi. Bu metodlar muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlarini hosil qilish, o'quv farazlarini isbotlash, obyektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o'quv-tadqiqot tajribalarini o'tkazish, o'quv xulosalari va umumlashmalarini ta'riflash uslublarini o'z ichiga oladi. O'qitishning mantiqiy metodlari guruhi. Mazkur metod o'quv materialini mazmunining yo'nalishini belgilab, o'quvchilarning bosh g'oyani ajratish, o'rganilayotgan obyektning tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish ko'nikmalari, aqliy faoliyat usullarini egallash, abstrakt tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarni anglash imkonini yaratadi [1; 4; 6].

Insert” metodi. Insert metodi tushunishni kuzatish vositasidir. Insert - bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert - bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab - quvvatlash uchun kuchli vositadir. O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

✓ □ - bilganlarimni tasdiqlaydi.

□ - yangi axborot.

□ bilganlarimga zid keladi.

□ - meni o'ylantirib qo'ydi.

Afzalligi:

- Mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish.

- Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi [3; 5; 7].

Matnni insert metodida o'rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

☒	☐	☐	☐
ha» - o'qiganlaring izdan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot.	musbat» - o'qiganlaring giz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot.	manfiy» - o'qiganlaring giz, bilganlaring izga qarama- qarashi ma'lumot.	«savol» - o'qiganlaring izdan siz uchun tushunarli bo'lmagan yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot.
Xromasoma	Krossingov er	Interferensi ya	Qo'sh krossingover
Gen			

Shu tarzda yoziladi.

Demak, Biologiya o'qitishda Aqliy hujum va Insert metodlaridan foydalanish dars samaradorligini sezilarli oshiradi. Aqliy hujum o'quvchilarda erkin fikrlash, ijodkorlik va jamoaviy muhokama ko'nikmalarini rivojlantirsa, Insert metodi ularning axborotni tahlil qilish, muhim ma'lumotlarni ajratish va ongli o'rganish jarayonini kuchaytiradi. Ushbu metodlarning uyg'un qo'llanilishi darsni interaktiv, qiziqarli va mazmunli qiladi, o'quvchilarning bilim sifati hamda fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. T. Azimov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent.
2. S. X. Sulliyeva ; Q. G'. Zokirov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent-2020. 82-b.
3. J. O. Tolipova. Biologiya o'qitish metodikasi. Toshkent-2011.
4. G. S. Ergasheva; S.F. Salimov . Biologiya o'qitish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. Buxoro-2021. 158-b
5. Biologik ta'lim jarayonida ta'lim vositalaridan samarali foydalanish. portal.guldu.uz

6. <https://zenodo.org/records/7818903>
7. https://d2co7bxjtnp5o.cloudfront.net/media/documents/soff_7404_Insert%20metodi.pdf

SHAXSNING SIFATLARI VA TARBIYA YO'NALISHLARI

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va Tabiiy Fanlar Fakulteti Biologiya
yo'nalishi 301-gurux talabasi*

Soyibjonova Dilorom Akromjon qizi

Obidova Niluzar Jo'raqo'zi qizi

Anotatsiya: *Ushbu maqola shaxsning asosiy sifatlari va ularni shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiya metodlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada zamonaviy jamiyatda barkamol, ma'suliyatli va ijodiy shaxsni tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotning diqqat markazida individual va jamoaviy tarbiya, an'anaviy va innovatsion pedagogik yondashuvlar, shuningdek, yosh davrlariga moslashtirilgan tarbiya strategiyalari turadi.*

Анотация: *Эта статья посвящена изучению взаимосвязи между основными качествами личности и воспитательными методами, направленными на их формирование. В статье освещены теоретические и практические аспекты воспитания гармоничной, ответственной и творческой личности в современном обществе. В центре внимания исследования находятся индивидуальное и коллективное воспитание, традиционные и инновационные педагогические подходы, а также адаптированные воспитательные стратегии для различных возрастных периодов.*

Anotation: *This article is dedicated to exploring the interrelationship between the main qualities of an individual and the educational methods aimed at shaping them. The article elucidates the theoretical and practical aspects of educating a well-rounded, responsible, and creative individual in modern society. The focus of the research lies in individual and collective education, traditional and innovative pedagogical approaches, as well as educational strategies adapted to different age periods.*

Kalit so'zlar: *shaxs rivojlanishi, barkamollik, tarbiya metodologiyasi, pedagogik strategiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, individual yondashuv, ijtimoiylashtirish, qadriyatlar tizimi, kompetensiya, innovatsion pedagogika.*

Ключевые слова: *развитие личности, гармоничное развитие, методология воспитания, педагогическая стратегия, духовно-нравственное воспитание, индивидуальный подход, социализация, система ценностей, компетенция, инновационная педагогика.*

Key words: *personality development, harmonious development, educational methodology, pedagogical strategy, spiritual and moral education, individual approach, socialization, value system, competence, innovative pedagogy.*

Oliy Ta'lim Tizimida Shaxs Sifatlari va Tarbiya Yo'nalishlari: Zamonaviy Talablar va Pedagogik Yechimlar

KIRISH

Zamonaviy jamiyat talablari doimiy o'zgarib turgan sharoitda oliy ta'lim tizimi nafaqat mutaxassis tayyorlovchi, balki barkamol, ma'naviyatli va ijodiy shaxsni shakllantiruvchi tizim sifatida funksiyasini oshirmoqda. Global raqobat sharoitida, bilim iqtisodiyotining rivojlanishi bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining mas'uliyati ham ortmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi oliy ta'lim tizimida shaxsning asosiy sifatlarini shakllantirish va unga ta'sir etuvchi tarbiya yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, bu jarayonning samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganishdan iborat.

ASOSIY QISM

1. Zamonaviy oliy ta'lim talablarining o'zgaruvchan tabiati

XXI asrda oliy ta'lim nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki quyidagi universal kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi:

- Tangidiy fikrlash va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati
- Kommunikativlik va jamoada ishlash ko'nikmalari
- Kreativlik va innovatsion yondashuv
- Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish
- Raqamli savodxonlik va ma'lumotlarni tahli qilish
- Moslashuvchanlik va umrbod o'rganishga tayyorgarlik

2. Oliy ta'limda shaxsning asosiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik asoslari

Talabalarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Quyidagi sifatlar ustuvor ahamiyatga ega:

- Barkamollik - intellektual, ma'naviy, jismoniy va estetik jihatlarining uyg'unligi
- Ma'suliyatlilik - o'z qarorlari va harakatlari uchun javobgarlik tuyg'usi
- Ijodkorlik - an'anaviy chegaralardan tashqarida fikrlash qobiliyati
- Ma'naviyat - axloqiy qadriyatlar va fuqarolik pozitsiyasining mavjudligi
- Ijtimoiylik - jamiyat bilan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish

3. Tarbiyaning innovatsion yo'nalishlari va metodologiyalari

Oliy ta'limda samarali tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhimdir:

3.1. Individual yondashuv asosida tarbiya

- Talabalarning shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta'lim-tarbiya rejalarini ishlab chiqish
- Mentorlik va kouching tizimlarini joriy etish
- Talabalarning shaxsiy o'sishini kuzatish va baholash tizimini yaratish

3.2. Liderlik va jamoa tarbiyasi

- Talabalarning boshqaruv va jamoa ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish
- Liderlik sifatlarini namoyon qilish uchun loyiha va amaliy faoliyat platformalarini yaratish
- Xalqaro talabalar almashinuv dasturlari orqali ko'p madaniyatli muhitda ishlash tajribasini berish

3.3. Ma'naviy-axloqiy tarbiya

- Fan-axloqiy kurslar va seminarlar o'tkazish
- Madaniy merosni o'rganish va uni qadrlash hissini shakllantirish
- Ijtimoiy mas'uliyat va mehnat etikasi asoslarini o'rgatish

3.4. Innovatsion pedagogik yondashuvlar

- Faol o'qitish metodlari (loyihalar, vaziyatli o'qitish, rolli o'yinlar)
- Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish
- Amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish (stajirovkalar, amaliy loyihalar)

4. Tarbiyaning tashkiliy-methodik ta'minoti

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi shartlar zarur:

- Tarbiyaviy ishlar strategiyasini ishlab chiqish va uni oliy o'quv yurtining missiyasi bilan uyg'unlashtirish

- O'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish (tarbiyaviy metodologiya bo'yicha malaka oshirish kurslari)
- Talabalar o'zini-o'zi boshqarish organlarini faollashtirish
- O'quv-tarbiya jarayonining natijalarini baholashning kriterial tizimini ishlab chiqish

Shaxs jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, uning rivoji va shakllanishi jamiyatning madaniy, ijtimoiy va ma'naviy darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shaxsning sifatleri uning aqliy, axloqiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini aks ettiradi. Tarbiya esa shaxsni hayotga tayyorlash, jamiyat qadriyatlariga moslashtirish va insonning ijobiy fazilatlarini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiya tizimining samarali bo'lishi shaxsning mukammal kamol topishida asosiy omil hisoblanadi. Shaxsning shakllanishida oilaviy muhit, maktab ta'limi, do'stlar va jamiyat muhitining roli katta bo'lib, ularni hisobga olgan holda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs tushunchasi va uning asosiy sifatleri.

Shaxsning asosiy sifatleri

Intellektual sifatlar: Shaxsning fikrlash qobiliyati, xotirasi, e'tibori va kreativligini o'z ichiga oladi.

Biologik sifatlar: Shaxsning jismoniy xususiyatlari va salomatligi bilan bog'liq jihatlaridir.

Ijtimoiy sifatlar: Shaxsning xulq-atvori, boshqalar bilan munosabatlari, ijtimoiy faolligi va madaniy jihatdan shakllanishini qamrab oladi.

Tarbiya yo'nalishlari:

Ta'lim: Ta'lim orqali shaxs bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, bu uning intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

Ijtimoiylashuv: Shaxsning jamiyatga moslashishi, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni o'zlashtirishi ijtimoiylashuv jarayoni orqali amalga oshadi.

Psixologik rivojlanish: Shaxsning o'zini anglash, hissiyotlarni idrok etish va boshqarish qobiliyati ham tarbiyaning muhim qismidir. Shaxs – bu ongli ravishda faoliyat yuritadigan, o'z qarashlari va xulq-atvorini boshqaradigan, jamiyat bilan faol aloqada bo'ladigan inson. Shaxsning sifatleri uning tabiiy imkoniyatlari va ijtimoiy tajribasi orqali shakllanadi. Aqliy sifatlar shaxsning fikrlash qobiliyati, mantiqiy tahlil qilish, ijodiy yondashuv va muammoni hal etish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Axloqiy sifatlar insonning halolligi, vijdoni, mas'uliyatlilik va odobxloq qoidalariga rioya qilishi bilan ifodalanadi. Irodaviy sifatlar shaxsning maqsad sari intilishi, sabr-toqat, o'zini boshqarish va qaror qabul qilish qobiliyatini o'zida mujassam etadi. Ijtimoiy sifatlar esa shaxsning jamiyatda muloqot qilish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va jamoaviy faoliyatga moslashish qobiliyatini aks ettiradi. Shu bilan birga, estetik va madaniy sifatlar shaxsning san'at va go'zallikka bo'lgan qiziqishi, nafislik va didga e'tiborini oshiradi.

Inson aqliy jihatdan rivojlanishida avval unda jismoniy jihatdan rivojlangan bo'lishi(jismoniy nogironlik albatta bundan mustasno) lozim . Ota-onadagi ba'zi xususiyatlar bolaga tabiiy ravishda ko'chadi va bu bolada rivojlanish jarayonining tez yoki sekinroq kechishiga bog'liq. Ammo gendan o'tgan har qanday qobiliyat yanada rivojlantirilib, to'g'ri yo'nalishga yo'naltirilmasa, bu qobiliyat so'nib borishi yoki salbiy ta'sirlar ko'rsatishi mumkin. Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insondagi ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishyo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi. Inson shaxs sifatidakamol topishi uchun avvalo undagi tarbiya mustahkam bo'lmog'i hamda to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Buning uchun avvalo oilada ota-ona ma'sul shaxs hisoblansa, eng asosiy tarbiya tarbiya beruvchi shaxs yetuk malakali pedagogdir. Ota-ona bolaga umumiy tartibintizom borasida o'rnak bo'lib tarbiyalaydi. Bu paytda bolaga nutq bilan ta'sir etishdan ko'ra o'rnak bo'lish yoki bolani to'g'ri qilgan har bir ishini e'tiborga olib uni keraklicha rag'batlantira olishi kerak. Shundagina bolada dastlabki tarbiyashakllari rivojlana boshlaydi. [Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy,axloqiy, estetik jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Bola maktabga qadam qo'yar ekan, o'quv mehnati bilan band bo'la

Bu unda mehnat tarbiyasining shakllanishida muhim

«Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyaomil hisoblanadi. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash

bilan bir qatorda ularda asta-sekin dunyoqarash rivojlanib boradi.]³ Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, maktab davrida olingan tarbiya bolada butun umr saqlanib qoladigan bosqich hamda hayotga tayyorgarlik darajasini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Tarbiya olish jarayonida jamoada olinadigan tarbiyaning ham o'z o'rnini bor. Biz tarbiya olish imkonini bo'lgan jamolarni tartiblab chiqamiz:

- Oila jamoasi

- Bog'cha jamoasi(keyingi paytda bolalarni bog'chaga qamrab olish darajasi kengaygani bois bolalar maktabgacha bo'lgan tarbiyani aynan shu maskandayoq olishni boshlamoqda)
- Maktab jamoasi

- Do'stlar jamoasi

- Hamkasblar jamoasi

Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari. Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Aqliy tarbiya shaxsning bilimni oshirish, tafakkurini rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'nalishning samarali bo'lishi uchun o'quv jarayonida ilmiy asoslangan metodlar qo'llanilishi, mustaqil fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish muhimdir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya insonning odob-axloq me'yorlariga, milliy qadriyatlarga, insonparvarlik fazilatlariga sadoqatini oshiradi. U oilada, maktabda, ijtimoiy muhitda amalga oshiriladi va shaxsning ma'naviy mukammalligiga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya shaxsning sog'lom turmush tarzini rivojlantiradi, sport bilan muntazam shug'ullanish orqali jismoniy chidamlilik, barkamollik va sog'lom odatlarni shakllantiradi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatga hurmatni, mas'uliyatni his qilishni va kasb tanlashda ongli qaror qabul qilishni o'rgatadi. Estetik tarbiya san'at va go'zallikni qadrlashni, nafislikni anglashni va estetik didni rivojlantiradi. Shu bilan birga, yuridik va fuqarolik tarbiyasi shaxsni qonunlarga hurmat qiladigan, jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan fuqaro sifatida shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda shaxsning sifatleri va tarbiya yo'nalishlari bir-birini to'ldiradi va insonning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Aqliy, axloqiy, ijtimoiy, irodaviy, jismoniy va estetik sifatlarning uyg'un rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining kafolatidir. Tarbiya jarayoni tizimli va maqsadli bo'lganda shaxs mukammal kamolga yetadi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi.

Shu bilan birga, tarbiya jarayoni shaxsning ichki dunyosini boyitadi, unga qaror qabul qilishda mustaqillik va o'zini anglash imkoniyatini beradi. Shaxsning sifatlerini rivojlantirishdagi tizimli yondashuv esa kelajak avlodni ma'naviy, aqliy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch Toshkent Ma'naviyat 2008
- 2G'oziev E. Umumiy psixologiya Toshkent O'qituvchi 2010
- 3Yo'ldoshev J. Hasanboev J. Pedagogika nazariyasi asoslari Toshkent Fan va texnologiya 2014
- 4Zunnunov A. Pedagogika va psixologiya asoslari Toshkent TDPU nashriyoti 2019
- 5O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA TRANZITIVLIK VA FE'L VALENTLIGINING TILLARARO O'RGANILISHI

Xurramova Ruxsora Jamshid qizi

Ilmiy rahbar: Furkatova Makhliyo To'liqinova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida fe'l valentlilik kategoriyasining ifodalanish xususiyatlari sintaktik va semantik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tipologik jihatdan farqlanuvchi ushbu ikki tilning strukturasida valentlilikning namoyon bo'lishi turlicha vositalarga asoslanishi ta'kidlanadi. O'zbek tilida fe'lning o'timlilik kategoriyasi morfologik, leksik hamda sintaktik vositalar orqali ifodalansa, ingliz tilida ushbu kategoriya asosan leksik va semantik vositalar bilan amalga oshishi ilmiy asosda yoritiladi. Mazkur tadqiqot ikki tilning qiyosiy tahlili orqali valentlilikning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga qaratilgan.*

: fe'l, to'ldiruvchi, ingliz tili, o'zbek tili, o'timli fe'l, valentlik. O'zbek tilida o'timli fe'l.

Fe'l- gapda kesim funksiyasini bajaruvchi markaziy grammatik kategoriya bo'lib, harakat, holat va jarayonni ifodalaydi. Bu so'z turkumi deyarli barcha tabiiy tillarda mavjud bo'lib, har bir til o'zining morfologik va sintaktik tuzilishiga mos ravishda fe'l so'z turkumini ifodalashda turlicha yondashadi. Fe'llar semantik tuzilishiga ko'ra bir necha guruhlarga ajratiladi, ularning eng muhimlaridan biri fe'lning o'timli-o'timsiz turlarga bo'linishidir. O'zbek tilida o'timli fe'lning o'z ma'nosi tuliq yuzaga chiqishi uchun majburiy tarzda tuldiruvchi talab qiladi, ya'ni fe'llar ob'ektga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri o'tgan harakatni bildiradi va vositasiz tuldiruvchi bilan bog'lanadi (Muhiddinov, 2004). Shuningdek, o'timli fe'l bildirgan harakat ob'ekt tushunchasi bilan bog'lanadi va bunda ob'ektni ifodalovchi birlik tushum kelishigidagi so'z bo'ladi. Fe'lning o'timli yoki o'timsiz ekanligi unga qo'shilib keladigan morfologik vositalar orqali belgilanadi. Bunda nisbat yasovchi affikslar muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni orttirma nisbat affikslari o'timsiz fe'lni o'timliga aylantirish mumkin, masalan, oq-oqqiz, kel-keltir. O'zlik va majhul nisbat affikslari esa o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi: och-ochil (Turniyozov, 2006). Ba'zan mustaqil fe'l tarkibida nisbat qo'shimchalari ketma-ket qo'shilib kelsa, fe'lning o'timli-o'timsizligi oxirgi nisbat yasovchi qo'shimchaga qarab belgilanadi: kel-o'timsiz, keltir-o'timli, keltiril-o'timsiz.

Ingliz tilida fe'lning o'timliliigi(transitivity).

Ingliz tilida fe'lning o'timliliigi fe'lda anglashinilgan ma'noning boshqa predmetga qaratilganligini, biror ob'ektga ko'chganligini hamda shu harakatning yuzaga kelishi uchun boshqa predmatning ishtirok etishiga qarab bo'linadi (Buronov, 1974). Boshqacha aytganda, fe'ldagi ish-harakat birorta shaxs yoki

buyumga o'tilishi va, o'zidan keyin vositasiz tuldiruvchi qabul qiladigan fe'llarga o'timli fe'llar deyiladi. Ingliz tilining semantik sathida o'timlilik deganda fe'l bilan ifodalangan ish-harakat aktivdan passivga, subyektdan ob'ektga o'tilishi tushuniladi. (Buronov, 1974). Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ayrim fe'llar ma'lum bir predloglar bilan qo'shilib, o'timlilik ma'nosini anglatishidir, bunday fe'llar ma'lum bir predloglar bilan doimiy bog'lanib, asosan yo'nalishni ko'rsatuvchi fe'llargina kiradi. Masalan: to wait for, to look at, to depend on, to fly over. Bulardan tashqari, o'zlik olmoshlari: oneself, myself, yourself, ourselves bilan kelgan fe'llar ham o'timli fe'l hisoblanadi (Buronov, 1974). Biroq, ingliz tilida fe'llarning umumiy kelishikdagi so'zi otga predlogsiz qo'shilishi bilan o'timlilikning predlogsiz va ko'makchisiz ifodalanishiga erishiladi (Buronov, 1974). Predlogli o'timli fe'llarga about, after, at, for, on, of, to, with, over, through, before, against, between kabi predloglarni olgan fe'llar kiradi.

Ingliz tilida fe'lning valentligi.

Valenlik tushunchasi, asosan, nemis tilshunosi L. Tesniyor tomonidan ishlab chiqilgan, u fe'lni gapning yadrosi, argumentlarni esa uning atmosferasi sifatida talqin qilgan. Bu nazariya, ya'ni valenlik gaplar tarkibida o'zaro aloqaga kirishgan bo'laklarning mutunosibligi va almashinuvi haqida, bunda, avvalo, fe'l so'z turkumi, uning boshqa so'z turkumlari bilan biriktiruvchanlik xususiyati, gap tuzulishidagi muhim ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Ingliz tilida valenlik fe'llar to'rtta asosiy guruhga bo'linadi. Birinchisi, Nol valent fe'llar (zero valent verbs), ular semantik jihatdan formal subektdan tashqari hech qanday ishtirokchi talab qilmaydi. Keyingisi, Ikki valentli fe'llar (two valent verbs) ingliz tilida eng keng tarqalgan valenlik turlaridan biridir, ya'ni Subyekt+Obyekt fe'lning semantik va sintaktik strukturasi obyektning mavjudligini talab qiladi. Uch va to'rt valenlik fe'llarda (three and four valent verbs) esa, murakkabroq sintaktik struktura yaratiladi, masalan, uch argument – subyekt, bilvosita obyekt va to'g'ridan to'g'ri obyekt ishtirokini talab qilinib, berish, aytish va ko'rsatish kabi semantik jarayonlarga asoslanadi. Ba'zan, ingliz tilida semantik jihatdan fe'lning valentligi argument soni bilan emas, balki argumentlarning roli (semantic roles) bilan ham o'lchanadi. Bunda, asosiy semantik rolda ega, to'ldiruvchi, hol va albatta kesim kabi so'z turkumlari talab qilinadi.

O'zbek tilida valenlik

Fe'l turkumidagi so'zlarning valenlik xususiyati ularning boshqa so'zlar bilan bog'lanish imkoniyatini aniqlaydi. Fe'lning valentligi gapda sintaktik strukturani shakllantirishda asosiy omillaridan biri bo'lib, uning turli konstruksiyalarida namoyon bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi, va bu sintaktik jihatdan tahlil qilinib gapda turli son, to'ldiruvchi, hol hamda ega kabi bo'laklarni talab qilishi aniqlangan (Ro'ziqulov, 2018). Masalan, o'zbek tili "yemoq" fe'li ikki valenlik bo'lib, u ega va to'ldiruvchi talab qiladi; U non yedi. Semantika nuqtai nazarda esa fe'lning ma'nosiga bog'liq ravishda so'zlar bilan bog'lanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi, masalan,

o'qimoq fe'li bilim olish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, to'ldiruvchi sifatida kitob, dars, maqola kabi so'zlarni talab qiladi. Ba'zan, fe'llar uch va undan ortiq valentlikka ega bo'lishi yoki hech qanday argument talab qilmasligi kuzatilib, bunday fe'llar ko'p va nol valentlik deb yuritiladi. Biroq, fe'lning valentligi kontekstga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan. Masalan, yozmoq fe'li oddiy holatda ikki valentlik bo'lsa ('Men maktub yozdim'), ba'zi hollarda uch valentlik bo'lishi ham mumkin ('Men ukamga maktub yozdim'), (Pardaev, 2018). O'zbek tilida valentlikning aniqlanishi orqali gap strukturasini aniq va izchil tahlil qilish mumkin.

XULOSA

Fe'lning valentlik hamda o'timlilik kategoriyasi tilshunoslining muhim jihatlaridan biri bo'lib, gap tuzulishida hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Fe'lning valentligi har ikkala tillarda ham gap bo'laklari bilan bog'lanish tizimini belgilaydi va shu jihatdan u gapning strukturaviy yaxlitligini ta'minlaydi, ya'ni fe'lning talab qilgan argumentlar soni, ularning sintaktik va semantik rollari gapning umumiy ma'nosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'timlilikda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki ikki tilning ifoda planida turli yasurlarda turlicha ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida predloglar hamda aktiv va majhul nisbatlari yetakchi bo'lsa, o'zbek tilida kelishlar va so'z yasovchi affikslar asosiy rolni bajaradi. Fe'lning o'timlilik va valentlik kategoriyasi ikki tilni qiyosiy o'rganishda nafaqat sintaktik balki semantik jihatdan ham muhim ko'rsatkich bo'lib, gap strukturasini shakllantirishiga, ma'no munosabatlarining aniqlashishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Bo'ronov, J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973.
2. Buranov, J., Hashimov, U., & Ismatullayev, H. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1974.
3. Muxitdinova, X. S., Xudoyberganova, D., Umirov, I., Jiyanova, N., & Yusupova, T. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
4. Ro'ziqulov, Sh. Fe'lda valentlik. – O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2018, №4, 45–52.
5. Pardaev, I. O'zbek tilida valentlik masalasi. – Filologiya masalalari, 2019, №2, 60–66.
6. Turniyozov, N., & Rahimov, A. O'zbek tili. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2006

TOPONIMIKANING MOHIYATI VA TERMINOLOGIK TUSHUNCHALAR XUSUSIDA (XITOIY TILSHUNOSLIGI MISOLIDA)

Norbo'tayev Shahrux To'ra o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimika fanining mohiyati, uning asosiy terminologik tushunchalari hamda xitoy tilshunosligida toponimlarni o'rganish masalalari yoritilgan. Xitoy toponimikasi taraqqiyotining tarixiy bosqichlari, asosiy tadqiqot yo'nalishlari, toponimlarning semantik, struktur va lingvokulturologik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, xitoy toponimlarining jamiyat tarixi, madaniyati va milliy tafakkuri bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: toponimika, toponim, xitoy tilshunosligi, terminologiya, geografik nomlar, lingvokulturologiya.

Toponimika – tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo'lib, geografik obyektlar nomlarini, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti, semantik va struktur xususiyatlarini o'rganadi. Har bir xalqning toponimlari uning tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi, ijtimoiy hayoti, madaniyati va dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli toponimika nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya, etnologiya va madaniyatshunoslik fanlari bilan ham uzviy aloqador hisoblanadi.

Xitoy toponimikasi o'zining qadimiyligi, tizimliliigi va boy manbalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xitoy hududida ming yillar davomida shakllangan shahar, daryo, tog', viloyat va boshqa geografik obyektlar nomlari bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Bu esa xitoy toponimikasini chuqur ilmiy tadqiq etishni talab qiladi.

Toponimika (yunoncha topos – “joy”, onoma – “nom”) joy nomlarini o'rganuvchi fan sifatida shakllangan. U geografik obyektlarning nomlanish qonuniyatlari, tarixiy rivoji, semantik o'zgarishlari va struktur tuzilishini tadqiq etadi.

Toponimika quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- toponimlarning kelib chiqishi (etimologiyasi);
- ularning fonetik va grammatik xususiyatlari;
- tarixiy qatlamlari;
- madaniy va lingvokulturologik mazmuni.

Toponimlar faqat joyni nomlash vositasi emas, balki ma'lum tarixiy voqealar, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, diniy qarashlari va mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Shu sababli toponimika jamiyat tarixini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Toponimika doirasida bir qator terminologik tushunchalar mavjud bo'lib, ular toponimlarning turlarini aniqlashga xizmat qiladi:

- Toponim – har qanday geografik obyektning atoqli nomi (shahar, daryo, tog`, ko`l, qishloq va boshqalar).

- Oronim – tog`, tepalik, qoya kabi relyef obyektlari nomlari.

-Gidronim – daryo, ko`l, dengiz, soy nomlari.

- Oykonim – aholi yashash joylari (shahar, qishloq, posyolka) nomlari.

- Xoronim – yirik hududlar, davlatlar, viloyatlar, tarixiy o`lkalar nomlari.

- Urbanonim – shahar ichidagi obyektlar (ko`cha, maydon, mahalla) nomlari.

Bu terminlar xitoy toponimikasida ham faol qo`llanib, ilmiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo`lib xizmat qiladi.

Xitoy toponimikasi juda qadimiy tarixga ega. Eng qadimgi xitoy geografik nomlari miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. Xitoy tarixida sulolalar almashinuvi, urushlar, siyosiy islohotlar, aholi ko`chishi toponimlar tizimiga kuchli ta`sir ko`rsatgan.

Masalan:

北京 (Beijing) – “Shimoliy poytaxt”,

南京 (Nanjing) – “Janubiy poytaxt”,

长江 (Changjiang) – “Uzun daryo”,

黄河 (Huanghe) – “Sariq daryo”.

Bu nomlar xitoy toponimlarining asosiy xususiyatlaridan biri – semantik shaffoflikni ko`rsatadi. Ya`ni xitoy toponimlarining aksariyat qismi o`z ma`nosini ochiq saqlab qolgan.

Xitoy toponimlari asosan ikki asosiy xususiyat bilan ajralib turadi:

a) Semantik xususiyatlari

Xitoy toponimlari ko`pincha:

geografik joylashuv (sharq, g`arb, shimol, janub),

tabiiy obyektlar (tog`, daryo, cho`l),

rang nomlari,

tarixiy shaxslar nomlari asosida yaratiladi.

Masalan:

山东 (Shandong) – “Tog`ning sharqi”,

湖南 (Hunan) – “Ko`ning janubi”,

黑龙江 (Heilongjiang) – “Qora ajdaho daryosi”.

b) Struktur xususiyatlari

Xitoy toponimlari asosan ikki yoki uch iyeroglifdan tashkil topadi:

aniqllovchi + obyekt nomi

masalan: 黄河 (sariq + daryo), 青山 (yashil + tog`).

Bu holat xitoy toponimikasining qat`iy grammatik va semantik tizimga ega ekanligini ko`rsatadi.

Xitoyda toponimlar faqatgina geografik tushuncha emas, balki milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir toponim o`zida:

tarixiy voqealar,
afsonalar,
diniy e`tiqodlar,
davlat mafkurasi
bilan bog`liq ma`lumotlarni saqlaydi.

Masalan, 泰山 (Taishan) tog`i xitoy xalqining muqaddas tog`laridan biri bo`lib, u imperatorlik hokimiyati, osmon bilan aloqa va barqarorlik timsoli sifatida qaraladi. Bu toponim madaniy konsept darajasiga ko`tarilgan.

Toponimika tilshunoslikning muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib, u til, tarix, madaniyat va geografiya tutashgan nuqtada shakllangan fan sifatida muhim ahamiyatga ega. Xitoy toponimikasi esa o`zining boy tarixi, semantik shaffofligi va struktur tizimliliigi bilan alohida ajralib turadi. Xitoy toponimlari orqali xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tafakkuri namoyon bo`ladi. Shu sababli xitoy toponimikasini o`rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy jihatdan ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 张国强. 汉语地名文化研究 (Xitoy toponimlarining madaniy tadqiqi). — 上海: 上海人民出版社, 2018.
2. 李如龙. 中国地名学概论 (Xitoy toponimikasi asoslari). — 北京: 商务印书馆, 2015.
3. Rahmatullayev Sh. O`zbek tilshunosligi asoslari. — Toshkent: Fan, 2009.
4. Mirzayev T. O`zbek toponimikasi. — Toshkent: O`qituvchi, 2011.
5. Qosimova D. Lingvokulturologiya asoslari. — Toshkent: Universitet, 2020.
6. Karimov I. O`zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi. — Toshkent: Ma`naviyat, 2015.

ZAMONAVIY KIIYIM MODELLARIDA MILLIY BEZAK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna

Termiz davlat pedagogika institute

Texnologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi

Hayitmurodova Sevinch Faxriddin Qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi III-kurs talabasi

Jahon Otin Uvaysiy hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar bizga tazkiralari orqali yetib kelgan. Jumladan "Majmuai shoiron"da ham Uvaysiy haqida ma'lumotlar uchraydi. Shoir ijodi XX asrning 30-yillaridan boshlab A.Qayumov, T.Jalolov, I.Haqqulov, E.Ibrohimova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Uvaysiy kabi ayol shoiraning ijodiy yetilishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi o'z-o'zidan katta ijtimoiy-badiiy hodisadir. Ma'lumki, mashhur shaxslar, jamiyat e'tiborida bo'lgan kishilar haqida xalq orasida hikoyatlar, rivoyatlar uchraydi. A.Abdug'afurovning yozishicha, bu kabi og'izdan og'izga ko'chib kelayotgan hikoyatlarning barchasida Uvaysiyga nisbatan iliq fikrlar uchraydi. Shoir zakovatli, jasoratli, hozirjavob, pokiza ayol sifatida talqin etiladi. Olimning fikriga qo'shilgan holda, To'xtasin Jalolovning "O'zbek shoiralari" to'plamidagi Uvaysiy haqidagi qarashlarni keltirish o'rinli. Unda dramaturg G'ulom Zafariydan yozib olingan hikoyada Uvaysiy tirishqoq, maqsadi yo'lida harakatdan to'xtamaydigan, zukko ayol obrazida gavdalantiriladi. Amiriy saroyidagi adabiy kechalar, mushoiralar o'tkazilishidan xabar topgach, Qo'qonga borish uchun otasidan qayta-qayta izn so'raydi. Qizi she'riyatning chin ixlosmandi ekanini ko'rgach, otasi uni Qo'qondagi do'stining uyiga jo'natadi.

Uvaysiy sohibi devon shoira hisoblanadi. Bu maqomga shoirlar orasida juda kam ijodkorlar erishgan. Uvaysiydan bizga 269 g'azal 29 muxammas 55 musaddas, 1murabba, chistonlar, 3doston va tugallanmagan manzuma yetib kelgan. Olimga ko'ra, Uvaysiyning ijodiy kamolotida Navoiy va Fuzuliyning ta'siri katta bo'lgan. Ushbu xulosa ikkala shoir g'azallariga bog'langan o'nlab taxmislarda o'z tasdig'ini topadi.

G'azal va muxammaslar shoira ijodida yetakchi janr hisoblanib, ularda an'anaviy mavzu – ishq qalamga olinadi. Shoira real hayot, insoniy munosabatlar, his-tuyg'ular, orzu umidlar, ruhiy kechinmalarni ta'sirchan obraz va rang-barang bo'yoqlarda tarannum etadi. G'azallar markazida esa "suyukli yor" siymosi turadi. Lirik qahramon esa, fidoyi oshiq, o'z sevgisiga sodiq, chin vafodor.

Shoira ijodida "ayollargagina xos til"da yozilgan g'azallar mavjud. "Ayrim muayyan o'rinlarda shoira obrazlarni individuallashtirish darajasiga yaqinlashadi..." [1, 166]

Mani jamolingga ko'p zor qilma aylanayin!

Qilibki, zor yana xor qilma, aylanayin!

baytida mehr-muhabbat, erkalash, shirinsuxanlik, yoki aksincha, ayol qahri, nafrat, alami mujassamlashgan baytlarga guvoh bo'lamiz:

Puti sinsun! Qo'li sinsun! Borib aytib kelgan el

Yetmasin maqsadiga! Qildi yuragim to'la qon.

Shoira ijodida ijtimoiy ruh, xalqona uslub yetakchi o'rinni egallaydi. Hayot qiyinchiliklari, zamonadan shikoyat mavzusidagi g'azallari bisyor.

Barchaga mashhur Uvaysiymen radifli g'azalida:

Mehnat-u alamlarga muhtalo Uvaysiymen,

Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiymen.

Yoki,

Qay biriga yig'laram! Har yonda baxti qoralik,

Manga yuz ko'rguzdi olam ichra avvoralik

deb yozg'iradi. A. Abdug'afurov izlanishlarida bu jihatni ham ko'zdan qochirmaydi:

"Tuzumga kuchli aybnoma sifat jaranglovchi bunday parchalarni baholashda unutmaylikki, ular laganbardor saroy shoirlari tomonidan o'sha zamonani ulug'lab, turli-tuman shakllarda son-sanoqsiz balandparvoz madhiya-qasidalar to'qiyotgan bir sharoitda yaratilgan. Bu – Uvaysiy ijodining ilg'or g'oyaviy yo'nalishi va chuqur xalqchil mohiyatidan, ayni zamonda shoiraning katta fuqarolik jasoratidan aniq darak beradi." [1, 169]

Ammo bir narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, Uvaysiy she'riyatini to'la norozilik, tushkunlik, shikoyat kayfiyatida emas, balki mavjud dunyoni birdan bir naqd bilib uni qadrlashi, uning lazzatlaridan bahramand bo'lishga undagan misralar ham talaygina. "Bunday hayotsevarlik, – deb yozadi – nekbinlik ruhi, ayni

zamonda, munofiq din arboblari zo'r berib targ'ib etayotgan jaholat va tarkidunyochilik safsatalariga ham zid tushgan. Shu muhimki, shoira hayotga, atrof-muhitga teran nazar bilan qaraydi, har bir voqea, hodisani chuqur tahlil etib, ularga o'z bahosi, o'z munosabati, o'z o'lchovi bilan yondashadi." [1,170] Masalan,

Do'st kulbama qo'ydi qadam—shodu xurramman bu kun!

Gardi poyi—toj bar sar, balki sultonman bu kun!

G'am nari tur! Shodlik taxtida mehmonman bu kun!

Shoiraning ijod qamrovi keng.U g'azal, murabba, dostonlar yozish bilan bir qatorda chiston janrining ham ustasidir. Olim Uvaysiyning mahoratini quyidagicha baholaydi:

"...Muhimi shundaki, shoira uchun chiston mavhum so'z o'yini yoki vaznga tushirilgan oddiy jumboq-topishmoq emas, balki, birinchi galda jiddiy ijtimoiy mavzularni, ma'lum tarbiyaviy mag'zni, xalq donoligini badiiy ifodalash vositasidir. Xuddi shuning uchun ham u Uvaysiy ijodining xalqchil va realistik yo'nalishini, folklor bilan mustahkam aloqasini ko'rsatuvchi bir janr bo'lib qoldi." [1,170]

Adabiyotshunos shoira ijodidagi obrazlar haqida fikr yuritar ekan, u qo'llagan "g'azab daryosi", "hasrat tuxmi", "kulfat o'qi", "siniq ko'ngul", "dil diydasi", "alam sog'ari", "g'am lashkari", "sabr maktabxonasi" kabi o'xshatishlar shoira qalbidagi iztirob va kayfiyatni ifodalovchi vosita ekanini aytadi.

Abdurashid Abdug'afurovning "Nodira va Amiriy" nomli maqolasida o'zbek adabiyotining ikki yorqin vakili – Mohlaroyim Nodira va Umarxon Amiriyning ijodiy faoliyati, shaxsiy hayoti va o'zaro munosabatlari, juftlik merosidagi umumiy jihatlar, yakdilliklar, ijodiy hamkorlik atroflicha tahlil etiladi.

A.Abdug'afurovning e'tiroficha, Nodira va Amiriy bir qancha umumiy jihatlarga ega bo'lgan. Har ikkisi ham o'z davri adabiyotining yirik namoyandalari, she'riy devonlar tuza olgan ijodkorlar, xalq tarixi va ijtimoiy-siyosiy hayotida sezilarli iz qoldirgan bilimdon va tadbirkor davlat arboblari bo'lishgan. Shuningdek, ular adabiyot, san'at, madaniyat va hunar ahliga homiylik qilib, ilm-fan rivojiga, maktab-madrasalar qurilishiga e'tibor qaratganlar. Ikki tilli ijodkor sifatida forsiyda ham yetuk badiiy asarlar yaratganlar. Bu fikr Nodira va Amiriyning nafaqat iste'dodli ijodkorlar, balki o'z davrining keng qamrovli ziyolilari bo'lganligini tasdiqlaydi.

Ma'lumki, Amiriy saroyida adabiy kechalar o'tqizib, mushoira aytish odatga aylangan:

Nega arbobi xirad ahli junundan ori bor?

Kim bular uryon alarning jubbayi dastori bor.

Yuqorida keltirilgan bayt ham mushoira tarzida, ya'ni birinchi misrasi Amiriy, ikkinchisi esa Nodira tomonidan yozilgan. Ammo, bu g'azal Nodira devonida uchramaydi. Ma'lumki, Amiriy Nodiradan avvalroq devon tartib bergan va ushbu bayt bilan boshlanuvchi g'azalni yaxlit holda tugatib devoniga kiritgan.

Nodira she'riyatining asosini lirika tashkil etadi. Shoira g'azallarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil an'analarini davom ettirib, mumtoz adabiyot qoiadalariga amal qilgan. Ijodining asosiy mavzusi – muhabbat, sadoqat, vafo. A.Abdug'afurovning tadqiqida, Nodiraning ijodiy faoliyati ikki asosiy bosqichga bo'linadi: birinchi bosqich – Amiriyning vafotiga qadar (1822 yilgacha) va ikkinchi bosqich – undan keyingi yigirma yillik davr. Nodira o'zining to'la ma'noda shoira sifatidagi faoliyatini aynan Umarxon xonadoni, aniqrog'i, bevosita Umarxonning ustozligi bilan bog'laydi. Olim shu haqida shoira devoniga yozgan debochada keltirgan guvohligini dalil sifatida keltiradi: "Ul hazrat (Umarxon)ning latoyifshinor tabiatlari komig'a she'r mazog'i g'olib va ash'or rag'batig'a ko'ngullari rog'ib erdi..." Bu jumla Amiriyning she'riyatga bo'lgan ishtiyoqi va Nodiraga ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. Adabiyotshunosning fikricha, Nodiraning "Umarxon menga she'r bobida ustozlik qildi, yozganlarimni tahrir etib tuzatdi", deganida o'z turmush o'rtog'i va mamlakat hukmdoriga oddiy xushomad qidirish, lutf va sadoqat belgisi deyish, odob yuzasidan hurmat ko'rsatish deb tushunish, batamom noto'g'ri bo'ladi." [1, 174]. Bu fikr Nodira va Amiriyning ijodiy munosabatlarining samimiy va chinakam ilmiy asosga ega bo'lganligini tasdiqlaydi.

Nodira ijodiy faoliyatining ikkinchi davri 1822- yildan, ya'ni Umarxonning vafotidan so'ng boshlanadi. Olimning fikricha, "Yuz bergan fojia shoira turmushini, faoliyat tarzini, ruhiy olamini tubdan o'zgartirib yuboradi. Endilikda Nodira ijodiy ishga, she'riyatga "dil ochish, ko'ngil yorish vositasi, dardlashish, hasratlashish imkoni" deb qaray boshlaydi. Agar birinchi davrda an'anaviy mavzu va romantik ruh ustunlik qilgan bo'lsa, ikkinchi davrda Nodira asarlarining deyarli barchasida "dardchil mazmun va yig'loqi ohang, ayriliqdan nola va judolik azoblaridan fig'ov yetakchi o'ringa ko'tariladi".[1, 181]

Olim, Nodiraning:

Kulbai ehson aro Sulton Umarxon dog'ida,

Sham'dek har kecha tong otquncha o'rta yonaman.

misralarini keltirib, quyidagicha xulosa qiladi:

"Nodiraning bu davrdagi she'riyatining aksariyatida kattagina xonlikning obro'li hukmroni siymosi emas, balki sharqona odob-tarbiya topgan or-hayoli oddiy uy bekasi siymosi gavdalanadi, ular zaminidan qudratli malika xitobi emas, balki yostiqdosh eri ruhiga o'ta vafodor, pokdomon o'zbek ayolining mungli, shikasta ovozi eshitiladi..."[1, 179]

Nodira asarlarida Umarxon Amiriyning uch qiyofada — sevikli yor, yetuk ijodkor va oqil hukmdor sifatida gavdalanadi. Bu tahlil Nodiraning asarlarida nafaqat shaxsiy kechinmalar, balki ijtimoiy-siyosiy holatlarning ham aks etganligini ko'rsatadi. Nodira ijodining birinchi bosqichi an'anaviy tarzda kechgan. Devondan o'rin olgan aksariyat she'rlar ikkinchi bosqichda yaratilgan.

"Amiri jahonkim, menga yor edi,

Aning birla xush davlatim bor edi.

Nodira ijodiy faoliyatining birinchi bosqichi xuddi ana shunday “shod-u xurram” va “xursandchilikda” kechgan yillarga to‘g‘ri keladi. Shoiraning bu davrda yozgan asarlarida an‘ana ustunligi yaqqol seziladi, asosan ishq-muhabbat mavzui visol lazzatlari va hijron uqubatlari talqinida ishlanadi...”[1,179]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, adabiyotshunos olim Abdurashid Abdug‘afurovning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari, xususan Uvaysiy, Nodira, Amiriy kabi ijodkorlar merosi haqidagi tahlillari, ilmiy xulosalari o‘zbek adabiyotshunosligida, ular ijodini yanada teranroq anglashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdug‘afurov, Abdurashid. 1998. Qalb qa‘ridagi qadriyatlar. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Qodirova, Mahbuba. 1972. Amiriy. Devon. Toshkent: Fan.
3. Karimov, G‘ulom. 1987. O‘zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. Toshkent: O‘qituvchi.

SENSOR AFAZIYALI BEMORLARDA NUTQNI TIKLASH BOSQICHLARI**U.M.Utbasarova***Alfraganus universiteti v.b dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sensor afaziya bilan og'riqan bemorlarda nutqni tushunishni tiklashda qo'llaniladigan dolzarb yondashuvlar yoritiladi. Maqolada sensor afaziyaning etiologiyasi, klinik belgilari, tashxislash usullari hamda samarali davolash va reabilitatsiya choralariga batafsil to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Sensor afaziya, ekspressiv, logoreya, akustik buzilish, reabilitatsiya, nutq terapiyasi, klinik tashxis, nevrologik kasalliklar, disleksiya, disgrafiya.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, miya insulti nogironlikka sabab bo'luvchi kasalliklar orasida birinchi o'rinni (40-50%) egallaydi. Insultning eng muhim va keng tarqalgan asorati afaziya bo'lib, u bemorlarning 39,5 foizida kuzatiladi.

Afaziya (yunoncha "a" - inkor qo'shimchasi; "phasis" - nutq) - artikulyatsiya apparati va eshitish qobiliyati buzilmagan holda bosh miya po'stlog'ining lokal shikastlanishi natijasida nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishidir.

Nutq turli jihatlarini o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan yagona funksional tizimdir. U miyaning turli qismlarining hamkorlikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladigan asab jarayonlari majmuasidir. Nutq jarayonlarining o'zi, tor ma'noda tushunilganda, o'ziga xos tarzda tashkil topgan murakkab sensomotor koordinatsiyalar tizimini hosil qiladi. Nutqni idrok etish eshitish va kinestetik analizatorlarning birgalikdagi ishi orqali amalga oshadigan tovush oqimi elementlarining tahlili va sinteziga asoslanadi. So'zlarni talaffuz qilish jarayoni oldingi tajribada shakllangan va o'z ishining afferent asosi sifatida kinestetik hamda eshitish analizatorlariga tayangan muvofiqlashtirilgan artikulyatsion harakatlar tizimidir.

Miya qon aylanishining mahalliy buzilishida nutq buzilishlarining klinik ko'rinishi ko'p hollarda ezilish zonasiga mos keladi, ya'ni:

- oldingi bo'limlardagi o'choq yoki kinetik motor dasturining, yoki nutq ifodasini rejalashtirish va dasturlashning buzilishiga olib keladi;

- o'rta (tepa) qismlardagi o'choq kinestetik motor dasturining buzilishiga sabab bo'ladi;

- orqa bo'limlardagi o'choq eshitish-nutq xotirasining zaiflashishiga, fonematik idrok yoki nutq semantikasining buzilishiga olib keladi. Nutqiy tafakkurni tiklash jarayonida L.V.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan funksiyalar lokalizatsiyasining dinamik xronogen tashkil etilishi tamoyilini hisobga olish muhimdir.

Afaziya nutqni tiklash miya insulti oqibatlarini bo'lgan bemorlarni zamonaviy neyroeabilitatsiya qilishning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Sensor afaziya - nutqiy tafakkurning buzilishi bo'lib, bemorga qaratilgan nutqni tushunishning izdan chiqishi bilan namoyon bo'ladi.

Og'ir darajadagi sensor afaziya nutqni tiklash kompleks yondoshuvni talab qiladi. Bu jarayon bemorda kuzatilayotgan samarasiz nutqni to'xtatish (logoreya) va nutqni tushunishni tiklashni o'z ichiga oladi.

Bemorga quydagi mashqlar tavsiya etiladi.

1. Nutqiy ko'rsatmalarni bajarish.

Bemorga eng oddiy nutqiy ko'rsatmalarni aytamiz. Ular bemor tomonidan mustaqil bajarilishi kerak. Agar u qiyinchilikka duch kelsa, biz uning o'rniga ushbu ko'rsatmalarni bajaramiz (unga namuna ko'rsatamiz), so'ngra ko'rsatmalarni mustaqil ravishda bajarishiga yordam beramiz:

a) eng oddiy nutqiy ko'rsatmalar: Ular bemor tomonidan mustaqil bajarilishi lozim.


- ko'zingizni yuming - ko'zingizni oching;
- og'zingizni oching - og'zingizni yoping;
- qo'lingizni yuqoriga ko'taring - qo'lingizni tushiring;
- qo'lingizni musht qiling/bo'shashtiring va hokazo;

b) kundalik harakatlar bilan bog'liq vaziyatli ko'rsatmalar:

- adyol bilan yopining;
- yostiqni to'g'rilang;
- sochiq bilan artining;
- piyola/qoshiq/tarelkani oling va shunga o'xshash.

2. Syujetli rasmlarga mos yozuvlarni qo'yish.

Bemorga bir juft syujetli rasmni ko'rsatamiz va ularni og'zaki tasvirlaymiz. Rasmlardan biriga yozuv qo'yamiz, uni ovoz chiqarib o'qiymiz va tegishli rasmni ko'rsatishni so'raymiz (1-rasm).

**Rassom rasm chizayapti****Fotograf suratga olayapti**

1-rasm. Sensor afaziyali bemorlar uchun syujetli rasmlar namunasi va ularga yozilgan izoh variantlari

1. Predmetli rasmlarga izoh yozish.

1-topshiriq. "Qayerda ekanligini ko'rsating..." (logoped biror rasmni aytadi, bemor esa uni topib ko'rsatadi).

2-topshiriq. "Rasmlarga izoh yozing..." (mutaxassis bemorga so'z-izohli kartochkalarni taqdim etadi, bemor esa ulardan birini tanlab, rasmga qo'yadi) (2-rasm).

2. Vaziyatga oid savollarga javob berish. Vazifa - bemorning o'ziga qaratilgan nutqqa e'tiborini faollashtirish va so'zning predmet, harakat bilan aloqasini shakllantirish:

- Boshingiz og'riyaptimi?

(ha? (bosh irg'aymiz); yo'q? (bosh chayqaymiz); uning boshiga qo'l tekkizamiz);

- Qorningiz og'riyaptimi? (qorinni silaymiz); yo'q?

(ha? (bosh irg'aymiz); yo'q? (bosh chayqaymiz); qorniga qo'l tekkizamiz);

- Uxlagingiz kelyaptimi? (qo'limizni quloqqa qo'yamiz); yo'q? (ha? (bosh irg'aymiz); yo'q? (bosh chayqaymiz); barmoq bilan yotog'ini ko'rsatamiz);

- Ichgingiz kelyaptimi? (imo-ishorada ko'rsatamiz); yo'q? (ha? (bosh irg'aymiz); yo'q? (bosh chayqaymiz); unga stakanda suv beramiz);

- Ovqat yegingiz kelyaptimi? (imo-ishorada ko'rsatamiz); yo'q? (ha? (bosh irg'aymiz); yo'q? (bosh chayqaymiz); unga biror yegulik taklif qilamiz).

(ha? (qiyamiz); yo'q? (bosh chayqaymiz); unga biror yegulik taklif qilamiz.

Eshitish diqqatini yaxshilash va nutqni tushunishni faollashtirish

Quyidagi topshiriq turlarini tavsiya etamiz:

1. Avtomatlashtirilgan qatorlarni takrorlash.

Avtomatlashtirilgan qatorlarni o'qib beramiz. Bunda sur'at va ritmga e'tibor qaratamiz (ritmni qo'l bilan urib turish maqsadga muvofiq). Maqsad - bemorni ixtiyorsiz ravishda so'zlarni to'liq talaffuz qilishga undashdir.

1 bir dushanba

2 ikki seshanba

3 uch chorshanba

4 to'rt payshanba

5 besh juma

6olti shanba

7 yetti yakshanba

8 sakkiz

9 to'qqiz

10 o'n

2. Nutqiy qatorlarini takrorlash.

Nutqni faollashtirishga qaratilgan materiallarni murakkablashtirish.

a) maqollarni davom ettirishni taklif qilamiz:

Mehnat, mehnatning tagi

Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga

Yeti o'lchab bir.....

b) so'zlar bilan tugallash:

Futbolchi darvozaga to'p.....


Onam eshikni... Qo'shiqchi qo'shiq...

v) so'z birikmalarini yakunlash:

kir.... shirin ... issiq... baland... davolovchi ... dam olish ...

Uy manzili, telefon raqami, F.I.Sh.ni birgalikda talaffuz qilish. Dastlab bemorlar o'zlariga qaratilgan nutqni tushuna olmaydilar va gapira olmaydilar. Yuqorida keltirilgan sxema asosida o'tkaziladigan logopedik mashg'ulotlar natijasida sensor afaziyali bemorda hamroh komponent (sezgi yoki harakat) asta-sekin yo'qolib, asosiy nutq nuqsoni yaqqollashadi. Nutq buzilishlarining ko'rinishi yanada aniqroq ifodalana va bu buzilishlarni tuzatish imkoniyati yuzaga keladi.

<u>Uy</u>	<u>Telefon</u>
<u>Ko'zoynak</u>	Gazeta



**2-rasm. Og'ir sensor afazivali bemorlar uchun predmet rasmlari
namunasi va ularga yoziladigan izohlar**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Архипова.Е.Ф., Курбатова.Ю.В. Организация логопедической работы при афазии в условиях клинического госпиталя ГУВД города Москвы // Логопедия. 2006. №1. С. 42-45.
2. Ахутина.Т.В. Порождение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса. М., 2008.
3. Визель.Т.Г. Как вернуть речь. М. : Секачев, 2005.

4. Дамулин.И.В., Кононенко.Е.В. Постинсультные нарушения и процессы нейропластичности: Кафедра нервных болезней Московской медицинской академии им. И.М.Сеченова. М., 2009.
5. Евзельман.М.А. Нарушение речи у больных с мозговым инсультом и ее коррекция. Орел, 2006.
6. Кадыков.А.С., Шахпаронова.Н.В., Черникова А.А. и др. Продолжительность двигательной и речевой реабилитации после инсульта // Неврол. вестн. 1994. Т. XXVI, вып. 3-4. С. 18-21.
7. Коновалова.Е.В., Кугоев.А.И., Борисенко.В.В. и др. Изменения мозгового кровотока по данным однофотонной эмиссионной компьютерной томографии у больных с глубинными сосудистыми очагами // Неврол. журн. 2000. №4. С. 13-19.
8. Кошелева.Н.В. Тематические лексико-грамматические упражнения для восстановления речи у больных с афазией. М. : АСТ, 2006.
9. Манвелов.Л.С., Кадыков.А.С. Инсульт. М. : Секачев, 2004.
10. Селиверстов.В.И. Понятийно терминологический словарь логопеда. М. : Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1997. С. 59.
11. Хомская.Е.Д. Нейропсихологическая диагностика. Часть II. Альбом. М. : Институт общегуманитарных исследований, 2004.
12. Цветкова Л.С. Афазиология – современные проблемы и пути их решения. М. : Издательство МПСИ, 2002.
13. Шкловский.В.М. Карта нейропсихологического исследования больных с нарушениями высших психических функций. М. : Отделение патологии речи МНИИ психиатрии МЗ РСФСР, 1996.

WEDDING CEREMONIES IN UZBEK AND ENGLISH CULTURE**Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna***PhD of English Linguistics Department, Docent, Bukhara State University**s.h.axmedova@buxdu.uz***Sharipova Mashhura Tolibovna***Student of the group 11-5ING-25, Bukhara State University*

Abstract: *This article compares the wedding ceremonies of Uzbek and English cultures by examining their pre-wedding customs.*

Key words: *wedding, bride, groom, clothes, pre-wedding, marriage, traditional rituals, engagement, cultural comparison.*

Weddings are important social events in every culture. It reflects people's values, traditions and beliefs. Weddings can vary widely from one society to another, although purpose of marriage is universal. Uzbek and English traditions combine family involvement, symbolic rituals. But they differ in customs, length and cultural significance.

Wedding plays a significant role in almost every culture because it marks one of the most meaningful transitions in a person's life. It symbolizes the formal union of two persons, showing their love promise to support each other. Moreover, it brings families and communities together. Through customs and rituals, a wedding can help to preserve cultural heritage that is passes it on to the next generation. Besides this, weddings create lasting memories and emotional connections for couple and their families. Monger said: "Weddings are not just as one-off parties, but as cultural rituals that reflect deeply held beliefs, values and social structures".

Uzbek weddings are rich in traditions and colorful rituals. They usually last three days and emphasize family, religion and hospitality. In Uzbekistan, firstly, matchmakers formally propose the marriage to the bride's family. Then religious prayers are recited and the engagement is officially recognized. It is called engagement ceremony. In religious ceremony, an imam conducts the formal marriage ritual. After that bride greets the groom's family with respect and performs symbolic gestures. The next day a large celebration with hundreds of guests, music, dancing and traditional dishes like kebab, shashlik and sweets(Present of Wedding Traditions in Uzbekistan).

In English culture, traditionally, the groom proposes to the bride often with a ring. Families may formally meet to celebrate the engagement, although this is less formal today. On wedding day the bride usually wears a white or ivory gown symbolizing purity. The groom also wears a suit, morning coat or tuxedo. In English culture weddings may take place in a church, civil registry office or other approved

venue. English weddings emphasize personal choice, public declaration and celebration with family and close friends (Bailey, J. 2003).

Similarities between Uzbek and English weddings:

- a) Both cultures treat weddings as a public declaration of union. Families, friends are invited to witness and celebrate couple's commitment.
- b) Pre-wedding events are common. For example, engagement ceremony.
- c) Special attire: brides and grooms wear distinctive and formal clothing.
- d) Gift giving: guests in both cultures give gifts or money to support couple as they start their married life.
- e) Family and Community involvement: both weddings emphasize family blessings and support.

Differences between Uzbek and English weddings:

- 1. Wedding duration: English weddings usually last one day. But Uzbek weddings often last three days.
- 2. Wedding size: weddings in England are typically small (about 50-100 guests). In Uzbekistan (approximately 300-500 guests).
- 3. Music: English weddings often have a dj or a live band. Wedding ceremony of Uzbek have live singers and national music.
- 4. Expenses: English weddings tend to be expensive but smaller. In Uzbekistan, people cost a lot due to large guest lists and many ceremonies.

Conclusion. Wedding is symbolic, social, cultural, legal and emotional events. It unites people, preserves traditions and strengthens personal bonds. Through their rituals, weddings highlight universal human desire for love and connection. English and Uzbek weddings differ in their traditions, size, duration and style. Despite these differences, both cultures value love, family, happiness which shows that every wedding is a meaningful and joyful event.

REFERENCES:

- 1. Monger, G. P. (2004). Marriage customs of the world: An encyclopedia of dating customs and wedding traditions (2nd ed.). ABC-CLIO.
- 2. Stone, L. (1992). Uncertain unions: Marriage in England 1660-1753. Oxford University Press.
- 3. Karaeva, O. (2018). Traditional wedding rituals of Uzbekistan.
- 4. Abramson, D. (2001). Women, Families and weddings in Uzbekistan: Cultural change and continuity. Central Asian Survey, 20(3), 281-300.
- 5. Hakimovna, U. K. (2025). CONCEPTUAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF MARRIAGE TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LINGUOCULTURE. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 3(9), 59-62.

6. Umurova, X. X. (2022). Ingliz va ozbek tillarida toy marosimi atamallari xususida. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 63-65).

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI HAMKORLIK FAOLIYATINING SAMARADORLIGI

Erkayeva Charosxon Shuxratjon Qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'rganishiga hissa qo'shadigan sinf jarayonlarini tushunish uchun asoslarni tasdiqlash va rivojlantirish, o'qitishni ilmiy o'rganishni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola shunday asoslardan biri – "O'zaro ta'sirlar orqali o'qitish" asosini taqdim etadi, unda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro ta'siri o'quvchilarning bilim olishi uchun markaziy harakatlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.*

Abstract: *Validating and developing a framework for understanding classroom processes that contribute to primary school students' learning is essential for advancing the scientific study of teaching. This article presents one such framework, the "Teaching through Interactions" framework, in which teacher-student interaction serves as a central driving force for students' learning.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, o'qish trayektoriyasi, kuzatuv o'lchovi, tilni modellash, fikr-mulohaza sifati hissiy qo'llab quvvatlash sinfxona tuzilmasi, o'qituvchi, o'quvchi va ota-ona o'rtasidagi hamkorlik.*

Keywords: *quality of education, learning trajectory, observational measure, language modeling, feedback quality, emotional support, classroom structure, collaboration between teacher, student, and parent.*

Sinf faoliyatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir juda muhim rol o'ynaydi. Bu esa ta'lim va o'quv jarayoniga yordam beradi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'zaro ta'siri sinfda sodir bo'ladi. Sinfdagi o'zaro ta'sirni qo'llash orqali o'quvchilar o'quv jarayonida faolroq bo'ladilar.

Ta'limning o'zaro ta'siri mazmuni. Yaxshi tashkil etilgan o'quv mazmuni o'qituvchilarga o'z o'quvchilari bilan yanada samarali munosabatda bo'lishga yordam beradi, chunki o'quv dasturidagi o'quv faoliyati ularning ta'limini shakllantirishi mumkin. Misol uchun, muammoli yoki loyihaga asoslangan mashg'ulotlar esdalikdan farqli o'laroq o'qituvchilarga bolalarning fikrlash va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu turdagi ta'lim nafaqat an'anaviy akademik sohalarida, balki bevosita ijtimoiy, hissiy va o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini o'rgatishda ham sodir bo'lishi mumkin.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ

savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Bu jarayonlarning barchasi o'qituvchi va o'quvchi munosabatisiz amalga oshmaydi.

Respublikamiz bo'ylab shu paytgacha olib borilgan ishlar, yangi qonun va farmonlarga qaramasdan hozirgacha bolalar bog'chasidan to'rtinchi sinfgacha bo'lgan barcha bolalar ta'limi uchun sifatni yaxshilash bo'yicha urinishlar yetarli darajada samaraga erishgani yo'q. O'qituvchilarning samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilar bilan muloqot qilish va o'quv dasturlarini amalga oshirishda sinfdagi xatti-harakatlarining funksiyasidir. Talabalarning keng miqyosdagi muvaffaqiyati testlari natijalarining murakkab ko'p bosqichli tahlillariga asoslangan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'rganishidagi tafovutning muhim qismi sinf darajasida tushuntiriladi va talabalarning o'qish trayektoriyasining yillar davomida o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'qituvchilarning tizimli va samarali tayyorgarligini oshirish va ularning sinflardagi faoliyatini yaxshilash uchun maxsus sinf amaliyoti juda muhimdir.

O'qituvchi samaradorligining qo'shimcha qiymatli ta'rifi sinflar o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan mexanizmlarni va bunday ta'sirlarni qanday qilib ishonchli tarzda ishlab chiqarish va maksimal darajada oshirish mumkinligini o'z ichiga oladi. Qo'shimcha qiymatli ta'rif tadqiqotining birinchi yili natijalari samarali o'qitishni ishonchli kuzatish mumkinligini va bu kuzatuvlar talabalarning o'qituvchilar haqidagi tasavvurlari va standartlashtirilgan muvaffaqiyat testlarida erishilgan yutuqlar bilan mazmunli bog'liqligini isbotlovchi dalildir. Ushbu tadqiqot natijalari, komponentlar atrofida ko'proq aniqlik zarurligini ko'rsatadi.

O'qituvchining salbiy munosabatlari o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimini baholashda qo'yilgan xatolar faqat baholashda qo'yilgan xatolar faqat baholash kompanentlarining o'zgarishiga emas, balki butun o'quv bilish faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. Ular bu tizimga xos bo'lgan kamchiliklarni kuchaytirib, uni kamsuqum yoki yoqimsiz qilib qo'yadi. O'quvchi o'z-o'zini bilimini taqqoslaganda sinovda ijobiy natijalarni qo'lga kiritadi. Bolalar bilimini shunday taqqoslash kerakki, unda birovni yuqori ko'tarib, boshqalarni yerga urmay, bolalarning eng yaxshi natijalarga yerishuvini va o'z shaxsini takomillashtirishini qo'llab-quvvatlasin. Pedagog ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni oldini olishda har bir o'quvchini xarakteriga e'tiborini qaratish kerak.

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kontseptsiyalashning ushbu yondashuvi asosan o'rta maktabdagi oldingi nazariy va

empirik ishlardan kelib chiqadi. O'quv va psixologik adabiyotlar sinf amaliyotining bir nazariyasini va rivojlanish yutuqlarini rag'batlantirish uchun kattalar bilan o'zaro munosabatlarning ahamiyatini tasvirlash uchun, o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlarini tashkil qilish uchun ko'p darajali yashirin tuzilma uchta keng doirasini taklif qiladi; bular -hissiy qo'llab-quvvatlash, sinfni tashkil etish va o'qitishni qo'llab-quvvatlashdir.

O'qituvchi va o'quvchi hamkorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan muloqot;
- o'quvchini faol subyekt sifatida ko'rish;
- birgalikda dars maqsadini aniqlash va natijalarni baholash.

O'quvchining yakka tartibda emas, balki jamoada o'rganishiga sharoit yaratish. Shu bilan birgalikda o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik o'quvchi uchun ham muhim hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik ota-onalarga ham asoslanadi. Chunki hozirgi kunda ba'zi oilalarda bolalarni tarbiyalashning asosiy ijtimoiy institut kabi ta'lim-tarbiya shakllangan bo'lib, umumiy ta'lim muassasasi ota-onalar bilan o'zaro aloqani yo'lga qo'ymoqda. Shunday qilib, ota-onalar, bolalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning yangi turi rivojlanmoqda. Ushbu turdagi munosabatlarda bola endi ob'ekt emas, balki ta'lim faoliyatining sub'ekti bo'lib, maktab o'qituvchilarining ota-onalar bilan ishlash tizimining yetakchi g'oyasi har bir bolaning oilasi bilan hamkorlikni o'rnatish, o'zaro yordam berishi natijasida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot sinfdagi o'zaro ta'sirlar, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik o'quvchi uchun foydasi bilimli, ta'lim-tarbiya ko'rgan bo'lsa vatanimiz uchun komil inson bo'lib yetishishdir. Respublikamizning rivojlanishiga hissassi katta yetuk bir shaxs bo'lib yetishadi. Bunday insonni tarbiyalash o'qituvchilarning yelkasiga yuklatilgan eng buyuk burchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayeva S.N. O'qituvchi imidji mas'uliyati bilan o'zaro aloqadorlik uyg'unligi // «Psixologiya». 2021. №2. B. 55-99.

2. Hanushek, E. A. (2002). The long-run importance of school quality. NBER Working Paper 9071, National Bureau of Economic Research/ЗАМОУАВІЙ ТАЪЛІМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2023, 8 (129) 1 Kane, T. J., & Staiger, D. O. (2012). Gathering feedback for teachers: Combining high-quality observations with student surveys and achievement gains. Policy and practice brief prepared for the Bill and Melinda Gates Foundation.

3. Hamre, B. K., Pianta, R. C., Burchinal, M., Field, S., Locasale-Crouch, J. L., Downer, J. T., . . . Scott-Little, C. (2012). A course on effective teacher-child interactions: Effects on teacher beliefs, knowledge, and observed practice. *American Education Research Journal*, 49(1), 88-123.
4. Brophy, J., & Evertson, C. (1976). Learning from teaching.

THESIS: IRONY AND THE CONSTRUCTION OF CONCEPT NARCISSISM IN RAMANI DURVASULA'S IT'S NOT YOU

Kim Yuliya Sergeyevna

English teacher (UzDJTU, English philology, applied aspect department).

Abstract: *This thesis studies the strategic use of irony, a stylistic device in Ramani Durvasula's self-help book, It's Not You: Identifying and Healing from Narcissistic People. It claims that this device functions as one of major means of shaping the concept narcissism in the reader's perception. Durvasula does not just uses this tool for creating a humoristic atmosphere, she makes the concept of narcissism a relatable, psychological phenomenon by using certain strategies. The analysis focuses on how irony, specifically through the use of rhetorical statements and the exposure of the narcissist's nature, constructs a simple to grasp and clearly identifiable real understanding of narcissistic disorder for the reader. This process, therapeutically concentrating on helping the victims, at the same time can essentialize the psychological concept, changing it from a clinical term into a fixed, narrative archetype or a cliché. This thesis concludes that irony is not some entertainment device or a criticizing tool but also an important instrument for identifying, explaining the reality, the mood of the book and defining the concept "narcissist in the writer's mind."*

Key Words: *Irony, concept narcissism, rhetoric questions, self-help book, Ramani Durvasula, psychological discourse*

INTRODUCTION

Ramani Durvasula's *It's Not You* (2020) has become as a prominent and popular self-help book for narcissistic abuse survivors giving a vivid illustration on interpersonal relationships and traumatic experience. While specialized in her clinical expertise, the book's relatability to the lived experiences of the victims makes the phenomenon more comprehensible to a bigger audience. This thesis studies the philological importance of this stylistic device, used as a major means of shaping the concept narcissism in the book's discourse. The concept is not simply depicted in medical or psychological terms; it is shaped through a linguistic strategy that makes it understandable, memorable, and definitely personal.

Narcissism, in Durvasula's book, changes from the complex complicated diagnostic criteria of the DSM-5 to a simply comprehensible "concept narcissism", a narrative-driven archetype modeled to help the reader recognize and emotionally process the trauma. The main claim is that the used sarcastic tone functions as a crucial mechanism persuading the victim, serving to expose the absurd of the narcissist's nature, behavior and tactics, as well as to strengthen the reader's

defensive mechanism. This rhetorical strategy of the text gives a textual analysis to understand how a complex psychological term is made simple and clarified for therapeutic purposes.

The rhetoric of irony

1. Rhetorical statement

Durvasula establishes a rhetorical statement by creating a clear opposition: the naïve and confused reader versus the two faced, manipulative narcissistic personality. Irony is the main stylistic device used to manage this juxtaposition. The title itself, *It's Not You*, is an example of situational and verbal irony, as the victims have often been told by their abusers and those who surround them that it is their fault. As the analysis shows, the book's major function is an ironic reversal of the abuser's side of the story.

A consistent technique includes the ironic description of the narcissist's self-absorbed self-centered and self-satisfied nature versus their real negative effect on others. For example, a narcissist's need for total control may be ironically described as their "heroic quest for order" when the outcome is domestic violence and emotional trauma. This rhetorical statement is aimed to elicit "Aha!" moment in the reader, using humor and recognition to soften the trauma:

"The narcissist's sense of entitlement means they genuinely believe they are exempt from the rules—an ironic twist, as their insistence on freedom often results in them being the most rigidly bound to their own ego."

The irony of hypocrisy becomes the defining feature of the concept narcissism presented: the narcissist is at the same time grandiose and fragile, charming or nice and cruel, independent or self-sufficient and weak. The repetition of this ironic paradox shapes the concept in the reader's mind as a basically flawed and damaged.

Sarcastic tone and semantic reinforcement

The book's sarcastic tone help to define the conceptual boundaries of narcissism. Durvasula quite frequently uses sarcasm when she is quoting or paraphrasing the manipulative discourse used by narcissists by putting the abusive rhetoric in quotation marks and right after that providing ironic, correcting comments. The author presents the narcissistic manifestations and manipulation techniques, such as gaslighting or future faking, as veiled actions of cruelty, selfishness and aggression.

For instance, the description of a narcissist's apology may be presented ironically, as shown in this part:

"When the narcissist finally utters an 'apology,' it is the most magnificent performance of verbal misdirection you will ever see. It will be the Olympic gold medal winner of non-apologies: 'I'm sorry you feel that way.' "

This rhetorical statement uses irony to expose the narcissist's language or choice of words for influencing and manipulating their victims revealing their semantic intentions in attempt of emotional abuse. This way the concept of narcissism is transformed by making it less about a psychological disorder and more about a purposeful villain with a specific pattern of behavior.

Irony as a Pedagogical Tool for Concept Formation

Finally, irony in *It's Not You* functions as a powerful teaching enlightening tool. It teaches the readers to re-envision and re-interpret their traumatic experiences by giving them a powerful explanatory tool. By using ironic language to depict the reader's inner state and the web that they find themselves in. Durvasula provides validation to the reader's feelings, trauma, as well as showing the way to recovery after such relationship. The irony creates a clear understanding, connection, bond between the author and the readers, who share common lasting traumatic experience. The conceptual frame of the "narcissist" is achieved by means of ironic exposure of dramatic difference between the abuser's outward image and their terrible reality.

CONCLUSION

The analysis shows that irony is not just incidental stylistic choice in Ramani Durvasula's *It's Not You*, but sooner the primary rhetorical tool shaping the concept of narcissism. By using ironic juxtaposition, a consistently sarcastic tone, and a rhetorical frame, Durvasula clearly transforms the clinical definition of Narcissistic Personality Disorder (NPD) into a simple to comprehend and interpret concept narcissism for her the audience that shares the similar experience with her.

This strategic use of irony has a dual aim: therapeutic instrument and conceptual frame. The irony validates the reader's traumatic experience by recognizing the obviously absurd of narcissistic abuse, redefining and renaming the guilty in this destructional relationship. The necessity of showing the real world and real nature of the narcissistic disorder led to the variety of means to achieve it.

Therefore, the thesis concludes that the book's success is in its masterful use of different devices helping to get the topic clearly and in different colors and shades. Future linguistic research should explore the frame and the effect of this ironized discourse, studying by means of using different devices affects the textual simplification of psychological concepts and as a result leading to revelations, realization, validation and finally to a recovery

REFERENCES:

Durvasula, Ramani. *It's Not You: Identifying and Healing from Narcissistic People*. New York: Simon & Schuster, 2020.

Goffman, Erving. *The Presentation of Self in Everyday Life*. Garden City, NY: Doubleday, 1959. (Applicable for discussing the ironic gap between the narcissist's self-presentation and reality.)

Hutcheon, Linda. *Irony's Edge: The Theory and Politics of Ironic Discourse*. London: Routledge, 1994. (A foundational theoretical text on the function of irony in discourse.)

Lakoff, George, and Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980. (Relevant for analyzing how the concept narcissism is framed via adversarial metaphors.)

Wagener, Stephen E. "The Rhetoric of Self-Help Literature." *Journal of Popular Culture* 27, no. 1 (1993): 147–156. (Provides context for the persuasive strategies used in the genre.)